

Bazzning Taslim Bo'lishi

Somon chiqib ketgach, Afshin yolg'iz qolib, undan eshitgan gaplar xususida fikr yurgizdi. Somonning gaplari uning o'ylab yurganlariga mos kelardi. Somon bu ishlarni Afshinni sevganidan, undan qo'rqqanidan yoki vasiyatnomani o'zgartirarmikin, degan shum niyat bilan qilganining Afshin uchun farqi yo'q edi. Afshin Jahon haqida eshitganlarini yana xayoldan o'tkazdi. Uning go'zalligi va mehriyosini eslab, daragini topgani uchun sevindi. "Qo'limga tushgandan keyin, hech qayerga qochib ketolmaydi, - dedi u o'ziga-o'zi. U yana yo'lida birdan-bir g'ov bo'lib turgan Zig'romni esladi. Uni halok etish borasida Somon bergan maslahatni ma'qul topdi.

Sohib - Zirg'om hamrohlari bilan yetib keldi, degan xabarni olgunga qadar Afshin shunday orzular bilan bir necha kunni o'tkazdi. Ertasi ertalab Zirg'om uning oldiga keldi. Uni Afshin yaxshi kutib olib davlatga yordam berishga xayrixohlik qilgani uchun tashakkur aytdi. Sohib ham tashakkur bildirdi. Jahondan umidini uzgan Zirg'omning chehrasida ancha o'zgarish ro'y berganini payqasa ham, Afshin e'tibor bermay, uning bahodirligi va olijanobligini maqtay ketdi. "Davlat xizmatini o'taganim va dinga yordam ko'rsatganim uchun maqtanarli bir ish qildim deb aytishdan o'qizman", - dedi Zirg'om so'z boshlab.

- Gaping to'g'ri, sen bizga juda zarur bir fursatda yetib kelding. Muhim ishlarda sendan bo'lak suyanadigan sarkardamiz yo'q. Men seni sinovdan o'tkazganman, shijoat va matonatingni yaxshi bilaman.

- Men bu urushning cho'zilib ketgani va xurramiylar yerini qo'lga olish bu qadar og'irlashganidan ajablangandim. Bu istehkomlarni va bu yerga kelish yo'llarining qiyinligini ko'rganimdan keyin sizning bahodirligingizga tasanno aytdim. Sizning ilgarilab ketishingiz yoki tezroq g'alaba qozonishingizga men katta hissa qo'shaman, deb maqtana olmayman. Lekin bu muhorabadan chetda turishni o'zinga ep ko'rmadim. Boshqalar qatori kelib, aralashishni lozim topdim. Qanday xizmat buyursangiz tayyorman, - dedi Zirg'om.

Zirg'omning bu gaplaridan uning Jahondan umidi uzilganiga Afshin qat'iy ishondi. Zirg'omga halokat chohini tayyorlash uchun Afshin gapni boshqa yoqqa burmoqchi bo'ldi:

- Borakallo, himmatingga balli. Sen safardan kelding, avval dam olishing kerak... Xo'sh, Somurrodan gapir! U yerdagilarning ahvoli qalay, xalifa o'zlari qalaylar?

- Bu Bobak badbaxtning ishidan hamma tashvishda. Ammo sizning irodangizga va olib borayotgan oqilona siyosatingizga ular tasanno aytishmoqda... Xalifa bu urushni tezroq tugatishga harakat qilayotganini sezib, shahid bo'lish orzusida o'zimni shu jangga tashlash uchun keldim, - dedi Zirg'om. Uning ko'zlari charaqlab ochilib ketdi. Zirg'omning bu ko'rinishidan Afshin o'zicha xo'p xulosa chiqarib oldi va unga qarab:

- Bu gaplarni ertaga hal qilamiz. Ammo hozir lashkargohlarimiz, sarkardalarning o'rnashgan yerlari, xandaq, qo'rg'on va askarlarning pistirmalarini senga ko'rsataylik, - dedi-da, o'rnidan turib otlarni tayyorlashga buyurdi.

Zirg'om o'rnidan qo'zg'alarkan:

- Bu istehkomlarning ba'zilarini ko'rib, harbiy intizom o'rnatishda mo'jizakor ishlar qilganingizni payqadim, - dedi.

Kunning qolgan qismini ular ikkalasi butun istehkom va qo'rg'onlarni aylanish bilan o'tkazishdi. Zirg'om ko'p sonli askarlarni va o'rnatilgan puxta intizomni ko'zdan kechirib chiqdi. Afshin o'zidan-o'zi bu narsalarni ko'rsatganidan Zirg'om shodlanib:

- Shuncha aksar bor ekan, endi bu shaharni qo'lga olishga darhol kirishilsa ham bo'larkan, - dedi. Afshin:

- Bu sustkashlikning sababini senga ertaga aytib beraman, - dedi-da, ikkalasi ajralishdi.

Shundan keyin Zirg'om o'z chodiriga bordi. Uni Vardon kutib o'tirardi. Vardon bilan Zirg'om ikkalasi haqiqiy og'ayni, oralaridan qil o'tmaydigan do'st bo'lib qolishgandi. Ikki do'st suhbatga tushishdi. Zirg'om Afshin bilan bo'lgan hamma gaplarni o'rtog'iga aytdi va: "Afshin urushni tezlatishga va'da qildi. Men undan urushning eng og'ir yeriga yuborishni o'tinib iltimos qildim. Hozirdan senga aytib qo'yay, agar men qaytib kelmasam, mushtipar onamning holidan xabardor bo'lib yur!" - dedi bo'g'ilgan ovozi bilan. Buni yashirish uchun yo'talib qo'ydi-da, gapini davom ettirdi:

- Mening ishq-muhabbatim tufayli u kishi chekkan aziyatlardan o'zing xabardorsan. Yoqutaning ham ehtiyotini qil. Ajab emas, xudo karam qilib jazmani bilan uchrashirsan. Bilishimcha, sen uni taniysan. Jahon masalasiga kelsak, mabodo u hayot bo'lib, mening vafotimdan keyin unga uchrashsang, ishqida tortgan dard-alamlarim haqida unga aytishni senga omonat topshiraman.

Vardon uning so'zini bo'ldi:

- Menga vasiyatingizni qo'ying! Sizdan keyin men sira tirik qolmayman. Siz qayerda bo'lsangiz, o'sha yerda bo'laman deb yoningizda birgalashib yuribman.

- Do'zax azobi bu hayotdan qutulish uchun men o'zimni halokat changaliga tashlamoqchiman, senga nima bo'ldi?

Vardon xo'rsinib boshini egdi. Ko'zlaridan yoshi oqib, yuziga tushdi. Xijolat tortgandek boshini yuqori ko'tardi-da:

- Menda ham o'zinga yarasha dard-alam bor. Undan xabardor bo'lganingizda, halokat yo'li tomonga o'zingizdan oldin mening borishimni talab qilgan bo'lardingiz. Mayli, salomat bo'lsak, hammasini keyin aytib beraman. Har holda mening ishimning oqibati ham siznikiga bog'liq.

Vardonning yuragi shunchalik kengligidan Zirg'om taajjublandi. Uning ko'nglida nimadir borligini Zirg'om ilgaridan sezib yurgan bo'lsa ham, o'zi gap ochmagani uchun so'rashga iymangan edi:

- Mayli, do'stim, Vardon, sen nima istasang, shu bo'ldi. Ertaga Afshinning bizga tayyorlab qo'ygan vazifasini ko'ramiz.

Afshin shu kechani Somon bilan Zirg'omning kunini ko'rsatish ustida reja tuzib o'tkazdi. Ertasiga ertalab Zirg'om Vardon bilan birgalikda Afshin huzuriga borishdi. Afshin yolg'iz o'zi o'tirardi. Zirg'om Afshindan qanday qarorga kelganini so'ragandi, u:

- Dushmanni yana bir muddat qamal qilib turishni maslahat ko'ryapman, - dedi.

Bu o'zgarishdan Zirg'om cho'chidi, hujumni keyinga surish unga ma'qul tushmadi:

- Ne vajdan bunda qarorga keldingiz?

- Bugun hujum qilmog'imizni men yomon natija beradigan shoshma shosharlik deb o'ylayapman. Kechasi bu ishni har tomonlama o'ylab, mulohaza etib ko'rdim. Bizning g'alaba qilishimizga kafil bo'la oladigan hozirlikni topmadim.

- Bugun hujum qilishga nimadan qo'rqayapmiz? Shuni menga ma'lum qilsangiz? - qaytib so'radi Zirg'om. Afshin o'rnidan turib, chodir eshigi yoniga borib to'xtadi-da, Bazzga va uning qo'rg'onlariga sinchiklab tikildi.

- Bu shaharni ko'ryapsanmi? U osmondagi shunqordan ham badasturroq. Xususan, ana shu qasr joylashgan g'arbiy tomon, u Bobakning qasri. Biz shaharni olish uchun uning yonidagi tuproqqo'rg'onga yetib borishimiz kerak. Shaharning g'arbiy tomoniga qarab turgan anavi baland tepani ko'ryapsanmi? Qasrga o'sha tepaning orqasidan bo'lak yo'l yo'q. U yo'l esa g'oyat xatarli. Undan ko'p askar yurolmaydi, kam askar esa xurramiylarning o'qi va manjaniqidan qo'rqib, jasorat qila olmaydi. Bobak yashirib turgan kishilariga qattiq suyanadi. O'sha tepaning orqasida yoki uning vodiysida yashirib qo'yilgan askarlari bo'lishi kerak. Ana shundan

xafsirayapman.

- O'sha tepaga farg'onalik askarlarim bilan men borsam? - dedi Zirg'om dadil.

- Agar shunday qiladigan bo'lsang, men qo'rg'onlar atrofiga har tomondan askar to'playman. Xudo xohlasa, shu bilan g'alabaga erishamiz.

- Hujumni qachon boshlaymiz?

- Sen ma'qul ko'rgan paytda.

- Shu kechasi, - dedi Zirg'om qat'iy, - men kechasi ularga bostirib kiraman, tongotargacha eson-omon Bazzga kirib olsam bo'lgani. Sizlar shaharning boshqa tomonidan hujum qilasizlar. Shu bilan g'alabani qo'lga kiritamiz.

- Menimcha, kechasi hujum qilish uchun hammamiz puxta tayyorlanishimiz kerak: sen askarlaring bilan tepaning orqa tomonidan borib, shaharning ro'baro'sida turasan. Vaqt yarim kechadan og'gach, u yerda uch joyda olov yoqiladi. Undan askarlarimiz har tomondan shaharga hujum qilganini bilasan-da, sen ham o'z tarfingdan hujum boshlaysan. O'g'lim, sen joylashadigan tomon boshqa hamma tomonlarga qaraganda xavotirliroq, buni esingdan chiqarma!

Zirg'om:

- Xavf-xatarning men uchun ahamiyati yo'q. Hozir men kishilarimni tayyorlash uchun boray, ertaga hammamiz Bobak qasrida uchrashamiz, - dedi-da, tashlanmoqchi bo'lgan sherdek tishining oqini ko'rsatib kuldi. G'azab va umidsizlik uni yanada haybatliroq qilgan edi. Ikki mo'ylabi dikkayib, qoshlari chimirildi, ko'zlari chaqnadi. Afshin unga qarashga va ko'ziga tikilishga hayron bo'lib: "Agar senga o'xshash o'n azamat bo'lganda, allaqachon Bazzni olgan bo'lardik", - dedi. Afshin bu gapi bilan, Zirg'omni yana ham tezlamoqchi edi. Bobakning kuchli mudofaa qurollari va pistirmada yotgan kishilari tufayli uning tepadan oshib, qo'rg'onga borolmasligiga Afshin qattiq ishongandi. Qizig'i shundaki, Zirg'om o'z odamlari yoniga borib, hujumga tayyorlanmoqchi-yu, lekin o'zi yo'lni bilmaydi, uni so'ragani ham yo'q. Yo'lni bilmagani uchun Zirg'om muqarar mag'lubiyatga uchraydi, deb o'ylab Afshin xursand bo'ldi.

Afshinga qarab: "Ertaga o'sha yerda uchrashamiz", - deb qo'li bilan Bobakning qasrini ko'rsatgach Zirg'om chiqib ketdi. Afshin esa uni iljayganicha kuzatdi. Chodirdan uzoqlashgan Zirg'omga Vardon yo'liqdi. Har ikkisi birga keta boshlashdi. Vardon Afshin bilan qaday qarorga keliganini so'radi.

- Shu kechasi Bazzga hujum boshlaydigan bo'ldik, - dedi Zirg'om unga qarab.

- Qayerdan?

- Bazzga men farg'onaliklar bilan ana shu tepa orqasidan borib, g'arb tomondagi darvozadan bostirib kirishim kerak. Bobakning qasri xuddi shuning yon biqinida. Shunday qilib, tuproq qo'rg'ondan birinchi bo'lib biz kiramiz yoki o'sha qo'rg'on tagida halok bo'lamiz.

Vardon o'rnidan turib, unga qaradi-da: "Tepa tomonga boradigan yo'lni bilasizmi?" deb so'radi.

- Yo'q... bilmayman... lekin...

Vardon ajablandi:

- Lekiningiz nimasi? U uzoq yo'l, unga boradigan kishi tepa orqasidan yurib, tuproq qo'rg'onning ro'parasidagi qirg'oqqa yetish uchun bir necha soatlik masofani bosib o'tishi kerak, - dedi va bu bilan Zirg'omni ogohlantirmoqchi bo'ldi.

- O'zing u yo'lni bilasanmi?

- Ha, bilganda qanday, uni besh qo'limday bilaman, - dedi Vardon xursand bo'lib.

Zirg'omning ham ko'ngli joyiga tushdi:

- Unday bo'lsa, sen bizga yo'l boshlovchi, balki qo'mondonimiz bo'lasan. Yur, odamlarimiz yoniga boraylik. Hozirdan tayyorlanishsin. Keyin kechqurun ular bilan sen bilgan yo'lga tushib, kechasi shaharning ro'parasiga yetib boramiz.

Vardon "xo'p", dedi-da birgalikda keta boshlashdi. Oralarida sukunat hukm surardi. Bazz yo'lida uchrashi mumkin bo'ladigan xavf-xatarlarni ko'z o'ngiga keltirib, har ikkalasi xayolga cho'ngandi. Lekin qalblaridagi g'alabaga ishonch tuyg'usi ikkalasini ham xavf-xatarlarga e'tibor bermaslikka undardi. Ular farg'onaliklar o'nashgan lagerga yetib kelishdi. Farg'onaliklar ko'p emas, bir necha yuz kishi xolos. Lekin hammasi baquvvat, saralangan, Zirg'om uchun o'zini fido qiluvchi, hatto o'tga tashla desa, tashlaydigan kishilar edi.

Zirg'om chiqib ketgandan keyin Afshinning yoniga Somon kirdi. Zirg'om bilan bo'lgan mojaroni Afshin unga birma-bir aytib berdi va: Qolgan ishlarni sen o'zing bajarasan", - dedi. Somon qabul ishoratini qilib, bosh eggancha chiqib ketdi.

Bexosdan dushmanni bosish uchun shu kechasi hujum qilishga Afshin askarlarni tayyorladi. U o'z qismiga Jahon yoki Gulnor yashaydigan ayollar qasriga kiradigan darvoza tomondan hujum qilishni tayinladi. Shaharga bostirib kirib, kishilar o'lja olishga kirishgan choqda, Afshin ayollar qasrini qo'lga olish va Jahonni ishonchli bir kishiga topshirib, undan keyin boshqa ishlarga boshchilik qilish rejasini tuzdi.

Zirg'om esa o'z kishilarini tayyorlab, Vardonning yo'l boshlovida yo'lga tushdi. Tepa atrofini aylanib, g'arb tomondan Bazz ko'rinib turgan bir yerga borishib, hamma yoqni qorong'i qoplaguncha o'sha yerda turishdi. Odamlarga shu yerda hujumga tayyor bo'lib kutib turishni buyurdi. Keyin Vardon pastak bir tepaga borib, Bazzga nazar tashladi. Kechachi notanish bir shaharga kelgan kishi faqat chiroqlarni ko'rib, bino va qal'alarini yaxshi ajrata olmaganidek, ular ham u yer-bu yerdan milt-milt yonib turgan chiroqlarni ko'rishdi, xolos. Vardon:

- Bu chiroqlardan tuproq qo'rg'onga yaqinrog'i, eng yorug'i Bobakning chiroqlari, biz uni qo'lga olamiz yoki o'sha yerda halok bo'lamiz. Shaharning ana u tomonidagi olis chiroqlarni ko'rib turibsiz. Ayollarning qasri o'sha yerda. Bobak xotinlarga o'chligi va dunyo lazzatlariga mukkasidan ketganligini bilsangiz kerak deb o'ylayman, - dedi.

Zirg'om uning gapini bo'ldi:

- Tadbirli va aqlli bir xotining sharofatidan unda ancha o'zgarish yuz berganini eshitdim. Ofarin u ayolning buyuk aqlu irodasiga!

- Haqiqatan ham u aqlli ayol ekan. Bo'lmasa, Bobakka so'zini o'tkaza olarmidi. Uning ra'yisiz Bobak hech bir ish qilmas ekan.

Zirg'om chuqur nafas oldi:

- Hozir bizga bu gaplarning nima keragi bor? Hujumni boshlaydigan yo'limiz haqida gaplashaylik? Hozir biz bilan shahar orasida nima bor?

- Shahar bilan oramizda bir vodiy bor, - dedi Vardon.

- Uni qanday kesib o'tamiz?

- Vodiy ustidagi ko'prikka o'xshatib turgan joydan o'tamiz. Uning narigi tomoniga borib olsak, tuproq qo'rg'onga yaqinlashgan

bo'lamiz. Bir hujum bilan tuproqqo'rg'on ustidan oshib o'tamiz. U yerda qo'riqchilar bo'lmasa kerak, albatta. Chunki bizni shu qaltis yo'ldan keladi yoki u yerga tushadi deb, xurramiylar sira xayoliga keltirmaydi.

- Unday bo'lsa yur, tushaveraylik.

- Xojam, sabr eting. Odamlar uxlab, ko'ngil tinchiydigan vaqt bo'lsin. Yarim kecha bo'lmay, Afshinning yoqqan o'tini ko'rmay turib, u tomon siljishimiz durust emas, - dedi Vardon.

- Xo'p, mayli, gaping, ma'qul - dedi-da, Zirg'om odamlar tomon qarab, jim kutib turishlarini, o't yoqmaslikni va olg'a yurishga buyruq berilmasdan turib ovoz chiqarmaslikni ta'kidladi. Keyin ularni qoldirib, Vardonni chaqirdi.

- Yur, sen aytgan tomon bemalolmi yoki biror to'siq bormi, yaxshiroq tekshirib ko'raylik, - dedi.

Ular ikkisi toshloq yerlarda paypaslab-paypaslab, uzoq masofa bosishdi. Kechasi tim qorong'iligidan kishi tumshug'i tagidagi narsani ham ko'rolmasdi. Hamma yoq jimjit. Katta toshlar ustida yurgan ilonlarning vishillashi va havoda qanot qoqqan qushlar ovozi ovozidan bo'lak hech sado eshitilmasdi. Zirg'om bilan Vardon ovoz eshitilmasin deb qadamlarini sekin-sekin tashlashga jon-jahdlari bilan urinishardi. Ular vodiya yaqinlashganda tepasidan ikki-uch kishi bir yo'la o'ta oladigan ko'priikka o'xshash katta xarsanglarni ko'rishdi. Shu payt Zirg'om:

- Odamlar g'aflat uyqusida yotgan shu topda to'g'ri tuproqqo'rg'onga borib, ustidan oshib tushgim kelyapti. Men qo'rg'onning ichkarisiga kirib olsam, musulmonlar bardam bo'lib hujum boshlaydilar va bu ish zafarimizga sabab bo'ladi, - dedi.

Vardon uni qaytardi:

- U yerda pistirmada yotgan kishilar bo'lishi mumkin. Sizga shikast yetkazishlaridan qo'rqaman. Yaxshisi, birga qaytaylik yoki men o'zim borib kishilarimizni boshlab kelay-da, hammamiz birgalikda ishga kirishaylik.

- Bo'lmasa, sen bor, ularni olib kelguningcha men shu yerda turaman.

Vardon:

- Shu joydan qimirlash yoki biror harakat qilishdan ehtiyot bo'ling! - dedi-da, farg'onaliklar tomon qaytib ketdi. Zirg'om yolg'iz qoldi.

Vardon ketgandan keyin u tuproqqo'rg'onga qarab, uning o'zidan ikki yuz qadam narida ekanini angladi, unga sekin yurib borib, orqasida nima borligini bilib qaytib kelmoqchi bo'ldi. Yo'lni bilmasa ham, qo'rg'onni mo'ljalga olib yo'lga tushdi. Yerga tegib ovozi eshitilmasin deb qilichini baland ko'tarib, oyog'ini asta-sekin bosardi. U qo'rg'onga yaqinlashdi. Qo'rg'on baland, tepa ustida minoralar bor edi. U yerda darvoza tepasidagi katta minoradan bo'lak hech yerda chiroq ham yo'q, ovoz ham eshitilmaydi. Shu yagona chiroq yorug'i ham juda zaif edi.

Zirg'om tuproqqo'rg'onga yaqinlashganda, g'ivirlagan bir harakat sezdi-da, qilichining dastasidan ushlagan holda o'rnidan irg'ib turdi. Shu payt qilich yalang'ochlagan o'n chog'li kishi ko'z ochib-yumguncha toshlar orqasidan chiqib uni qurshab olishdi.

O'zining qo'lga tushganini payqagan Zirg'om qilichini qindan sug'urdi-da, qattiq bir na'ra tortdi. O'limni pisand qilmaydigan bu dovyurak yigit o'ng va chap tomonga sher kabi tashlanardi. Ular esa arslondan qo'rqan kiyikdek, oldiga tushib qochishardi.

Zirg'om ular ketidan beparvogina chopardi. U birdan xandaqqa ag'darildi, qo'lidan qilichi tushib ketdi. Uning ikki oyog'i bilan yelkasi atrofi arqon tashlandi va uni xandaqdan tortib ola boshlashdi. Zirg'om hayqiriq-suron, do'pir-do'pir ovozlari va Vardonning "men shu yerdaman" degan tovushini ham eshitdi. Bu yerdagilar Zirg'omni poylab turish uchun bir kishini qoldirib, Vardonning tovushi chiqqan tomonga yugurishdi. O'z odamlari olidan yordamga kelganini tushungan Zirg'om sherga o'xshab bir na'ra tortdi-da: "Vardon, mana bu arqonlarni uz!" deb qichqirdi.

Ko'z ochib-yumguncha fursat o'tmasdan Vardon yugurib kelib, arqonlarni kesdi. U arqondan bo'shanib olgandan keyin, qilichini ushlagan xurramiyalarga hujum qildi, ulardan o'ldirganini o'ldirdi, qolganlari tumtaraqay qochib qoldi. Salgina vaqt o'tmay xurramiylar ketib hamma yoq bo'shab qoldi. Keyin Zirg'om o'z odamlariga: "Qo'rg'on tomon hujumga!" deb baqirdi. U gapini tugatmasdan xuddi tog' yiqilayotgandek qo'rqinchli bir ovoz eshitildi. Vardonning: "Xojam, o'zingizni chetga oling, ular tog'ning tepasidan turib katta toshlar yuklangan aravalarni yumalatishtyapti. Toshleri ustimizga tushadi, uni shijoat bilan daf qilib bo'lmaydi", - degan ovozi eshitdi.

Urush va nayza sanchishdan qo'li toliqqan Zirg'om o'zini chetga oldi. Vardon uni ogohlantirmaganda, toshli aravalardan bittasi ustiga tushib, mayda-mayda qilib yuborishi hech gap emasdi. Chunki ozgina o'tmasdan, aravalar qattiq sel yoki jaladek yuqoridan yog'ilib keldi. G'ildiraklar yumalab-yumalab, qo'rg'onga kelib taqalaverdi. Ularga osilib, qo'rg'onning tepasiga chiqish mumkin bo'lib qoldi. Uni ko'rgan Zirg'om: "Qo'rg'onga hujumga", deb kishilariga buyruq berdi. O'zi qilichini yalang'ochlab, kishilarining oldiga tushib yugurdi. O'zi chiqib ulgurmasdan, qo'rg'onning tepasi qo'lga o'q-yoy ushlagan kishilari bilan liq to'ldi. Raqib tomon hujum qilayotganlarni o'q-yoy bilan otsa ham, ular parvo qilmay olg'a intilishaverdi. Zirg'om ularning oldida bo'lib, boshidan qalpog'i tushgan, uzun ust kiyimi va chalvori yirtilgandi. Uning darvoza yonidagi aravalardan biriga chiqib, undan qo'rg'onga oshib tushmoqchi bo'layotganini Vardon ko'rib, u ham o'shanday qildi. Shu payt qo'rg'on darvozasi ochilib, undan xurramiylardan bir guruhi chiqdi-da, aravani va aravadagilarni qurshab oldi, Zirg'om bilan Vardonning ustiga arqon tashladi. Ular bir aylanib, qilich bilan arqonni kesishdi-da, Zirg'om ularga: "Pastkashlar! Qilichlar qayerda qoldi, biz bilan arqon urushi qilmoqchisizlar?" - deb baqirdi.

Zirg'omga hech kim javob qilmadi, u arava ustida turib qilich o'ynatardi. Shu payt birdan arava yog'ochidan oyog'i toyib ketib, quladi-da, boshi bir toshga urildi. Uni ko'rgan Vardon o'zini unutib, u bilan ovora bo'lib qoldi. Bu holdan foydalangan dushman askarlari ularning ustiga yopirilib, qo'l-oyog'ini bog'lashdi va qo'rg'onning ichkari tomoniga olib borib, darvoza tepasidagi minoraga chiqarib, soqchilar boshlig'ining oldiga tashlashdi. Boshliq Zirg'omni hushiga keltirish uchun ustidan suv septirdi. U o'ziga kelgach, qilichini qo'lga ushlagan va sakrab turishga harakat qildi. Lekin qo'l-oyog'i bog'langan holda yotgandi. Yoniga qarasa, Vardon ham o'zidek bog'liq holda yotibdi. Asirga tushganliklari Zirg'omga alam qildi va ularga qarab: "Urushda arqondan panoh topish sizlar uchun uyat, mard bo'lsanglar, qilichni ishga solinglar, o'ldiringlar, lekin asir qilmanglar!" - dedi-da bunday qarab xurramiylar kiyimida - chalvor va qalpoqda o'tirgan soqchilar boshlig'iga ko'zi tushdi. Uning yonida shu jangdan omon chiqqan bir to'da soqchilarni ham ko'rdi. Ularning avzoyidan urush alomatlari hali yo'qolmagan edi. Ularning fors tilida so'zlashayotganini eshitdi. O'zi ham u tildan xabardor bo'lgani uchun boshliqqa arabcha ham, forsha ham gapirib ko'rdi, lekin boshliq unga javob qilish o'rniga imlab o'z odamlarini chaqirib yubordi-da, Zirg'omning oldiga kelib arqonini yechdi. Keyin Vardonnikini ham yechib, arab tilida: "Tur, Zirg'om turib o'tir", - dedi.

Uning ovozi eshitib, Zirg'om hayajonlandi va sinchiklab basharasiga qaradi-da, tanigandek bo'lib: "Hammod emasmi?!" - deb baqirdi. Boshliq: "Topding, xuddi o'shaning o'ziman", - dedi. Bu tasodifdan hayratda qolgan Zirg'om unga yana bir tikilib: "Bu yerga qanday kelib qolding?" - dedi.

- Hamadon yaqinida sendan ajrashgandan keyin shu yerga kelganman. Kelishimning sababi o'zingga ma'lum. Sening zolim do'stingdan o'ch olish uchun shu majusiyning lashkarlariga kelib qo'shildim. Bu qilichlarni zarariga xizmat qildirish o'rniga, mudofaa uchun asrab qo'ysa yaxshiroq emasmi?

O'zidagi bir olam g'am-anduhga qaramay, Zirg'om bir iljaydi-da: "Do'stim zolim emas", - dedi. Keyin: "Yoqutani qidirtirib ko'raman", - deb Hammodga bergan va'dasi esiga tushdi-da: "Shoshma, senga sevinchli xabar olib kelganman, balki senda ham shunday yaxshi ma'lumot bordir", - deb yubordi.

Hammod hayajonga tushib, ko'zlari chaqnaq ketdi va: "Qanday xabar, Yoqutani topdingmi? U qayerda?" - deb so'radi.

- Ha, uni topdim, hozirda u Somurroda, oyimning yonlarida izzat-ikromda yuribdi.

- Bu tushimmi, yo o'ngim? - deb Hammod irg'ib o'rnidan turdi-da, - Yoquta hozir mening uyimda yashayapti dedingmi? Voy, tillaringdan aylanay, uning sog'lig'i qalay, omon-esson yuribdimi? Senga ming-ming ofarin, butun dunyoni bergandan ham ortiq shodlantirding meni, - dedi-da, unga yopishib yuz-ko'zlarini yalab-yulqab o'pa boshladi. Keyin tashvishli bir narsa esiga tushib qolgandek, birdan rangi o'chdi-da ketiga qaytib:

- Men ham Jahonni qidirish va surishtirishda bor kuchimni ayamadim, lekin baxtga qarshi senga muyassar bo'lgan baxt menga muyassar bo'lmadi. Uning na o'zini, na xabarini bila olmadim. O'zing ham undan biror darak topa olmadingmi? - dedi.

- Hech izlamagan joyim, surishtirmagan yerim qolmadi, hamma sa'y-harakatim bekor ketdi. Jahon haqida hech narsa bilolmadim, - dedi Zirg'om og'ir bir xo'rsinib, - odamlaringni qaytarmaganingda, meni o'ldirib qo'yishardi. Shunda menga yaxshilik qilgan bo'larding. Men bu mamlakatga fath qilish bilan maqtanish yoki o'lja olish uchun emas, barvaqtroq o'lib, dunyoning g'am-anduhidan qutula qolay degan niyatda kelganman.

Uning bu kulfatiga hamdard bo'lgan Hammod ko'nglini ko'tarmoq uchun dedi:

- Yorug'likdan umidsizlanma, do'stim, sen menga bu dunyo qorong'i desang ham, bir kunmas, bir kun yorug'likka chiqib qolasan.

Mening Yoquta tufayli tortgan azob-uqubatlarimdan xabaring bor, axir undan umidim uzilganidan el-yurtimni va qavm-qarindoshlarimni tashlab ketdim. Mana bugun o'zing uning sog'-salomat yurganini aytib o'tiribsan. Hech kutmagan bir vaqtda yorug'lik xabarini kelib qoldi. Men ham bir vaqtlari sendek ish qilmoqchi bo'lgandim, ish o'zimni o'ldirishgacha borib yetgandi, lekin bir voqea ro'y berdi-yu, ko'nglimni ancha tinchitdi va sabr etishimga yordam berdi. Sen ham shunday tasodifga duch kelib qolsang, ajab emas. Menga o'xshash sabr qilib tur. Men Yoqutaga o'xshab ketadigan bir qizni uchratdim. Uni ko'rib, dardim ancha yengillashdi, Yoqutadan ajralganlik alamini bir oz bosgan bo'ldi.

Shu payt Zirg'om Yoqutaning Jahonga o'xshashligini esladi-da:

- Menga ham Jahonga o'xshaydigan qiz duch keldi-yu, lekin dardini yengillatishini sezmadim, balki uni duch keltirganim g'amimga g'am qo'shdi, - dedi. Hammod taajjublandi.

- Men esa o'sha qizni Yoqutaga o'xshatib, bir oz tasalli topaman. Unga erishish yo'li men uchun butunlay berk bo'lsa ham, ko'rishimning o'ziyoq Yoqutadan umidsizlanishimni tarqatadi. U qiz shu shaharda turadi. Shahardagi ayollarning eng hurmatlisi, eng ko'hligi va eng martabasi balandi. U kishidan qochmaydi. Uni qachon ko'rsam, o'zimda bir shodlik his qilaman, to'yib-to'yib qarab olaman.

Vardon gapga aralashmay quloq solib o'tirardi. U Hammodning Yoqutaga o'xshagan qiz haqida gapirayotganini eshitib, Yoqutaning Jahonga o'xshashligini esladi. Uning alomatlarini aniqroq bilib olmoqchi bo'lib turgan edi, birdan Zirg'om, hovliqib: "U qizni qayerda ko'rsan?" - deb so'rab qoldi.

- Shu shaharda xuddi Bobakning qasrida uchrataman. Bobakka ko'mak berayotgan, axloqini tuzatib, yomonlikdan yaxshilikka qaratayotgan qizni eshitgansizlar, albatta, - dedi Hammod.

- O'ylashimcha, Gulnorni aytayotgan bo'lsang kerak? - so'radi Vardon.

- Ha o'shani aytyapman. U Yoqutaga juda ham o'xshab ketadi. Uni ko'rsam, ko'z o'ngimda Yoquta gavdalanadi qoladi. U Bobakning qasriga qatnab turganini, u bilan birga o'z otiga minib chiqayotganini ko'raman. Men hayotimda undan go'zalroq, sehlriroq va salobatliroq ayolni ko'rgan emasman.

Zirg'omning yuragi duk-duk urib ketdi, qorong'ilik bo'lmaganda, uning chehrasida namoyon bo'lgan o'zgarishni Hammod albatta ko'rgan bo'lardi. Zirg'om bir lahza boshini yerga egib, Hammodning Yoquta to'g'risidagi gaplarini va: "U Jahonga juda o'xshab ketadi", deb qilayotgan ta'rifini ko'nglidan o'tkazdi-da ichida: "Bu Jahonning o'zi bo'lmasin tag'in", dedi va Hammodga qarab: "Shu Gulnor deyayotganing o'zi qayerdan?" - deb so'radi.

- U Bobakning xotinlaridan bittasi, boshqalari singari u ham, uzoq shahardan olib kelingan. Lekin u hammasiga qaraganda, Bobakning jilovini qo'lida tutib turgan ayol. Boshqa kundoshlari ayollar qasrida yashirinib, Bobakni ko'rganda unga sajda qilsa, Gulnor o'zining qashqa otini minib lashkargohda aylanib yuradi. Kimlarga buyruq qilayotganini, kimlarga jerkib tashlayotganini ko'rasiz. Xullas, uning gapi hammaga - kattaga ham, kichikka ham o'taveradi.

Zirg'om Hammodning "qashqa otini", degan gapini eshitib, yomg'irda qolgan chumchuqdek silkindi, silkindi emas, qaltirab ketdi. U irg'ib o'rnidan turdi-da: "Rostdan oti qashqami? O'zi qayerda? Xudo haqqi, uni menga bir ko'rsatchi, Hammod! U Jahonning xuddi o'zi", - dedi.

Hammod unga achinib;

- Koshkiydi, u Jahon bo'lsa, do'stim. Lekin Jahon emas, Gulnor degan boshqa bir ayol, - dedi.

- Mening ko'nglim "u xotin Yoqutaga o'xshaydigan bo'lsa, Jahonning xuddi o'zi" deyapti, chunki Jahonga juda ham o'xshaydi. Yana o'zing uning oti qashqa, uzoq shahardan olib kelingan deyapsan. Bu ta'riflaring hammasi Jahonga to'g'ri keladi. Nomi boshqaligining unchalik ahamiyati yo'q. Masalan, sen meni Zirg'om deb taniysan, ammo Somurroda hech kim meni Zirg'om deb atamaydi. U yerda mening nomim Sohib. Sen aytayotgan ayol Jahonning xuddi o'zi. Ko'nglimdagi umidsizlik buluti tarqadi, aytchi, u qayerda hozir?

- Xotinlar qasrida bo'lsa kerak. Chunki u kechasi o'sha yerda bo'ladi, kerakli vaqtda Bobakning qasriga chiqadi.

Zirg'om siqiq joydan keng yerga chiqqandek bir xo'rsindi, undagi umidsizlik o'rnini umidvorlik egalladi. U ketmoqchi bo'lib turib, o'zining yirtilgan kiyim-boshlariga qaradi. Uni Hammod to'xtadi:

- Bu kiyimlaringni yechib, xurramiylar kiyimini kiyib ol. Odamlar sendan shubha qilishmasin. Vardon ham shunday qilishi kerak. Ertaga ertalab ayollar qasriga chiqasiz.

Zirg'om uning gapini bo'ldi:

- Ertagacha chiday olamanmi?.. Qanday qilib chidayman. Xo'p, sabr qilgan bo'lay, shahar ham chidab tura oladimi? Musulmonlar uning butun atrofini o'rab olishgan. Hademay uni fath etishadi. Hali seni bundan xabaring yo'qmi?

- Fath etishlari mumkin. Bu men uchun yangilik emas. Chunki o'zim Bobakning qo'mondonlaridanman. U ba'zi ayg'oqchilaridan sizlarning shu darvoza tomondan hujum qilishlaringizni eshitib, bu kecha undan xabardor bo'lib turishni menga topshirdi. Shunga binoan men kechqurun kelib soqchilarni qo'ydim. Yaqinlashganlaringni ko'rib, sizga hujumni boshlashni ularga buyurdim. Natijani o'zing ko'rding. Mayli, o'tgan ishga salavot, kel, kiyimlaringni o'zgartir! Sen ham kiyimlaringni almashtirib ol, - deb Vardon qaradi. Ammo Vardon boshini yerga eggancha xayolga cho'ngandi.

- Iye, birodar, senga nima bo'ldi? Nega buncha xayol surib qolding? Yo sen ham bizning dardimizga yo'liqqanmisani? Vardon bir xo'rsindi-da:

- Ha, mening ham o'zimga yarasha dardim bor. Dardimni xotinlar qasriga yetganimizda bilasan. Hozir, "tezroq qasr tomonga chiqaylik", degan Zirg'omning fikriga men ham qo'shilaman, - dedi.

Ularning gapiga Hammud "xo'p" dedi. Ular xurramiyalar kiyimini kiyib, hammalari birga chiqishdi. Hammud o'zi qaytib kelguncha darvozani muhofaza qilib turishni odamlarga topshirdi. "Bu ikki asir shu kecha ushlangan asirlar bilan birga mening huzurimda saqlanadi", deb ularning ko'nglini xotirjam qilib qo'ydi. Keyin u qo'rg'ondan Bazzga tikilib qaradi: Hamma yoq chirog'lar bilan yoritilgan, shaharning o'rtasida g'ovur-g'uvur ovozi eshitildi. Odamlarini chaqirgandi, hech biridan darak bo'lmadi. Keyin u o'z xodimini chaqirib: "Odamlar qayerda?" "B" deb so'radi.

- Hujum qilish uchun chalingan do'mbira ovozini eshitmadingizmi? - javob qildi xodim. "Yo'q, eshitmadim", - hayron bo'ldi Hammud. U Zirg'om va Vardon bilan gapga alahsib, do'mbira ovozini eshitmay qolgandi.

Vardon bilan Zirg'om ikkalasi Afshinning lashkargohiga qarashdi. Uch yerga yoqilgan o'tni ko'rgach, hujum boshlangani aniqligiga ishonishdi, Zirg'om: "Qani, qasr tomon yuraylik", - dedi.

Xodim qo'shimcha qildi:

- Do'mbira chalindi, kishilar tezda to'planishdi, ularga sharq tomondagi darvozani mudofaa qilish to'g'risida buyruq berildi. Chunki, aytishlaricha, eng katta sarkardaning qo'mondonligida musulmonlar hujumga o'tgan emish.

- U katta sarkarda Afshinning o'zimikini?

- Bilmadim, - dedi xodim.

\* \* \*

Hammud, Zirg'om va Vardon xurramiyalar otidan uchtasiga minib, ayollar qasri tomon choptirib ketishdi. Shahar xalqi to'polon, g'ovur-g'uvur ichida o'zini mudofaa qilish uchun qurol ko'tarmagan bironta odam qolmagan. Ular Hammodni ham, hamrohlarini ham talon qilish uchun kelganlardan, deb o'ylashdi. Musulmonlardan bir qanchasi shahar ichida ko'zga ko'ringan narsani talon-toroj qilish bilan ovora. Sharqiy darvozaga yaqinlashgan sari har qadamda musulmonlarni ko'rib, shaharning qo'lga olinganiga imonlari komil bo'lsa ham, beparvo borishaverdi. Xotinlar qasriga yetishganda, qo'llarida har xil buyumlarni ko'tarib chiqib kelayotgan musulmon askarlarini ko'rishdi. Ulardan ba'zilar xotinlarni haydab kelayotganini ko'rib, shularning orasida Jahon ham bormikin, deb Zirg'omning ko'ngli notinchlandi. U Vardonni yoniga olib, qasr ichiga kirdi. Hammud:

- Sizlar bir oz sabr qilib turinglar, men hamma gapni aniqlab bilib kelay, - dedi-da, darvoza yonida qulflangan bir hujra tomon yo'llandi. Uni taqillatib ko'rdi, javob yo'q. Keyin ichidagilarga o'z tillarida nimanidir gapirardi, bir kampir chiqib, eshikni ochdi va qo'rqib, qaltirab, ularni ichkariga kiritib, eshikni bekitdi. Hammud undan: "Xola nima gap bo'ldi o'zi?" deb so'ragandi, kampir:

- Xabaringiz yo'qmi? Shaharni fath qilishdi. Bu qasrga kelib, narsalarni talashdi, ayollarni esa asir qilib olishdi. Bu yerda yashirinmaganimda yoki avvalgi husn-jamolim, mol-mulkim bo'lganda men ham omon qolmagan bo'lardim, xayriyat, faqat zeb-ziyatimni olib qo'ya qolishdi, - dedi.

Kampirning "ayollarni asir olishdi", degan so'zini eshitib, Zirg'omning a'zoyi badani jimirlashib ketdi, Vardonning ham hayajoni Zirg'omnikidan kam emasdi. Lekin u o'z tuyg'ularini sir tutishda Zirg'omga nisbatan puxtarroq edi. Ularning kuyib-pishganini ko'rgan Hammud kampirdan: "Hamma ayollarni olib ketishdimi?" - degan edi u: "Ha, hammasini olib ketishdi", - dedi.

- Gulorni ham olib ketishdimi?

- Yo'q, Gulorni olib ketishgani yo'q.

- U qayerda bo'lmasa?

Kampir Hammudning yonidagi hamrohlariga qaradi: u maxfiy sirni aytishga tortinayotgandek edi. Hammud unga: "Qo'rqmay, bemalol aytavering!" - dedi.

- Gulnor bilan Bobakning xotinlaridan bo'lgan rumlik ayol bir necha kun burun chiqib ketishgan.

Vardon birdan so'zga qotishib, hovliqib so'radi:

- O'sha xotinning nomi nima? Uni siz tanisizmi?

- Nega uni tanimay, axir shu qasrning oqsochiman. Undagi hamma xotinlarning ipidan-ignasigacha menga ma'lum. Masalan Gulnorni olsak, bazzliklar uning haqida hech narsa bilmaydi. Ammo men uning nasabini, tagi taxtini Farg'onadan olib kelingandan buyon bilaman. Uning nomi o'sha vaqtda Jahon edi. U Farg'ona hokimining qizi bo'lgan. Keyin unga Gulnor deb boshqa nom qo'yilgan. U mana shu rumlik xotinni yaxshi ko'rib, u bilan opa-singildek bo'lib ketishdi. Ularning yulduzi to'g'ri kelib qolgani uchun safarga ham birga ketishdi, - dedi kampir.

Uning gaplaridan Gulnor xuddi Jahonning o'zi ekani ma'lum bo'ldi, shak-shubhaga o'rin qolmadi. Ammo Vardon qanoatlanmay:

- Rumlik ayolni sizdan so'ragandim, uning nomi nima edi? Boshqa ismi ham bormidi? - dedi.

- Uning oti Haylona, Armanistondagi katta ruhoniy eridan o'g'irlab kelingandan beri nomini o'zgartirgani yo'q.

Vardon hayajonlandi, qaltirab-titirab, o'zini tutolmay baqirib yubordi:

- Haylona?.. U ... o'sha. Xotinimning o'zi.

Vardon armanistonlik katta ruhoniy bo'lib, xotinini Bobak tortib olganligini Zirg'om endi eshitdi. Unga qarab qo'ydi. Bu qarashi bilan uni ham muborakbod qildi, ham jindek gina qilgan bo'ldi: - O'zing katta ruhoniy bo'la turib, menga xizmatchi qilib ko'rsatib yuribsanmi? Men seni birinchi ko'rganimdayoq, biror martabalik odam bo'lsang kerak, deb ko'nglimga tugib qo'ygandim.

- Men xuddi shu daqiqaga erishish maqsadida sizdan panoj olib, musulmonlar xizmatiga kirdim. Umidim o'sha buzuq, fohishaboz Bobakdan o'ch olish edi. Xudo xohlasa, u qo'lga tushib, qilmishiga yarasha jazosini torsa kerak.

Hammud:

- U qochmagan bo'lsa, albatta, asir olingan bo'ladi. Chunki shahar taslim bo'lib, ish nihoyasiga yetdi, - dedi-da, kampirga qaradi:

- Gulnor bilan Haylona qayerga ketganini bizga aytib bermadingiz.

Kampir:

- Ikkalasi birga Rum mamlakatiga ketishdi. Musulmonlarga qarshi Rum ahlidan yordam so'rashmoqchi. Bobakka yordam bermoq uchun Gulnor shunday maslahat ko'rsatdi. O'sha mamlakatdan bo'lgani va tillarini bilgani uchun Haylona birga ketdi, - dedi.

- Janob Bobak qayerdalar? - Hammod so'radi.

- U hozir Bazzda emas, asir ham tushgani yo'q.

- Bo'lmasa, qayerda u? Qo'rqmasdan aytavering. Chunki Bazz musulmonlar qo'liga o'tdi. Ular boshqalardan ko'ra bizga vafodorroqdir. Bobakning ishini siz boshqalardan ko'ra yaxshiroq bilishingiz menga ma'lum.

- Bobak shahar qo'ldan ketguncha kurashdi va uni mudofaa qildi. Keyin bu yerga kelib, ayollari va oziq-ovqatlardan istaganini oldi-da g'oyib bo'ldi. Fikrimcha, u shahardan chiqib, Armaniston chegarasiga o'tib ketgan bo'lsa kerak.

Hammod: "Endi nima qilamiz?", degandek Zirg'omga qaradi. Zirg'om: "Qaytamiz", dedi-da, maslahatlashib oladigan holi bir yer izlab, hammasi chiqib ketishdi. Shu payt tong otib qolgandi. Hammod hamrohlarini o'ziga tanish bir joyga boshladi. Yo'lda ular musulmon askarlari shaharga na do'st, na dushman oralamasin, deb uni talayotganini, uylarni buzayotganini va qasrlariga o't qo'yayotganini ko'rishdi.

Maslahatlashadigan joylariga yetgach, Zirg'om Vardoniga qarab:

- Endi, katta ruhoniy Vardon, bu ishimizda qanday maslahat beradilar? Kampirning gapiga qaraganda, Jahon bilan Haylona Rum mamlakatiga ketishgan. Rum katta mamlakat. Ular qaysi shaharga tushishini bilsak, albatta izlab boramiz, - dedi.

Vardon o'zini Zirg'om katta ruhoniy deb chaqirgani uchun kuldi:

- Meni bu laqabim bilan chaqirishning keragi yo'q. Zirg'omning o'rtog'i degan nom men uchun hamma narsadan afzal. Jahon bilan Haylona ustidagi maslahatga kelsak, ruxsatingiz bilan men ularni axtarib, mamlakatning hamma yeriga boraman. O'nashgan yerlarini bilmay turib, bu yerga qaytib kelmayman.

Hammod uning gapini bo'lib:

- Yo'q... Bu vazifani bajarishga mendan bo'lak hech kim bormaydi. Zirg'om men uchun ulug' ish qildi, mening sevgilimni qutqazib, uyida izzat-hurmat bilan saqlab turdi. Uning shu yaxshiligini qaytarmasam, nima degan odam bo'laman. Men yolg'iz borib, ularni izlab-surishtiraman, biror narsa bilsam, ikkalangizga xabar qilaman, - dedi. Zirg'om bunga rozilik bermadi:

- Yoqutaning qayerdaligini va senga intizor bo'lib yotganini bilib turib, boshqa vazifani o'tashga borishing adolatdan emas.

- Men bilan janjalashishni qo'y! Sening sevgilini va bu armon do'stimizning ayolini topib, o'z'laringga topshirmaguncha, sevgilimning yoniga bormayman. Bu bilan tanishganimdan mamnun bo'ldim. Yoquta esa Somurroda, sening uyingda tura tursin.

Yaqinda diydor ko'rishasizlar, deb uni sevintirib qo'ysang kifoya, - dedi Hammod.

Vardon uning gapini bo'ldi va xalifaning: "Yoqutani xotin qilib ol", deb Zirg'omga buyurgani, Zirg'om esa: "xotin qilib oldim", deb xalifani aldab chalg'itib yurganini so'zledi. Shunda Hammodning mardligi tutib:

- Shunday qilgan kishining qaylig'ini topish uchun jonimni fido qilsam arzimaydimi? - dedi.

- Bo'lmasa, men ham sen bilan birga boraman, - dedi Vardon. - Chunki u mamlakatni, tilini va yo'llarini yaxshi bilaman.

Hammod ko'nmadi:

- Ikkalangiz ham shu ishni qo'yinglar, yolg'iz o'zim boraman, xayr, ketdim, - deb chiqib ketdi.

Zirg'om bilan Vardon qoldi. Zirg'om gap boshladi:

- Tavba, bu tushimmi, o'ngimmi? Bugun bilan kecha kechqurun o'rtasidagi farq umid bilan noumidlik o'rtasidagi farq bo'lsa, lekin...

Vardon uning gapini bo'ldi:

- Ammo men bo'lsam, do'zaxdan jannatga ko'chib o'tgandek bo'lyapman. Negaki, men xotinimni juda ham sevardim. Bu yirtqichning vahshiyliги shungacha bordiki, u o'ziga nikohlab olish uchun xotinimni taloq qilishimni talab qilib turib oldi. Men qabul qilmaganimdan keyin, askar yuborib, xotinimni zo'rlik bilan oldirib ketdi. Ilohim, beting qaro bo'lgur, xotinboz majusiy! Agar qo'limga tushsa, qonini simiraman.

- Ehtimol, u Afshinning qo'liga tushgandir. Hozircha sen bilan men nima gapligini bilmaymiz. Qani, ketdik, lashkargohga boramiz, - dedi Zirg'om.

## Bobakning Halok Bo'lishi

Afshin askarlarini hujumga mohirona tayyorlab qo'ygani uchun Bazzni osonlik bilan fath etdi va xurramiyalardan ko'zga ilinganini qatl qildi. Bobakning xotin va bola-chaqalarini asir oldi. Ammo Jahon bilan Haylona shaharda bo'lmagani uchun ularni qo'lga tushirish imkoni bo'lmadi. U butun shaharni yondirib bo'lgach, Bobakning qochib ketganini aniqladi. Afshin Ruz-Arruzdagi qarorgohiga qaytdi. Jahonni qo'lga kirita olmagani, hatto uning qayerdaligini ham bilmagani uchun qayg'urdi. Somonning aytgan gaplaridan ikkilanib: "Mabodo, Jahonni uning o'zi biror yerga qochirmaganmikin", degan xayolga ham bordi.

Afshin asir olgan kishilar ichida arablar, forslar va qishloqdagi atoqli kishilar, boylar ko'p edi. Ularning hammasini katta bir maydonga to'plab, o'z qarindoshlariga xat yozishlarini buyurdi. Kim kelib "falonchi asir menga tegishli", deb da'vo qilsa va o'z da'vosining to'g'riligiga ikkita guvoh keltira olsa bas. U asir ayolmi, bolami, qizmi, kimligidan qat'i nazar, egasi olib ketaverishga ruxsat berildi. Shu yo'sinda ko'p kishilar asirlikdan ozod etildi.

Afshin Armanistondagi amir va poplarga Bobakning qochgani to'g'risida xat yozdi va o'z chegaralarini ehtiyot qilishni, Bobakning yo'llarini kuzatib turishni iltimos qildi. Zirg'omni o'ldirilgan deb o'ylab, g'aflatda qolgani uchun Afshin ancha qayg'urdi. Chunki uni ko'tarib ketayotganlarini ko'rdik, o'likmi-tirikmi bila olmadik, har holda, asir olingan yoki o'ldirilgan, deb farg'onalaliklardan kimdir Afshinga ma'lumot bergan edi.

Ertasiga Zirg'om Vardon bilan birga musulmonlar turgan lashkargohga bordi. Afshin uni yaxshi qarshi olib, jangdan sog'-salomat chiqqanligi bilan muborakbod qildi, o'zining qora niyatini yashirmoq uchun: "Hujum qilingan kechada ko'p botirlik ko'rsatding", deb Zirg'omni maqtagan bo'ldi. Keyin uni muhim ishlarda, xususan Bobakning qochganligi ustida maxsus maslahatchi qilib oldi va uni tutib kelish yuzasidan ko'rgan tadbirlarini Zirg'omga aytib berdi.

Zirg'om Afshinga:

- Mening xodimim Vardon armanistonlik. Ota-bobosi ham, o'zi ham armanlardan. U o'sha yerlarni juda yaxshi biladi. Bu ishda undan foydalansangiz bo'ladi. Istasangiz uni hozir oldirib kelaman, - dedi.

- Yaxshi bo'lardi, - dedi Afshin. Zirg'om bir g'ulomni chaqirib, Vardonni aytib kelishni burdi. Vardon kirib, tik turganicha salom berdi. Afshin undan:

- Sen Armanistonning ko'cha va yo'llarini bilasanmi? - deb so'radi.

- Ha, bilaman, - dedi Vardon.

- Xurramiy Bobak qayerga yashirinadi va kimning panohiga boradi deb o'ylaysan?

- U Armanistonning biror shahariga bora olmaydi, chunki armanilar uni yomon ko'rishadi. Qo'lga tushsa, o'ldirmay qo'yishmaydi. U biror o'rmon yoki vodiy ichida yashirinishi mumkin. U to'qayzor deb ataladigan katta vodiya yashirinsa kerak. Bu vodiya Ozarbayjon bilan Armaniston orasidagi sero't, serdaraxt bir joy. Daraxtlarining zichligidan unga ot-ulov kirib bora olmaydi, ichida yashiringan kishini topib ham bo'lmaydi.

Vardonning bu ma'lumotlaridan foydalanib, Afshin o'sha to'qayzorga ayg'oqchilarini yubordi. Ular borib, Bobakning o'sha yerda yashiringanini aniq bilib kelishdi.

Afshin: "Bobak va uning yaqin kishilariga tegmaslik va omonlik berish to'g'risida bir vasiqa yuborsangiz", deb Mu'tasimga kishi yuborgan edi, vasiqa kelgach, omonlik berilgan kishilardan ba'zilarini chaqirib, "sizlarga omonlik berildi. Endi hech kim sizlarga tega olmaydi", deb tushuntirdan va shu vasiqani olib, "Bobakning o'g'li bilan birga uning oldiga boringlar", deb buyurdi. Lekin Bobakdan qo'rqib, uning oldiga borishga hech kimning yuragi dov bermadi. Afshin:

- Xalifa tomonidan berilgan bu omonlik haqidagi xushxabarni olib borsanglar, u albatta xursand bo'ladi, - dedi.

Lekin ular:

- Bobakning kimligini biz yaxshiroq bilamiz, - deyishdi.

Ularning orasidan ikki kishi o'rnidan turib:

- Mabodo, bizga biror shikast yesa, bola-chaqalarini boqaman deb va'da bersangiz, biz boramiz, - deyishdi.

Afshin o'z bo'yniga bu kafolatni olgandan keyin, ular vasiqani olib, jo'nab ketishdi. Ular Bobakning oldiga borib, nima maqsadda kelishganini aytgandi, Bobak ulardan birini o'ldirib, ikkinchisini: "Bu vasiqasini o'ziga olib borib ber", deb Afshinning oldiga qaytarib yubordi, Bobakning o'g'li o'sha kishilarning biridan otasiga xat yozib yuborgandi. Bobak unga: "U haromi mening farzandim bo'lganda, orqamdan yetib kelgan bo'lardi. Mening unday o'g'lim yo'q. Qirq yil qul bo'lib, xor-zor yashaganingdan, bir kun boshliq bo'lib yashaganing yaxshiroq. Shu gapim senga omanat, unga borib, aytasan", - dedi. Bobak o'sha to'qayzordan jilmay, oziq-ovqatlarini tugaguncha yashadi. Ovqati tamom bo'lgandan keyin ba'zi odamlarini olib, to'qayzordan chiqdi. O'zini qamal qilish uchun yuborilgan Afshin askarlaridan bittasini ham ko'rmagandan keyin: "Meni poylab-poylab, qo'lga tushirishdan umidlari uzilib, jo'nab qolishibdi", deb o'ylagan Bobak akasi Abdullohni, onasini va boshqa bir xotinni olib, Armanistonga borish niyatida yo'lga chiqdi. Afshinning soqchilaridan biri ularni kuzatib turish tayin qilingan askarga xabar qildi. Kuzatuvchilar boshlig'i Abussoj degan kishi Bobak ketidan ot qo'ydi. Ular bir soy yoniga o'tirib ovqatlanishayotgandi. Bobak kuzatuvchi askarlarni ilgariroq payqadi-da hamrohlari bilan qochib qutuldi. Abussoj esa, Bobakning onasi va yonidagi ayolni qo'lga tushirib Afshinga yubordi.

Bobak Armaniston tog'larida yashirinib yuraverdi. Uning yo'lini poylab yurgan katta poplardan biri hiyla ishlatib, uni o'z qo'rg'oniga taklif qildi va kelganidan so'ng Afshinga xabar yubordi. Afshin Bobakka kishi yuborib, ko'p narsalar va'da qilib taslim bo'lishini talab qildi. Lekin u qabul qilmadi. Shundan keyin uni o'z qo'rg'oniga chaqirgan katta pop boshqa bir hiyla o'ylab topdi. Ov qilamiz, degan bahona bilan uni qo'rg'onidan tashqari olib chiqdi-da, Afshinga xabar yubordi, shu tariqa Bobak va akasi Abdulloh qo'lga tushirilib, Afshinga jo'natildi.

Bobak lashkargohga yaqinlashganda Afshin askarlarini ikki qator turg'izib, o'zi baland bir yerdan unga qarab turgandi. U kelgan zamoni otidan tushirib, ikki saf bo'lib turgan askarlar o'rtasidan o'tkazdirdi. Keyin Barzanddagi bir uyga kirgizib, uni qo'riqlab turishni bir odamiga topshirdi. Bobakni qo'lga tushirishda qatnashgan kishilarga mukofotlar berib, xalifaga ham xabar yubordi. Xalifa Bobak va uning akasini Barzanddan Somurroga olib kelishni buyurdi. Afshin o'z askarlari va bakovul-yasovullari bilan ikkalasini olib, Somurroga yo'l oldi. Bu voqea 223 hijriy yili[1] sodir bo'lgandi.

Afshin yo'lga chiqqandan keyin xalifa unga har kuni bir ot bilan bosh-oyoq sarpo yuborib turdi. U Qanotiri Huzayfa[2] degan yerga yetib kelganda, xalifaning o'g'li Horun-al-vosi uni kutgani chiqdi.

Afshin Bobakni Matira degan joydagi o'z qasriga tushirdi. Qozi Ahmad bin Abu Duod o'zini tanitmay kelib, Bobakni ko'rdi va gaplashdi-da, qaytib borib, Mu'tasimga uni ta'riflab berdi. Keyin Mu'tasim ham kelib, o'zini tanitmay, uning basharasini ko'rib ketdi.

Ertasiga xalifa taxtiga o'tirib, odamlarni Somurroning katta darvozasidan to Matiragacha saf tortib turishga buyurdi, keyin Bobakni filga teskari mindirib, to katta darvozaga kelguncha, hammaga ko'rsatildi.

Shundan keyin Bobakni xalifa saroyiga olib kelishdi. Xalifa Bobakning o'z jallodini oldirib keldi-da, unga ikki oyog'ini, ikki qo'lini chopib tashlashni buyurdi. Jallod uni chopib tashladi. Keyin boshini kesdirib, tanasini Somurroda dorga osdirib qo'ydi.

Akasi Abdullohni qornini yordirtirdi-da, kallasini Xurosonga yubortirib, Bag'dodga, Ishoq bin Ibrohim qo'lga yuborib, unga ham Bobakka qo'llangan jazoni qo'llashni buyurdi, xalifaning buyrug'i bajarildi va tanasi ikki ko'prik o'rtasiga - sharqiy tomonga osildi. Xurramiylar yetgan so'ngi marra shu bo'ldi.

Zirg'om, Vardon ham Afshin bilan birga Somurroga qaytib kelishdi. Bobakning o'ldirilganini ko'rib, ko'ngillari tinchidi. Ammo Zirg'om uni jang maydonida o'z qo'li bilan o'ldirolmagani uchun ko'nglida armoni qoldi. Somurroga yetib kelishlari bilan Zirg'om darhol uyiga borib, onasi bilan ko'rishdi, uning tabarruk qo'lini o'pdi va Yoquta bilan salomlashib, Hammod bilan uchrashish damlari yaqinligini aytib, uni sevintirdi. Yoquta o'zini yo'qotib qo'yib, Zirg'omga qanday minnatdorlik qilishni bilmay qoldi. Keyin Zirg'om Jahonning sog'-salomatligi, uning Rum mamlakatiga ketgani xususida onasiga bir oz so'zlab berdi. Hammodning Rumga borib, o'zi Jahonni surishtirib kelishdan bo'lak narsani qabul qilmaganini ham onasiga aytdi-da, voqeaga quloq solib turgan Yoqutaga qarab kulib qo'ydi. So'ngra: "Bu ish senga yoqmaganga o'xshayapti, nima qilay, u "bajaraman", deb oyog'ini tirab turib oldi".- dedi. Xijolat bo'lganidan Yoquta qizarib ketdi. Boshini yerga egib turib: "Biz har qancha qilganimizda sizning shukringizni ado eta olmaymiz. Siz meni o'limdan, oriyatdan qutqardingiz va o'z tarbiyangizga oldingiz", - dedi.

Zirg'om uning gapini bo'ldi:

- Men xalifa topshirgan vazifaning bir qisminigiga bajara oldim. Bizlar uning fuqarosimiz, unga itoat etish hammamizning burchimizdir, - dedi. Yoqutaning ahvoli o'z g'algani, g'alati qarashlarini ko'rgan Zirg'om: "Bu bechora nimanidir aytmoqchi bo'lyapti-yu, lekin uyalib aytolmayapti", deb o'ylab, undan so'radi:

- Senga nima bo'ldi, nima demoqchisan?

- Siz xalifaning buyruqlarini ado etish uchun jonbozlik qilayotganingiz menga Horis as-Samarqandiyning uyida turgan vaqtlarimda ko'rgan bir narsani eslatyapti. Shuni o'ylab xalifaning hayotidan xavotir o'lyapman. Uning hayotiga chang solishga

intilayotgan kishilar ham yo'q emas ekan.

Bu gapga Zirg'om uncha ahamiyat bermadi:

- Ba'zi xoinlarning xalifaga qarshi olib borayotgan fitnalariga parvo qilmaymiz. "Buzoqning yugurgani somonxonagacha", deyдилar, Ular hech qayerga bormaydi. Bu nojo'ya ishlarga asosiy sabab xalifaning yaqin qarindoshlarining laqmaligidir. Ochko'z vazir va qo'mondonlar: "Xalifalikni sizlar qo'llaringizga olishingiz kerak", deb ularni laqillatyapti. Chunki ular davlatning qo'ldan qo'lga o'tishidan foydalanib qolishmoqchi. Mana, Ma'munning o'g'li Abbosni ko'ring. Ba'zilar xalifalikni talab qilish kerakligini unga uqtirishyapti. Mu'tasim tirik ekan, bunga u aslo muvaffaq bo'la olmaydi. Demak, ularning niyati Mu'tasimni yo'qotishdir. Lekin ular maqsadlariga erisha olmaydi. O'zlari qazigan chohga o'zlari qulashlari muqarrar.

O'g'lining gaplarini eshitgan onaning yuzlariga nur yugurib, jilmaydi-da:

- Borakallo, o'g'lim, odamgarchilik, mardlik shunday bo'lishi kerak! - dedi.

Shundan keyin Zirg'om kiyinib, xalifa bilan ko'rishish uchun chiqib ketdi. Xalifaning huzurida Afshin va boshqa sarkardalar o'tirishardi. Zirg'om kirishi bilan xalifaning chehrasi ochilib ketdi:

- Xush kelibsan, ulug' bahodir Sohib! Dushmanlarni daf etish yo'lida qilgan xizmatimga, ko'rsatgan shijoat va botirliging bizga ma'lum bo'ldi. Borakallo! Seni Sohib deb bekorga aytmagan ekanmanmi? - dedi-da, o'ziga yaqinroq o'tirishni taklif etdi.

Zirg'om xijolat tortib, boshini egdi:

- Kishi o'z xojasining xizmatini bajargani uchun hech qanday tashakkurning hojati yo'q. O'z burchimni o'tadim, mendan rozi bo'lsalar bas.

Xalifa Afshinga qaragandi, u:

- Shijoatda, jon-dil bilan xizmat qilishda sohibga o'xshagan kishi juda kam uchraydi, - dedi va Zirg'omning o'zidan shubhalanishini tarqatish maqsadida uning ishlarini mubolag'a bilan maqtay boshladi. Xalifa ham uni maqtab, bir qancha hadya va sarupolar berishni buyurdi. Yig'in tarqalib, Zirg'om uyiga qaytib keldi. U yana Jahon to'g'risida xayolga cho'mdi. U hamon Hammod keltiradigan xabarni kutmoqda. "Jahon bilan Haylonaning holi nima kechdi ekan? Ularning taqdiri qanday bo'larkin?" - degan xayolda u Vardon bilan fikrlashib, bir necha kunni o'tkazdi.

Ko'p o'tmay Somurroda "Tiyufil degan Rum podshosi Islom mamlakatlariga qarshi yurish boshladi", degan xabar tarqaldi. Bu xabarni Zirg'om eshitib, do'sti Vardonga kishi yuborib chaqirtirib keldi-da, ikkalasi: "Bu qanday xabar bo'ldi, nima bilan yakunlanarkin?" deb turli-tuman xayollarga borishdi.

Vardon:

- Menimcha, rumlarning musulmonlarga qarshi urushga o'tlanishiga Bazzning fath qilingani sabab bo'lgan bo'lsa kerak. Eshitishimga qaraganda, Afshin Bobakni boshi berk ko'chaga kirgizib, halokatini yaqinlashtirib qo'ygan choqda Bobak Rum podshosiga xat yozgan. Xatida: "Musulmonlar hozir men bilan ovora. Islom mamlakatini yo'q qilib tashlash uchun sizga juda qulay payt keldi", degan emish. Bu xatni yuborishda Jahonning ham hissasi qo'shilgan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas.

Zirg'om o'ylab turarkan:

- Jahon bilan Haylona o'sha yerda ekan, degan fikr ko'nglimga keldi, - dedi.

- O'sha yerda bo'lishganda Hammoddan bizga xabar kelgan bo'lardi, chunki u ikkalasini qidirib, Rum mamlakatini kezib yuribdi. Har holda sabr qilishga to'g'ri keladi.

Zirg'om shu alfozda iztirob chekib, bir necha kunni o'tkazdi. Bir kuni Vardon shoshilib kelib, Zirg'omni yetaklab, bog'chaning narigi tomoniga olib bordi-da, ipak ro'molchaga o'ralgan bir narsani unga uzatdi. Zirg'om ipak ro'molchani olib, ichidan bir maktub oldi. Maktub tepasidagi Hammodning ismiga ko'zi tushdiyu, yuragi o'ynab, davomini o'qiy boshladi. Maktub quyidagicha edi:

"Ammuriyya. Hammoddan. Somurro. Sohib - Zirg'omga. Men senga xat yozolmadim, kutaverib zerikib ham ketgandirsan. Shunday qilishga majbur edim. Qidirib, bir necha oyni befoyda o'tkazdim. Axiri, "Rum podshosi Tiyufil Zibatroga keladi", degan xabarni eshitdim-da, yo'qotgan narsamizni o'sha yerdan toparman degan umid bilan unga uchrashmoqchi bo'ldim. Zibatro shahriga borib yetmasimdan, rumlar uni qo'porib vayron qilishdi, ayollar va yosh go'daklarni asir olishdi. Keyin ular musulmonlarning Maltiyaya va boshqa istehkomlariga hujum qilib, u yerlardagi ayollarni ham asir olishdi. Asir olingan musulmon erkaklarning esa ko'zlarini o'yib, burun va quloqlarini kesishdi, degan gaplarni eshitdim. O'sha kesilgan kishilardan ba'zisini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Qo'lida quroli yoki minadigan ulovi bo'lmagan kishilardan bo'lak hamma o'z yurtini tashlab, rumlardan qutulish uchun Shom va Jaziraga qochib ketdi. Bu ahvolni ko'rgandan keyin Zibatroga borishdan voz kechdim. Ammuriyyalik Notis degan katta pop Bobakning davrida Bazzga borib, Jahonni ham ko'rgani esimga tushib qoldi. Ehtimol, Jahon o'sha Notisning oldiga ketgandir, deb o'yladim.

Shu mo'ljalim to'g'ri bo'lib chiqdi, Ammuriyyaga borgan vaqtida Jahon bilan Haylona Bazzdan to'g'ri kelib, Bobakka yordam berish to'g'risida Rum podshosiga iltimos qilsa deb, Notisga yo'liqishganini eshitdim. Notis ularni o'z qasriga tushirgan va iltimoslarini ado etishga va'da bergan ekan. Bazz qo'ldan ketib, Bobak o'ldirildi, degan xabar kelgandan keyin Jahon bilan Haylona Armanistondan butunlay umid uzib, Ammuriyyada qolib ketishgan. Katta pop ularning har ikkalasini, xususan, Jahonni juda yaxshi ko'rgan, ularning o'z qasridan tashqariga chiqishiga hech yo'l qo'yilmagan. Jahon seni topishdan umidi uzilgandan keyin, chin ko'ngildan asirlikka rozi bo'lgan bo'lsa kerak. Sening hol-ahvolingni va uchrashuv vaqtlaring yaqin qolganini Jahonga xabar qilib, bir sevin tiraman deb ko'p urindimu, lekin ilojini topa olmadim. Chunki ular musulmonlardan o'zlarini qattiq ehtiyot qilishadi. Musulmonlarning biron-tasidan badgumon bo'lishsa, ularni darrov o'ldirib, zibatroliklarga qilgandek, quloq-burnini kesishadi.

Jahon bilan Haylona hozir Ammuriyya katta popi Notisning qasrida qamalib yotibdi. Ishim tezda o'ngidan kelishini kutmasam ham, ularning har ikkisiga xabar yetakzish ustida qo'limdan kelgancha harakat qilaman.

Bilishimcha, rumlar islom mamlakatini yo'qotishmoqchi, musulmonlar tezroq otni qamchilab, oldinroq ularning mamlakatini zabt etishlari kerak, deb o'ylayman. Ularning eng mustahkam shahri Ammuriyyani olsak, uni fath qilish musulmon qo'shinlari uchun hech qiyin emas. Chunki shaharning paxsa qo'rg'onlari ancha zaif deb eshitaman.

Shu maktubni olganingdan keyin, do'sting xalifani Ammuriyyani fath qilishga da'vat etasan, degan umiddaman. Agar Ammuriyyaga yurish qilsalaringiz, sening o'zing qo'ngan yeringni bilib olishim uchun o'zaro belgimiz uzun ikki bo'lak bayroq bo'lsin. Kelganing zamon ikkita uzun bayroqni tikka qadab qo'yish esingdan chiqmasin. Ko'rishguncha xayr".

Xatni o'qib bo'lmasdan Zirg'omning chakkasidan ter quyilib, g'am-g'ussasi ortib, qahr-g'azabi qaynab ketdi. Keyin u xatini Vardonga uzatdi. U ham o'qib chiqib:



- Ishga tezroq kirishish lozim deb o'ylayman. Men Ammuriyyaga jo'nashim kerak, - dedi.

- U yoqqa borishingdan foyda yo'q. Chunki u ikki ayolning asirlikdagi ahvoli xatda yozilganidan ham ko'ra ortiqroq. Do'stimiz Hammod bizni qattiq qo'rqitib yubormaslik uchun uni yengilroq qilib ko'rsatibdi. Xatni qaragin, katta pop Notis har ikkoviga, xususan, Jahonga qattiq hirs qo'ygan, deb yozibdi. Ya'ni, u Jahonni sevib, o'ziga mo'l turibdi, demoqchi. Uning changalidan Jahonni qutqazish uchun hiyla-nayrangning o'zi yetmaydi, albatta, kuch ishlatish kerak. Hammod o'z xatining oxirida shunga ozgina ishorat qilibdi.

- Agar muhoroza lozim bo'lsa, bu masalani sendan bo'lak hech kim qo'zg'ata olmaydi. Chunki xarifa oldida obro'ying katta. U sening aytganlaringdan chiqmaydi. - Shu onda Zirg'om irg'ib o'rnidan turdi-da, Vardonni tashlab uyiga ketdi.

Kiyimlarini kiyib, to'g'ri xalifaning oldiga borib, kirishga ruxsat so'radi. Xalifa qozi Ahmad bilan o'tirgandi. Ikkalasing yuzida g'amginlik alomatlarini sezilib turardi. Zirg'om kirib salom berishi bilan xalifa uni qarshi olib: "Juda vaqtida kelding. Men hozir senga kishi yubormoqchi bo'lib turgan edim. Qani, o'tir", - deb yonidan joy ko'rsatdi.

Zirg'om o'tirib:

- Nima uchundir huzuringizga kelgim kelaverdi. Chunki mening fikri zikrim hamma vaqt sizda. Yaxshi istaklaringizga sherik bo'lganim uchun ko'nglimizga keladigan gapimiz ham doim bir yerdan chiqaveradi, - dedi.

Qozi gap boshladi:

- Bazzni fath qilishda ko'rsatgan qahramonliging uchun xalifa sendan xursand bo'lganlarini eshitdim. Sening to'g'ringdagi fikrlarim to'g'ri chiqqanidan mamnunman. Mana, janob xalifaning nazarlarida katta obro'ga ega bo'lding, sening maslahatingga qo'shiladigan, qilichingga suyanadigan bo'ldilar.

Zirg'om odob saqlab bosh egdi, qozining gapiga javob qaytarmadi. Xalifa qozining gapiga ilova qildi:

- Rum mamlakatidan bizga kelgan ma'lumotga qaraganda, la'nati Tiyufil Zibaturo va Maltiyyaga kelib, xalqqa juda azob bergan, musulmonlarga nisbatan ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan noma'qulchiliklarni qilgan emish. Zirg'om muddaoni aytdi:

- Bu xususda mening ra'yimni so'rasalar, Horun ar-Rashid tadbiriga amal qilib, qilich solishdan bo'lak chora yo'q. Ularga hujum boshlab, mamlakatlarni yakson qilish kerak. Tiyufil kishilarining ko'z o'yish, burun kesish va ayollarni asir olish kabi yovuzliklariga biz musulmonlar chiday olmaymiz. Askarlaringizni tayyorlashingizni, ularning bir zafardan ikkinchi zafarga bel bog'lashlarini sizdan iltimos qilardim.

Kamina qulingiz bo'lsa, bu urushga hammadan avval o'tlanaman.

Xalifam erkak musulmonlarning ko'zi o'yilishiga chidasalar ham, musulmon ayollar asir olinishiga sira toqat qila olmasalar kerak, deb o'ylayman. - Zirg'om shu gaplarini gapirib turib ko'zidan o't chaqnaq, g'azabidan lablari pir-pir uchdi. U xalifa oldida ortiqcha harakatlar qilganini o'z so'zini tugatgandan keyin sezib qoldi. Boshini ko'targan edi, Mu'tasimning jahli chiqqanidan rangi o'chib, ko'zlari qizarib, chaqnaq ketganini ko'rdi. U o'tirgan yerida hayajonlanib gapirarkan, Zirg'omga tikildi. Bir narsaga hamla qilmoqchi bo'layotgan sherdek botir bo'lib ketdi. "Jur'at qilib so'zlaganim uchun uning jahlini chiqardimmi", deb qo'rqan Zirg'om uzr aytish uchun gap boshlagandi, qozi Ahmad uni to'xtatib:

- Sen amiralmo'minning musulmonlar foydasiga bo'lgan hamiyatlarini qo'zg'atding. O'zlariga shu ish sir bo'lmasa ham, xuddi shunday hamiyatni o'z askarlari va bahodirlarida ko'rishni sevadilar.

Xalifa:

- Sohob xuddi tilimning uchida turgan gapni topib gapirdi. Men yo Afshinga va boshqa sarkardalarga urushga tayyorlanish to'g'risida buyruq beraman. Bu albatta Islom yo'lidagi muqaddas urush bo'ladi. Xudo xohlasa, ertaga ko'rishamiz, - dedi.

Shundan keyin qozi ham, Zirg'om ham xalifaning yonidan chiqib ketishdi.

Zirg'om turli xayollar bilan uyi tomon yo'l oldi. Uni kutib turgan Vardonga bo'lgan voqeani hikoya qilib berdi. Vardon bu gaplardan xursand bo'lsa ham xalifaning fikri o'zgarib qolmasmikin, deb xavotirga tushdi. Ertasiga erta bilan barvaqt xalifaning g'ulomi Sohobni istab keldi. Zirg'om u bilan birga xalifaning yoniga bordi. U kishilarni qabul qilmaydigan xos xonasida kechalik libosi bilan keng choponga o'ralib o'tirgandi. Xalifaning yuzida qandaydir tutaqishizish alomatini ko'rib, Zirg'omning ko'ngliga xavf tushdi. Mu'tasim unga o'tirishni buyurdi. Zirg'om o'tirib olgach, xalifa so'radi:

- Seni nima uchun chaqirtirib, shu taxlitda qabul qilganimni bilasanmi?

- Yo'q, mavlono, bilmadim.

- Uyqudan cho'chib uyg'ondim-da, to'shagimdan irg'ib turib ketdim.

- Ilohim, tushingiz yaxshilikka buyursin!

- Kechasi xufton namozini o'qib, rumliklar xususida musulmonlar uchun foyda bo'ladigan bir fikrni ko'nglimga solarmikin deb xudodan iltijo qildim. Uyquga ketibman. Tushumda alahsirab, o'zimni yo'qotib qo'ya yozdim.

Zirg'om bo'ynini cho'zib, e'tibor bilan uning gapiga quloq solmoqda edi. Xalifa soqol-mo'ylabini silab, boshidagi kichkina sallasini to'g'rilab oldi-da:

- Men tushimda ko'rdim dedim. Aslida u tush emasdi: bir ovoz eshitdim - yuragimning ich-ichiga o'tib ketdi. Rum mamlakatida asirga tushgan Hoshim qabilasidan bir ayolning: "Mu'tasim qayerdasan?" deb qichqirayotganini eshitdimu, "Yordamingga tayyorman", deb uyg'onib ketdim. Demak, xudo menga yurish qilishni va bevosita o'zim bu jihodda ishtirok etishni amr qildi deb, tushimga ta'bir berdim. Sen safar tayyorgarligini ko'raver, men qo'mondonlarimga ham tayyorlanishni buyuraman. Askarlarimga ishonsam bo'ladimi?

Zirg'om uning Afshindan shubhalanib yurganini esladi:

- Buni men aniq aytolmayman. Ularning dunyo jamg'arish uchungina jang qilishayotganidan o'zingiz xabardorsiz, albatta. Ular Bazzni fath qilib, xurramiylarni tugatishdi. Rumlarni ham shunday qilishsa kerak.

- O'ylashimcha, agar sen bormaganingda, ular Bazzni fath qilishni yana bir necha yilga sudrashardi.

Zirg'om xalifaning bu mubolag'ali maqtovidan xijolat tortib:

- Kaminaga ishonchlari bo'lsa, shu hujumga yuborsalar. Mendan xiyonat chiqar deb, qo'rqmasalar ham bo'ladi, insho'lloh, - dedi.

Xalifa undan so'radi:

- Seningcha, Rum mamlakatlarining qaysi biriga yo'l olsak yaxshi bo'ladi?

- Siz eshitgan o'sha dodlash ovozi Ammuriyyadan chiqqan. Ammuriyya Rum shaharlarining eng kattalaridan biri, xristianlikning qaynagan yeri. Uning fath qilinishi musulmonlar uchun katta g'alaba.

Xalifa Zirg'omning fikrini quvvatladi:

- To'g'ri aytding. Yo'l taraddudini ko'raver.

Zirg'om sevinchi olish uchun Vardonning yoniga chopib ketdi va tayyorgarlik ko'rishga kirishdi.

Ammuriyanning Fath Qilinishi[3]

Mu'tasim o'z askarlarini urushga tayyorlab qo'yib, umumiy qabul xonasiga kirdi. Bag'dod qozisini va uch yuz yigirma sakkizta odil kishilarini chaqirib, vaqf qilgan yer-suvlariga ularni guvohlikka o'tkazdi. Shu yer-suvlarini uchga bo'lib, bir qismini xudo yo'lga, ikkinchi qismini bola-chaqasiga, uchinchi qismini esa ozod qilgan qul va xizmatchilariga atadi. Shundan keyin Ammuriyya safari uchun qurol-yarog', mayda asbob-uskunalar, suv va boshqa suyuqliklar solinadigan idishlar va boshqalarini tayyorladi. To'qqiz yuz ming jangchidan iborat askar ajratdi. Ularga Afshin, Ashnos va boshqalarni qo'mondon qilib belgiladi.

Mu'tasimning o'zi ham otiga minib, islomning avvalgi yillaridagi jihodga chiquvchilarga o'xshab, ozuqa to'ldirilgan xaltani orqasiga osib oldi.

Askarlarni Rum mamlakatining turli tomonlariga taqsim qildi. Ular hammasi Anqara yaqinida birlashib, Ammuriyyaga qarab yo'l olishlari kerak edi. Ularni uch tomonga yo'lladi: chap tomondagisiga boshliq Ashnos turtki bo'ldi, o'rtadagisiga Mu'tasimning o'zi va o'ng tomondagisiga Afshinni tayinladi. Har bir qo'shilmaning orasi ikki farsax[4] bo'lishi kerak edi. Yana har bir qo'shilmani ikkiga - o'ng va so'lga bo'lishga va yo'lga duch keladigan hamma qishloqlarga o't qo'yib, vayron qilish va odamlarni asir olishga buyurdi. Shunday qilib, har bir qism Anqara bilan Ammuriyya o'rtasidagi belgilangan joyiga borib turishi kerak. Anqara bilan Ammuriyya o'rtasi yetti mazgil edi. Qo'mondonlar Mu'tasim buyrug'iga muvofiq ish ko'rib, askarlari bilan Ammuriyyaga yetib borishdi. Birinchi borgan Ashnos, keyin Mu'tasim va oxirgisi Afshin bo'ldi. Qo'mondonlar Ammuriyyani har tomondan o'rab olishdi. Mu'tasim uni qo'mondonlarga bo'lib berdi. Har bir qo'mondonga qaramog'idagi odamlariga qarab qo'rg'onlar tayinlandi. Zirg'om Mu'tasimning lashkargohiga o'tdi. Mu'tasim uni hurmatlab, o'ziga yaqin tutardi. Uning yaqin kishilari ichida Horis as-Samarqandiy ham bor. Xalifa Zirg'omni o'ziga yaqin tutgani va uning obro'si oshayotgani uchun Horis qattiq hasad qila boshladi. Ammo Zirg'om bunga unchalik e'tibor bermasdi. Uning fikr-yodi Jahonni qutqazishga qaratilgan. Vardonning xayoli esa, qanday qilib bo'lmasin, Haylonani uchratishda.

Bular joylashgan lashkargohda ikkovlari bir tepalikka chiqib, Ammuriyyaga qarashdi. Ammuriyya - binolari ko'p, atrofi keng katta bir shahar. Uning tevaragida baland qo'rg'on, qo'rg'on ustida hashamatli minoralari bor edi. Qo'rg'onning darvozalari esa pishiq-mustahkam. Binolar orasida ustida bayroqlar hilpirab turgan bir qasrga ko'zlari tushdi. U butxona boshlig'i Notisnig qasri ekanini va Jahon shu yerda istiqomat qilishini bilib, Zirg'on og'ir bir xo'rsindi-da, yer chizib o'tirgan Vardonga ko'z tashladi:

- Shu popning qasri emasmi?

- Ha, xuddi o'shaning o'zi.

- Hammodning gapi to'g'ri bo'lsa, Jahon bilan Haylona shu qasr ichida qamalib yotgan bo'lishi kerak. Bu shahar juda mustahkam ko'rinadi. Unga yorib kirish oson emasga o'xshaydi. Lekin xudo xohlasa, bizga uning istehkomi bardosh bera olmaydi, - dedi-da, Vardonga qarab: - Hammod tayinlagan qo'sh bayroqni tayyorlab qo'yganmisan? - dedi.

- Ha, tayyorlab qo'ydim. Lekin biz Mu'tasimning lashkargohida, uning bayrog'i ostidamiz. Hammod tayinlagan qo'sh bayroqni qanday osa olamiz?

- Uni bir chekkaga osamiz. Balki Hammod o'z xatida yozganidek, uni ko'rishga muntazir bo'lib turgandir.

- Bo'lmasa, men uni ertaga mana shu tepa ustiga bir soatcha osib qo'yaman. Nima bo'lsa ko'rmiz, - dedi-da, Vardon lashkargohga qaytib ketdi.

Ertasiga Mu'tasim majlis chaqirdi. Majlisda qo'mondonlar, xalifaning maxsus kishilari qatnashdi, ular ichida Sohib va Horis as-Samarqandiy ham bor edi. Majlisda bo'lajak jang rejasi muhokama qilindi. Muazzin peshin namoziga azon aytgan vaqtda ular tarqaldi. Xalifa o'z chodiriga kira turib: "Ertaga erta bilan mening oldimga kel", - deb Sohibga buyurdi. Zirg'om chodirga qaytib kelib, o'zini kutib turgan Vardonni ko'rdi. U juda g'azablangani. Undan Zirg'om: "Bayroqni nima qilding?" deb so'radi.

- O'sha tepaga qo'yib keldim.

- Qanday qilib uni tashlab kelding? Nega qovog'ing soliq, xafa ko'rinsan?

- Bayroqdan ham muhimroq bir ish chiqib qoldi. Shuning uchun ham tashlab kelaverdim, - dedi Vardon hayajonlanib.

- Nima bo'ldi? Ayt.

- La'nati Somonni Afshinning lashkarlari orasida ko'rib qoldim. U juda izzat-hurmatda. Aftiga qarashga sira toqatim yo'q edi.

Ushlab, bo'g'ib o'ldirib qo'ya qolgim keldi.

- Yo'q, og'ir bo'l, do'stim. Hozirgi vaziyatimiz ittifoqni, birlikni talab qiladi. Unga qo'l ko'tarsang, Afshinning jig'iga tegib, askarlar orasida g'ovg'a ko'tarilishiga sabab bo'lasan. Somon masalasini boshqa bir vaqtga qo'yib, tepaga bor, qo'rg'onlarni kuzat, tunda u yerda bo'!

Vardon chiqib ketdi. Zirg'om yolg'iz qolib, o'zi haqida o'ylab ketdi. U yotib uyquasi kelguncha Jahonni, onasini, Hammodni va Afshinni xayolidan o'tkazdi. Keyin uyquga ketib Vardonning chaqirgan ovozi eshitib uyg'ondi. Ko'zini ochib qaradi: Vaqt kechqurun bo'lib, hamma yoqni qorong'i bosgan edi. "Vardon Hammodni ko'rib, mendan sevinchi olgani kelgan bo'lsa kerak", deb o'yladi:

- Hammod keldimi? - shoshib so'radi u.

- Yo'q, kelgani yo'q.

- Bo'lmasa, nega bayroqni tashlab qaytib kelding?

- Ertagacha sir tutib bo'lmaydigan bir ish chiqib qoldi. Shuning uchun tashlab kelishga majbur bo'ldim. Erta bilan Mu'tasimning oldiga borishingdan ilgari bu sirni bilib qo'yishing kerak.

Zirg'om hovliqib:

- Ikki og'iz so'z bilan aytib qo'ya qol. Mayli, bo'lmasa, men sen bilan o'sha tepaga boraman, kechani birga o'tkazamiz. O'sha yerda aytib berarsan.

- Aytadigan gapim ko'p emas, lekin tepagacha men bilan borsang, yomon bo'lmasdi.

Zirg'om irg'ib o'rnidan turdi-da, oddiy askar kiyimini kiyib, Vardon bilan yo'lga chiqdi.

Tepalik Mu'tasim bilan Ashnosning lashkargohlari o'rtasida edi. Ular ikkalasi ba'zida chirog' yoqilgan, ba'zisi qorong'i chodirlar yonidan o'tishdi.

- Meni notekis yo'llar bilan olib ketayotganga o'xshaysan, - dedi Zirg'om Vardonga qarab.

- Senga bir yangilikni ko'rsatmoqchiman. Chap tomonimizdagi mana bu chodirni bilasanmi? - dedi Vardon.

- Ha, bilaman, Ma'munning[5] o'g'li Abbosning chodiri, nima bo'lipti?

- Menga bir sir ayon bo'ldiki, agar buni Mu'tasim bilib qolsa, butun lashkargohni ag'dar-to'ntar qilib yuboradi.

Zirg'om taajjublandi:

- Qanday sir?

- Shu bugun men sening yoningdan qayta turib, anavi yerdan o'tdim. Horis as-Samarqandiyning shu chodirdan chiqib kelayotganini va Abbos uni zo'r hurmat bilan kuzatayotganini ko'rdim. O'zimcha, bu hurmatning tagida bir gap bor bo'lsa kerak, deb qo'ydim. Mu'tasim Horisning qo'lidan Yoqutani olib qo'yib, senga hadya qilgani uchun undan o'ch olish niyatida yurganini bilardim. Xalifalikni egallab olgani uchun Abbosning Mu'tasimga: "Hap sanimi, qarab tur", deb yurgani ham senga sir bo'lmasa kerak.

Qo'mondonlardan ba'zilari xalifalikni Abbos olishi kerak deb yurardi. Lekin u bay'atni[6] o'ziga talab qilishga yuragi dov bermagach, taxt Mu'tasimga o'tgan edi. Men Somuroda turgan vaqtimda Horis as-Samarqandiy Mu'tasimni qoldirib o'rniga Abbosga bay'at qilish kerak, deb yurganlardan bittasi deb eshitgan edim. Lekin ular askarlardan qo'rqib, bu ishni amalga oshira olmay yurishgan. Bugun Horis Abbosning chodiridan chiqib kelayotganini ko'rib, ikkalasining o'rtasida muhim bir ish bo'lsa kerak, degan fikr ko'nglimga keldi.

Tepaning ustiga o'rnatilgan chodirga yetib borishguncha Vardon yo'lga past ovoz bilan shu sirni hikoya qilib bordi. Kechasi qorong'i edi. Zirg'om chodir yonida ho'kizga o'xshab xurрак otib yotgan bir kishini ko'rdi. Og'zidan sharob hidi burqsib turardi.

- Bu kim? Undan sharob hidi kelyapti-ku? - dedi Zirg'om.

- Menga sirni aytim bergan odam shu. Bu kishi Horisning qullaridan. Men u bilan Somuroda tanishganman. Uni aldab olib kelib, ichirdim. Kayf bo'lib qolgach, menga qiziq bir gapni aytib berdi. Uni senga shu yerda aytaveraymi yoki chodirga kirganingdan keyinmi? Ochig'ini aytganda, shu qorong'ida bayroqni tikib poylab o'tirishning hech keragi yo'q. Uni o'n gaz naridan ham ko'rib bo'lmayapti-yu, Ammuriyyadan turib qanday ko'rinsin?

- Gaplaring to'g'ri, - dedi Zirg'om, - bayroqni Hammod kechasi ko'radi, degan fikrda emasman. Lekin uni kun botayotgan paytida ko'rgan bo'lsa-yu, bir ilojini qilib, kelib topib olsa, yoki ertaga tongotar vaqtida ko'rib, izlab kelib seni topsa, degan xayol bilan "uni osib qo'yish kerak", deyapman. Qani, anovi quldan eshitgan gapingni aytib berchi.

Vardon tepadan bir necha gaz nariroqda yotgan katta bir xarsang tomonga yurdi. Ikkalasi tosh ustiga o'tirishgandan keyin Vardon hikoyasini boshladi:

- U qulning aytishicha, xo'jayini Horis hamma qo'mondonlarga elchi bo'lib borib, ulardan Abbos uchun bay'at olishga til biriktirgan emish. Qo'mondonlarning ba'zisi Afshinning qo'li ostida, ba'zisi Ashnos qo'lida va qay birlari esa Mu'tasimning askari ichida. Shunday bo'lgach, Horis uchchala lashkargohni aylanib chiqqan. Qo'mondonlar, undan tashqari, Mu'tasimning xos kishilaridan bir necha odam u orqali Abbosga bay'at qilishgan emish. Yana Horis bay'at qilgan qo'mondonlarga:

- Biz shu hodisani e'lon qilganimizdan keyin har qaysingiz o'z bosh qo'mondoningizni o'ldirishingiz kerak. Masalan, Mu'tasimning xoslari Mu'tasimni, Afshinning xoslari Afshinni va Ashnosning xoslari Ashnosni o'ldirsin, - degan emish.

Vardonning gapini tinglab, lol qolib o'tirgan Zirg'om:

- Obbo, yuzi qora-ey. Subutsiz, badbaxt xotin-ey, - deb qo'ydi.

Vardon so'zini davom ettirdi.

- Meningcha, Abbos ularning hammasidan aqlliroqqa o'xshaydi. Qulning gapiga qaraganda, u Ammuriyyani fath qilish ishini tag'in qo'ldan boy berib qo'ymaylik, deb bu yomon niyatni amalga oshirishga qarshi chiqqan emish. Bu gaplarni senga bugun aytishdan maqsadim shuki, ertaga xalifa oldiga borganingda, istasang uni ham xabardor qilarsan.

- Yo'q, Vardon, bu ishni xalifa bilmasliklari kerak. Bilib qolsalar, biz musulmonlar orasida fitna chiqargan bo'lamiz. Ular bu shum niyatning ijrosini keyinga siltashgani uchun, yashirib turaylik. Xalifaning muborak hayotlarini omon saqlash uchun atroflarida parvona bo'lib tursak kifoya.

Vardon Zirg'omning fidoliligiga qoyil qolib:

- Ofarin senga, qahramon! Bu fikring juda to'g'ri, - dedi.

Zirg'om unga:

- Lekin bu qulni shu yerda qoldirib xato qilgansan: U hushiga kelib, bu yerni tanib qo'ysa, seni chaqishi mumkin. Bu joyni bilmagani durust. Yaxshisi, u hozir uyqu va kayfda ekan, boshqa joyga eltib qo'y. Qaytib kelguningcha men shu yerda tura turaman, - dedi.

Vardon: - Ma'qul, - dedi-da, irg'ib turib, uni uyg'ota boshladi. Lekin u hamon o'ziga kelavermagandan goh turg'izib, goh yetaklab, goh sudrab, o'zining chodiridan Abbosning chodiri yaqiniga olib borib tashladi-da, qaytib keldi. Vaqt yarim kecha bo'lib, lashkargohdagilarning hammasi uxlagandi.

Zirg'om unga:

- Men o'z chodirimga boraman, sen tong otguncha shu yerda bo'l, - dedi.

Vardon:

- Bosh ustiga, xo'p, jonim bilan, - deb javob qildi.

Zirg'om xayolga cho'mgancha o'z chodiri tomon yo'l oldi. U chodirga yetmasdanoq qo'rg'on yaqinida g'ovur-g'uvur ovoz eshitdi. Qarasa, lashkargoh soqchilaridan bir to'dasi bir kishini bo'ynidan bo'g'ib, haydab kelishyapti. U kishi esa: "Meni Sohibga olib boringlar", deb baqirardi.

Uning tovushini eshitib, Zirg'om bezovta bo'lib qoldi, chunki u Hammodning tovushi edi. Zirg'om chodiriga yugurib kirdi-da, ularning yetib kelishini kutib turdi. Bir ozdan keyin ulardan bittasi Zirg'omning oldiga kirib:

- Biz bir ayg'oqchini ushladik, u shahar tomondan lashkargohga kirgan. Men Sohibning oldiga kelayotgandim deydi, - dedi.

Zirg'om:

- Qani, uni bu yoqqa olib kiringlar-chi, - dedi.

U kirdi. Zirg'om sinchiklab qarab, Hammodning o'zi ekanini aniqladi-da: "Qoldirib ketaveringlar", - deb soqchilarni jo'natib yubordi. Ular ketgandan keyin Hammod bilan salomlashib, hol-ahvol so'radi va yoniga o'tqazib, undan Jahon to'g'risida savol qildi.

- Jahon hali ham pop Notis yonida turipti, - dedi Hammod.

- Bizning xabarimizni unga yetkazganing yo'qmi?

- Yo'q, hech shunga muvaffaq bo'la olmadim. Kecha sizlarning askarlaringizni ko'rib, bayroqlarga qattiq tikilib qaradim, lekin

qo'sh bayroqni faqat shu kechagina ko'rdim. Bu yerga chiqib kelishning ilojini topa olmay, hozirgina bir amallab chiqqandim, adashib qoldim. Soqchilar qo'lga tushganimdan keyin: "Meni Sohibning oldiga olib boringlar", - deb talab qildim. Mana, huzuringdaman.

Zirg'om:

вЂ”Xush kelding, demak, Jahon hamon Notis qasrida ekan-da.

- Ha, Haylona ham u bilan birga. Pop ikkalisiga qattiq hirs qo'ygan. Xafa bo'lma, yaqin orada sevgilingga muyassar bo'lasan.

- Qanday qilib? Qo'rg'onlarning istehkomi qattiqqa o'xshayapti-ku, qamal ancha vaqtga cho'zilsa kerak.

- Xudo xohlasa, buni o'zim qisqartaman.

- U yoqqa osonroq kiradigan yo'lni bilasanmi?

- Fathni yengillashtiradigan yo'lni bilaman, hozir senga uni ko'rsatib qo'yaymi?

- Men ertaga barvaqt xalifaning oldiga boraman. Dushman to'g'risida ma'lumotga ega ekaningdan uni xabardor qilaman. Shu gapni xalifa sendan rozi bo'lishiga vosita qilamiz-da, o'tmishdagi ishlaringdan kechib yuboradi,- dedi.

Hammod bu maslahatga rozi bo'ldi.

Ertalab Zirg'om bilan Hammod xalifaning chodiri tomon yo'l olishdi. Zirg'om Hammodni tashqarida qoldirib, ruxsat so'rab xalifa oldiga kirdi. Xalifa uni yaxshi qarshi olib, yoniga o'tqazdi. Ammo Zirg'om uning qovog'i osilganini ko'rib tashvish ichida indamay turgan edi, xalifa:

- Nima uchun chaqirganimni bilasanmi? - deb so'radi.

Zirg'om:

- Menda karomat yo'q, taqdir, bir narsani oldindan bila olmayman, - dedi.

Mu'tasim bir xo'rsinib qo'ydi-da: "Men Somurroda qozi Ahmadni o'zimga mahram bilib, unga sirlarimni aytar edim. Halol va pokdilligingni bilganim uchun hozir sening maslahatingga tayanishim kerak, deb o'ylayman", - dedi.

- Men janoblarining ixlosmand quillariman.

- Afshin ustida ishtibohdaman deb, aytganim esingda bormi?

- Ha, esimda, janob xalifa.

- Men ilgari uning tamagiriligini ko'rib hayron bo'lib yurardim, lekin hozir bu lashkargohda qilayotgan yashirin fitnalarini ko'rib, avvalgi ishlari buning oldida holva ekan, deb qo'ydim. Uning qilayotgan ishlaridan hech xabaring bo'ldimi?

Zirg'om tushunib turgan bo'lsa ham, o'zini go'llikka solib:

- Janoblarining maqsadlarini tushunmadim, - dedi.

- Eshitishimcha, ba'zilar akamning o'g'li Abbosga bay'at qilishga va meni o'ldirishga qaror qilishgan emish, - dedi g'azabdan ko'zleri o'tdek yonib.

Xalifaga tasalli bermoq uchun Zirg'om:

- Bunday gaplarning bo'lishini aqlan ehtimol tutsam ham, bo'lganini bilganim yo'q, chunki o'tmish xalifalar davridan buyon xalifalik tamagirlarning ko'z tikkan yerlari bo'lib kelgan. Farazan, ba'zi kishilar shu fikrga kelgan bo'lsa ham, lekin qo'llaridan hech narsa kelmaydi, kutgan natijalariga erisha olmaydilar. Atrofimizdagi dushmanlar ustidan g'alaba qilish uchun hozir hammamiz bir yoqadan bosh chiqarmog'imiz kerak. Men janoblarining fikrlariga bir qo'shimcha kiritsam, ajab emas, shu bilan ko'ngillari taskin topsa, - dedi.

- Qani, ayt-chi, nima gap topib kelding? - dedi.

- Men janoblari shu oqshom Ammuriyanning o'zidan kelgan bir odamni boshlab keldim, u kishi shaharning hamma kirish-chiqish joylaridan xabardor. Uni huzuringizga keltiraymi?

- Ha, mayli, kirsin!

Zirg'om iring'ib turib Hammodni chaqirdi. Hammod kirib tik turgancha, xalifaga salom berdi. Xalifa uni ko'rishi bilan tanidi-da, qovog'ini soldi-yu, lekin "o'tir", deb joy ko'rsatdi. U cho'nqayib o'tirdi. Mu'tasim Zirg'omga qarab:

- Buni men arab bolasi Hammodga o'xshatyapman, o'sha emasmi? - dedi.

- Ha, xuddi shunday, o'zlarining qulvachchalari. Ilgari bundan xatolik o'tgan, lekin o'zlarining afv-karamlari ulug', bu o'shandan umidvor.

- Nima vajdan bizga keldi ekan?

Hammod:

- Shu shaharga kirish peshanamda bor ekan, bundan bir necha hafta ilgari kirdim, uning istehkomlari bilan tanishdim. Kecha janoblarining askarlarini ko'rdimu, harakat qilib qochdim va shu yerga keldim, - dedi.

- Bizga qanday xizmat ko'rsatish qo'lingdan keladi?

- Janoblariga shaharning shikastlarini ko'rsataman, uni bilgandan keyin fath qilishlari oson bo'ladi. Bu shaharning mustahkam qo'rg'oni bor. Bir vaqtda sel kelib, bir qismini yuvib ketgan. Podsho uni qaytadan bino qilishni buyurib, omiliga xat yozgan, lekin omil sustkashlik qilib, vaqtni o'tkazib yuborgan. Podshoning Qustantiniyadan[7] chiqqanini eshitgan omil uning Ammuriyaga kelib, bu vayrona qo'rg'onni ko'rib qolishdan hurkib, uni nari-beri ishlatib qo'ya qolgan, ya'ni yuzini tosh bilan ishlaganu, lekin teshik rahmalarini esa yog'och bilan to'sib qo'ygan. Agar istasalar, uni shu yerdan turib ko'rsata olaman, - dedi.

Xalifa o'rnidan turib:

- Qani, menga uni ko'rsat-chi, - dedi.

Hammod olisdan uni xalifaga ko'rsatdi. Xalifa uni ko'rgandan keyin Hammodga tashakkur aytdi va: - Gaping to'g'ri chiqsa yaxshigina mukofot olasan, - dedi.

Zirg'om:- Gapining rostligiga men kafilman. Mukofotni darhol berishga buyursalar mumkin bo'larmikin, - dedi.

- Xo'p, sen tufayli uni tezlataylik, nima mukofot bersak bo'larkin?

- U mol talab qilmaydi, faqat ruxsat bersangiz, cho'ringiz Yoqutani o'ziga xotin qilib olsa.

Xalifa:

- Yoqutani - xotiningnimi? - deb hang-mang bo'lib qoldi.

Zirg'om ozgina jim turdi-da:

- Ha, menga xotin bo'lsin, deb janoblari buyurgan Yoqutani. U mana shu o'rtog'imning sevgilisi bo'lgani uchun janoblarining saxovatpeshaliklariga suyanib, uni xotin qilmaganman. Uni omonat tariqasida uyimda saqlab keldim. Agar janoblari bizni boshimizdan oyog'imizgacha in'omlari bilan ko'mmoqchi bo'lsalar, bu urushdan sog'-salomat qaytib borganimizdan keyin

gunohimizni kechib, Yoqutaning Hammodga tanmahram bo'lishiga ijozat bersalar, - dedi.

Xalifa Zirg'omning vijdoniga, xulq-odobiga qoyil qolib, jilmaydi-da:

- Ikkalangi zning gunohlaringdan kechdim, ayni vaqtda Hammod mening imtiyozli kishilarimdan biri bo'lishini istayman, ko'p in'omlar beraman, - dedi.

Ikkalasi uning marhamatiga tashakkur aytishdi. Keyin Mu'tasim: "Qani, ishga o'taylik", dedi-da, o'z chodirini buzilgan qo'rg'on oldiga ko'chirilib, oldiga manjaniqlar o'rnatishni va qo'rg'onning qolgan qismini ham vayron qilishni buyurdi. Rumliklar qo'rg'on o'rniga bir-biriga zich qilib xodalar taxlashdi. Manjaniq u xodalarni ham sindiravergach, rumliklar uning ustiga barzax o'rnatishdi. Yana manjaniqlardan toshlar otavergach, qo'rg'on yorildi. Keyin Mu'tasim qamal qilishni kuchaytirdi.

Rumliklar qo'rg'on atrofida o'tib bo'lmaydigan bir xandaq kovlashgandi. Agar o'sha xandaq bo'lmaganda, shahar ilbatta olingan bo'lardi.

Zirg'om xalifaga o'sha xandaqning ichiga tuproq to'ldirilgan qo'y terilari bilan yopishni maslahat berdi. Xalifa shu maslahat bo'yicha ish ko'rди hamda teri ustidan qo'rg'on tomonga yumalatish uchun har birining ichiga o'ntadan odam sig'adigan katta dabboblar qildirib, bittasini yumalatib ko'rishdi. U dabboblar xandaqning yarmiga borganda o'sha terilarga ilindi. Xandaq ichidagi kishilar arang undan qochib qutuldi. U yana bir qancha narvon va manjaniqlar ishlatdi.

Zirg'om Jahonga tezroq erishish uchun hujumni boshlashga ruxsat berishni xalifadan hadeb iltimos qilardi. Xalifa uni ayab, hujumga ruxsat bermadi, keyin u urush ochishni buyurdi. Birinchi bo'lib hujum qilgan Ashnos bo'ldi. Ma'raka maydoni tang bo'lgani uchun urush qilish qiyin bo'ldi. Shuning uchun Mu'tasim qo'rg'on atrofidagi manjaniqlar bilan unga yordam berdi. U qo'rg'onning teshilgan yeri ustiga manjaniqlarni to'platdi. Ikkinchi kuni Mu'tasim Afshinga o'z odamlari bilan hujumga o'tishni buyurdi. Uchinchi kuni esa Mu'tasimning o'zi qo'l ostidagi lashkari, jumladan, mag'ribliklar, turklar bilan birga hujumga kirdi. Mu'tasimning qo'l ostida bo'lgan Zirg'om shu qadar abjirlik va matonat ko'rsatdiki, unga har qanday qahramon ham havas qilsa arzirdi. Hammodning ishidan xabardor bo'lgan Vardon ham Zirg'om yonida edi. Zirg'omning fikr-xayoli pop Notis qasri tomon yo'llanishda.

Jang qattiq qizib, kechasigacha davom etdi. Poplar ilgari qo'rg'on minoralarini bo'lashib olishgandi. Keyin ular orasida janjal chiqib qoldi, ba'zilar ertalab kelib, boshqalarining ziddiga yurish uchun qurollarini tashlab, Mu'tasimning kishilari oldiga tushib, shaharga kelishdi. Rumliklar mag'lub bo'lib, shaharga musulmonlar fotihlar sifatida kirishdi va unda talash, o'ldirish va qurollarni olish bilan mashg'ul bo'lishdi.

\* \* \*

Zirg'om o'z sevgilisini qidirib, to'g'ri popning qasri tomon yo'l oldi. Shahar ko'chalari talon-toroj qilish, asir olish uchun kirgan musulmonlar bilan liq to'lgani uchun Vardon bilan Hammod ham qasrga ko'p aziyat chekib, arang yetib bordi. Uch og'ayni qasrga kirsang, uning eshiklari lang ochiq, ichida na mol-mulk, na xotinlar qolgan. Ular Jahon bilan Haylonani izlab, qasrning hamma uylarini aylanib chiqishdi. Ulardan darak topolmagach, Zirg'om Hammodning aytgan gaplariga shubhalanib qoldi. Hammod esa uning shubhalanganligini sezib aytgan gapining to'g'riligiga ont ichdi va:

- Menimcha, askarlardan ba'zilar qasrga kirib, uni talagan va odamlarini olib ketgan bo'lsa kerak, - dedi.

Zirg'om bilan Vardon xafa bo'lib o'rnidan turishdi. Vardon:

- Ma'raka tugagandan so'ng ularni asirlar orasidan axtaramiz, - dedi.

Musulmonlar g'alabaga erishgach, xalifa urushni to'xtatib, o'ljalarni shahar atrofiga to'plashni buyurdi. Ular sotiladigan bo'lganidan xaridorlar ko'paya boshladi. Sotishni tezlatish uchun har bir mol ustida uch marta: "Kim oshdi?" deyiladi-da, sotib yuborilaveradi. Asir-qullar ko'pligidan, ularni bir yo'la beshta-beshta, o'nta-o'ntadan sotishardi. Mu'tasim esa sotuvchilarni "tez bo'linglar" deya oshiqtirardi. Xalifa shaharni vayron qilishga buyurgani uchun, askarlar uni vayron qilishdi, kuydirishdi.

Kishilar oldi-sotdi bilan band bo'lib turgan paytda Vardon asirlar orasini aylanib chiqdi. U na xotinidan va na Jahondan darak topmagach, yuragi siqildi va birgalikda maslahat qilishib olmoq uchun Zirg'omning oldiga qaytib kelmoqchi bo'ldi. Yo'lda u Afshinning lashkargohidan o'ta turib, o'ljalar orasida Jahonning qashqa otiga ko'zi tushdi. Ot yonida turgan Somonni ko'rib, u muqarrar Jahonning oti ekanligiga ishonch hosil qildi. Uni yomon ko'rgani uchun qattiq g'azablandi-yu, lekin Zirg'omni rioya qilib, unga bir shikast yetkazishdan o'zini tiydi, chunki Zirg'omning xohishi shu edi. Shundan keyin u ko'rgan voqeasini yugurib borib Zirg'omga aytdi. Zirg'om kelib Jahonning qashqa otini ko'rди, lekin Somon allaqachon ot oldidan ketib qolgandi. Otga qarab, uning peshanasidagi sher suratini ko'rди-yu, u Jahonning oti ekaniga Zirg'omda shak-shubha qolmadi. Jahon bilan Haylona Afshin olgan asirlar ichida ekan, degan fikr ko'ngliga keldi. Darhol kirib, Jahon bilan Haylonani talab qilmoqchi bo'ldi, lekin askarlar orasida nizo chiqib ketishidan qo'rqib, bu ra'yidan qaytdi, chunki u askarlarning ittifoq bo'lishini istardi. Keyin u o'zicha, Jahon bilan Haylonani qutkazish uchun xalifani o'rtaga qo'yishga qaror qildi.

Shunday keyin Zirg'om xalifani qidirdi. Uning umumiy qabulxonada o'tirganini, g'alaba bilan muborakbod qilish uchun oldiga qo'mondon va a'yonlar keti uzilmay kirib turishganini eshitdi. Xalifaning bo'shashini kutib o'tirib, kunni allamahol qildi. Axiri odamlar tovsalgandan keyin ruxsat so'rab, sekin yoniga kirdi. Xalifa uni yaxshi qabul qilib, o'z yoniga o'tqazdi, unga xushchaqchaqlik bilan muomala qildi. Zirg'om ham uni tabriklab, haqqiga duo qilgan bo'ldi. Zirg'omning yuzida g'am ko'lankasini, tutoqish alomatlarini ko'rgan xalifa:

- Senga nima bo'ldi? Xafa ko'rinasan? - dedi.

Zirg'om:

- O'z xojasi oldida quldan aslo xafalik zohir bo'lmaydi. Xafa emasman, lekin bir oz bezovtaroqman, - dedi javob qildi.

- Nima uchun hayajonlanding, Sohobim?

- Afshinning zulm-taaddisi meni hayajonga soldi.

- Uning taaddisi nimadan iborat? Sen donosan, birovlar bilan "san-manga" bormasliging menga ma'lum.

- Men u bilan na martaba, na o'lja talashmayman. Men oshiq bo'lgan qiz falakning gardishi bilan Ammuriyya-ga kelib qolgan ekan, Afshin mening sevgimdan voqif bo'la turib, asir tushirib, o'ziniki qilib olibdi.

Mu'tasim hayron bo'ldi: "Qanday qilib Ammuriyyada buning ma'shuqasi bo'ladi?" deb o'yladi-da, unga qarab: "Ochiqroq gapir, men tushuna olmadim", dedi.

Zirg'om gap boshladi:

- Janob oliylari, xudo baxtu davlatlarini bundan ham ziyoda qilsin, Somurroda kaminaga Yoqutani tanmahramlikka taqdim etgan edilar. Men kecha o'zlariga aytganimdek, buyruqlariga xilof ish qilgandim. Xilof ish qilganimning boisini o'sha vaqtda o'zimdan

so'ramadilar. Uning boisi cho'rilar olib kelish uchun meni Farg'onaga yuborgan vaqtingizda u yerda bir qizga oshiq bo'lib qolgandim va u bilan ikkimiz umr yo'ldoshi bo'lishga ahd qilgan edik. Baxtga qarshi shu payt qizning otasi vafot etib qoldi. Farg'onadan qaytib kelishim to'g'risida o'zlarining farmoni oliylari bo'lib, to'y masalasini keyinga qoldirib, Somurroga qaytib kelgandim. Shundan keyin ko'p hodisalar yuz berib, oxiri bu qiz taqdirning taqozosi bilan Ammuriyyaga kelib qoladi. Qiz Ammuriyya popi Notisning qasrida qamalib yotgan ekan.

Ammuriyyani fath qilgan vaqtimizda men qizni qasrdan axtarib topa olmadim. Surishtirsam, u Afshinning qo'liga tushib qolibdi. Unga borib, qizni talab qilmoqchi bo'ldim, lekin ittifoq bo'lishimiz juda zarur bo'lib turgan bir paytda askarlar orasida nizo chiqarmay deb, maslahatlarini olish uchun hozir o'zlariga arz qilgani keldim.

Mu'tasim bir lahza boshini yerga solib turdi-da:

- Bu oson hal bo'ladigan ish. Afshin sening ma'shuqangni o'zida ushlab turmaydi, asir olingan ayollar behisob, arzimas pulga sotib ham yuborilyapti-ku, - dedi-da, chapak chalib tashqaridagi g'ulomlaridan birini chaqirdi-da, Afshinni chaqirib kelishni buyurdi. Bir ozdan keyin Afshin kirib, xalifaga salom berdi, Yonida o'tirgan Zirg'omni ko'rib, nima uchun chaqirilganini sezdi-yu, bilmaslikka olib jim turdi. Xalifa unga qarab: "Sohibga aloqador bir ish ustida sizni chaqirdim. Uning men uchun qadrlil bir kishi ekanini o'zingiz yaxshi bilasiz",- dedi.

Afshin tabassum qilib:

- Sohib men uchun ham muhtaram, buni o'zi ham yaxshi biladi, - dedi.

- Sizning ixtiyoringizga tushgan asiralar orasida bir qiz bor ekan, Sohib sizdan o'shani so'rayapti.

- Asiralar to'lib yotibdi, arzimaydigan pulga sotilib ham ketyapti, agar u mendan beshtasini so'rasa, o'ntasini berishga tayyorman.

Zirg'om Afshinning chalg'itayotganini tushunib:

- O'zingiz yaxshi biladigan bir qiz menga kerak, - dedi.

- U kim ekan?

- Hokimning qizi Jahonni aytmoqchiman.

Afshin hayron bo'lgan bo'ldi:

- U ham asiralar ichida ekanmi?

- O'shalarning ichida bo'lsa kerak, deb o'ylayman, u bilan birga Haylona degan rumlik yana bir ayol ham bor.

Afshin xalifaga qarab:

- Mabodo asiralar orasida Jahon bo'lsa, uni Zirg'omga topshirish zahmatidan meni qutqarsinlar, uzr, - dedi.

- Sohib uni ma'shuqam deb da'vo qilyapti, u to'g'ri so'z odam, to'g'ri gapiradi.

- Mayli, lekin bu qiz men uchun o'z qizim o'rnida, otasi meni unga vasiy qilib tayinlab ketgan. Sohib buni inkor qilmasa kerak, deb o'ylayman.

Mu'tasim Zirhomga qaradi: uning rangi o'chib, chehrasida g'azab alomatlari ochiq-oydin sezilib turardi. Mu'tasimning o'ziga qaraganini payqagan Zirg'om jahlini tiydi-da, "Hokim bu kishini vasiy qilganidan xabarim bor, lekin qiz bilan gapni bir yerga qo'yganimiz vasiyatnoma yozilishidan burun bo'lgan", - dedi.

Afshin:

- Bu gap to'g'ri bo'lsa, vasiyat qiluvchi uni o'z vasiyatida aytib ketgan bo'lardi. Vasiyatnomada bu gap yo'q. Men qizni hech kimga unashtirilmagan deb hisoblayman. Otasining vasiyatiga muvofiq; mening ruxsatimsiz uni birovga unashtirish durust emas, - dedi-da, fikrini bilmog'chi bo'lgandek xalifaga qarab qo'ydi.

Mu'tasim hayron bo'lib qoldi, chunki Zirg'omning o'z xohishiga erishuvini istardi. Shu bilan birga, askarlar ichida g'avg'o ko'tarilishini ham istamasdi. U Afshinga qarab:

- Faraz etaylik, qizning otasi unashtirilganini bilmagan yoki unga iqror bo'lmagan bo'lsin, hozir u sizning otalig'ingizda ekan, biz bevosita siz orqali unga sovchi bo'lyapmiz.

Afshin mot bo'ldi, nima deyishini bilmay, boshi berk ko'chaga kirib qoldi. "Qizni Zirg'omga bermayman", deb xalifani o'zidan ranjitsinmi yoki xo'p desinu, qarab turib undan ajralib qolaversinmi? U ozgina o'ylab turdi-da, dedi: "Janob oliylarining buyruqlari muqarrar bajariladi, lekin xudo xohlarsa shu ish Somurroga qaytib borganimizdan keyin bo'lsin".

Mu'tasim: "Bu to'g'ri maslahat", degandek Zirg'omga qarab qo'ydi.

Afshin ishni atayin keyinga siltayotganini va tilining uchidagina gapirayotganini sezgan Zirhom qat'iy qilib:

- Afshin amiralmo"mininning talablarini qabul qilgan bo'lsa, nikohni shu yerning o'zida qildirsin, - dedi.

Afshin bo'ysungandek tabassum qildi va: "Xalifa buyruq qilsalar bosh ustiga, hech qanday gap-so'z bo'lishi mumkin emas, lekin asiralar hozir qayerdaligini bilmayman, fikrimcha, ular Somurroga jo'natilgan bo'lsa kerak", dedi. Zirg'om Jahonning otini shu yerda - lashkargohda ko'rgani uchun o'zini ham shu yerda deb bilardi. U:

- Agar qiz bu yerda bo'lmasa, Somurroga borgunimizcha nikohni to'xtatib turishga roziman, hozir borib, uning bor-yo'qligini tekshirib, basharti, bor bo'lsa, shu yerga olib kelish uchun xalifam o'z kishilarini yuborsalar, deb iltimos qilardim, - dedi.

Xalifa g'ulomini chaqirdi va: "Afshinning lashkargohiga borib, Jahon degan asira qizni topib, bu yerga olib kel", - deb buyurdi.

Zirg'om g'ulomni to'xtatib:

- Uning oti Gulnor, bu mamlakatda uni shunday deb atashadi, - dedi.

G'ulom chiqib ketdi. Zirg'om esa cho'g' ustida turgandek besaranjom: uzoq vaqtdan buyon ko'rmagan sevgilisini ko'rishga oshiqib, yuragi qinidan chiqib ketay dedi. Meni o'lgan deb hisoblab yurgan Jahon to'satdan menga ko'zi tushsa, juda hayron bo'lib qolsa kerak", degan fikr ko'ngliga keldi. Shu yo'sinda kechgan har bir lahza uning xayolida soatlarga aylanib ketdi. Keyin xalifa yuborgan g'ulom: "Asir tushgan ayollar shu bugun ertalab Somurroga yuborilgan ekan", degan gapni topib keldi.

Bu xabar Zirg'omning boshiga chaqmoqdek urilgan bo'lsa ham, sukut etdi-yu, lekin: "Jahonning sinchiklab axtarishni, basharti u lashkargohda bo'lsa, majburan olib kelishni Vardonga aytaman", deb ko'ngliga tugib qo'ydi.

Xalifa Zirg'om bilan Afshinning ketaverishiga ruxsat bergandan keyin Zirg'om chiqib, Vardonni ko'rish uchun to'g'ri o'z chodiriga bordi. Uni topolmagach, kishilardan so'radi. Uni ertalabdan beri ko'rmaganliklarini, qayerga ketganini ham bilmasliklarini aytishdi. Uni chodiriga borib surishtirmoq uchun o'zi chiqdi, u yerda ham yo'q. Hammodni ham ko'ra olmadi. Ikkalasi bir yerda bo'lsa kerak, deb umid bog'lagan edi, afsuski, ikkalasi ham yo'q. Zirg'om tashvishlandi. Vardonni ko'rishi juda ham zarur edi.

"Jahonning otini erta bilan turgan joyiga borib aniqlab kelaman", deb yolg'iz o'zi chiqdi. Uni ham topa olmadi. Shundan keyin u, "Afshin to'g'ri aytgan ekan, u xalifaga yolg'on gapirishga jur'at etmasa kerak", degan xulosaga keldi-da, chodiriga qaytdi va ko'nglidagi niyatini hech kimga aytmadi.

## Afshinning Sud Qilinishi

Afshin asir olingan ayollarni o'sha kuni ertalab lashkargohdan olib ketishga buyruq bergandi. Bu ish Somonning maslahati bilan bo'lgandi. Jahon popning qasrida ekanini unga ko'rsatgan, asir qilib olishga maslahat bergan ham o'sha Somon edi. Somon Bazzda bo'lgan vaqtdan boshlab Jahonning har bir qadamini kuzatardi. Uning Rum mamlakatiga chiqqani, Ammuriyyaga borib tushgani ham Somonga ma'lum edi. Bu ishlarni u otasining vasiyatini o'zgartirish to'g'risida Afshindan olgan va'dasiga erishmoq uchun qilgandi.

Ammuriyya fath qilingandan keyin, u singlisi oldiga borib, unga yordam ko'rsatish uchun kelgandek qilib ko'rsatdi. "Afshin ham faqat seni qutqazish uchun bu hujumni uyushtirdi" deb, ungi xotin bo'lishni maslahat, beraverdi. Ammo Jahon uning maslahatlariga unamasdi. Shuning uchun Zirg'om pop qasriga yetib kelmasidan oldinoq Afshinning odamlari Jahonni va Haylonani otga mindirib, uning lashkargohiga olib ketishdi. Haylona Jahon uchun katta suyanchiq. Ular bir-birini sevishgan, ayrilmas do'st, dugona bo'lib olishgandi. Ikkalasi ham o'zini bewatan, g'arib deb hisob qilardi. Ular Afshinning lashkargohiga kelishgandan keyin, asirdek bo'lib qolishgani jahonga juda og'ir tuyuldi. Mu'tasimga yo'liqib, o'zini Afshin changalidan qutqazishini iltimos qilmoqchi bo'ldi, lekin akasi sabr qilishni tavsiya etdi va: "Seni o'zim Somurroga olib boraman, u yerga borgandan keyin istagan ishingni qilaverasan", deb uqtirdi. Somon Somurroni tilga olishi bilan Jahon Zirg'omini esladi, chunki uning barhayot ekanidan umidvor edi. "Juda bo'lmasa, uning onasi tirik bo'lsa, o'g'li haqidagi gaplarni surishtirib bilib olarman", degan umidda "Mayli, Somurroga bora qolay, lekin Haylona ham men bilan birga bo'lishi shart", - dedi.

Somon bu shartni qabul qildi. Somonning maqsadi Zirg'omga bildirmasdan Jahonni olib qochish edi. U tong saharda Jahonni izlab yurgan Vardonni ko'rib, Afshinning oldiga yugurdi va unga "tezda ayollarning ikkalasini to'ppa-to'g'ri Ushrusanaga yuborib, u yerda saqlab turish kerak", degan maslahatni berdi. Afshinga Somonning maslahati ma'qul tushdi. Shundan keyin Somon yuk ortadigan ulovlarni va yo'lda ularni qo'riqlab boradigan soqchilarni shoshilinch ravishda tayyorladi-da, ko'zni shamg'alat qilib yo'lga tushdi. Jahonni topib kelish uchun xalifa yuborgan g'ulom lashkargohga kelganda, ular bu yerdan chiqib ketganiga bir necha soat bo'lgandi.

Zirg'om esa Vardon bilan Hammodning bedarak yo'q bo'lib ketganidan tashvishlanib, nima qilishini bilmay, hayron bo'lib qoldi. Ular bir falokatga uchragan bo'lmasin, deb qo'rqdi: "Afshin ularni bir baloga yo'liqtirgan bo'lsa-ya",- degan xayolga ham bordi. Askarlar o'lja va asirlarni sotish bilan Ammuriyyada bir necha kunni o'tkazishdi. Mollar ko'p bo'lgani uchun yahudiy savdogarlari undan ko'p foyda topishdi. Undan keyin askarlar shaharni vayron qilish, qo'porish bilan yana bir necha kun qolib ketishdi. Shaharliklardan ko'p odam qirib tashlandi. Pop Notis esa o'zidan-o'zi ularga taslim bo'ldi.

Hamma ishlar saranjom topgandan keyin Mu'tasim Somurroga qaytishga farmon berdi. Zirg'om esa benihoya tashvishda. U o'z sevgilisini Somurroda uchratish niyatida u yerga qaytayotganlar bilan birga yo'lga tushdi.

Yo'lda Zirg'om qarshi tomondan kelayotgan otliq kishilarga ko'zi tushdi Ularni ko'rishi bilanoq yuragi hovliqib ketdi, chunki otlar orasidagi bittasi Vardonning oti ekanini payqadi. O'sha yo'lovchilarga yetib olish uchun otiga qamchi bosdi. Ularga yaqinlashganda ikki kishini - Vardon bilan Hammodni tanib: "Vardon!" deb baqirdi.

- Labbay! - dedi Vardon, uning ovozi shodlik va zafar ohangi yangrardi.

Zirg'om:

- Qayerda edinglar? Men sizlardan juda tashvishlandim, - dedi.

Vardon:

- Somurroga borib kelyapmiz.

Zirg'om:

- Nima uchun bordinglar u yerga?

- Ikki kelinni u yerga olib borib, tashlab kelyapmiz.

- Qaysi kelinlarni aytyapsan?

- Jahon bilan Haylonani.

- Qanday qilib? Gapir, tezroq gapira qolsang-chi!

- Qarasam, sen Afshinga yalinadigan ko'rinding. U bilan gaplashadigan bo'lsang ham, xalifa oldida gaplashasan. U esa senga chap bermoqchi: Jahon bilan Haylonani qayergadir olib qochmoqchi. Shu ishdan g'aflatda qolgudek bo'lsak, ularni qidirib topishga umr kifoya qilmasdi. Senga bildirmasdan bir kuch ishlatish kerak degan fikr keldi ko'nglimga. Chunki senga bildirsam, "askarlar orasida g'avg'o chiqmasin", deb turib olasan. Jahon bilan Haylonani olib qochishni Afshinga Somon maslahat berganini ham bilgandim. Shuning uchun Somonni ham qo'shib, qizlarning ikkalasini zo'rlik bilan olib ketishga Hammod bilan so'z biriktirdik va shu ishni bajardik. Mena ikki kelinni Somurroga olib borib, Sohobning uyiga joyladik. Somonni esa sen yetib borguningcha, qamoqxonaga qamatib keldik.

Zirg'om bir tomondan sevinsa ham unga:

- Afshin bilan kelishgan va'damizda tursak yaxshi bo'lmasmidi? U xalifa oldida Somurroga yetib borgan zamonamiz to'y qilib yuboramiz, deb menga va'da bergan edi,- dedi.

Vardon:

- Afshin Jahonni Somurroga yuboraman, degan ga-pini chin deb ishonganmiding? - dedi-da, Hammodga qa-rab.

- Do'stim, sen Yoqutani ko'rib sevingani bo'lsang kerak deb o'ylayman, lekin nimaga yana qaytib kelyapsan? - deb so'radi.

- Sen bilan birga bo'lish va xizmatimni to'liq ado etish niyatida qaytib kelyapman.

Askarlar qo'shlama tarzida yo'lda bormoqda. Zirg'om esa Mu'tasim yonida, uning qo'shilmada bormoqda. Kech kirgach, ular dam olish uchun mazgilga tushib, yuklarni ham tushirishdi. Vardon esa xalifaga qarshi uyushtirilayotgan yangi fitni xususida Zirg'omga hikoya qilib berdi. Bu haqda uni ilgari ham ogohlantirgan edi. U "xalifaning hayoti xavf ostida, bundan albatta o'zini xabardor qilib qo'yish kerak", - dedi.

Hammod:

- Bu xabarni xalifaga men yetkazaman, lekin uning oldiga meni Zirg'omning o'zi hech kim yo'q paytida olib borishi kerak, - dedi.

Zirg'om:

- Qani yur, hozir boramiz, - dedi.

Vaqt xufton payti edi. Ular xalifaning chodiriga borib yetishdi-da, Zirg'om kirishga ruxsat so'radi. Ruxsatdan keyin Zirg'om yonida

Hammod bilan birga kirdi. Xalifa:

- Xo'sh, keling, Sohib, - dedi.

Zirg'om:

- Do'stim Hammodda janob oliylariga ma'lum qilishi zarur bo'lgan maxfiy gaplar bor agar ruxsat bersalar, aytmoqchi, - dedi.

Xalifa Hamodga qaradi:

- Gapir, lekin yolg'on aralashtirishdan ehtiyot bo'!

Hammod sarkardalar xalifani o'ldirib, o'rniga Abbosni o'tqazish to'g'risida kelishib olganini va suiqasd qilganlarning nomini, shu jumladan, Shoh bin Ismoil Xurosoniyini, Horis as-Samarqandiy, Ujayf bin Anbasa va boshqalarni aytib berdi. Mu'tasim bu ishga shitob bilan kirishib, gumonsiragan kishilarini chaqirtirdi, ularni turli vositalar bilan tergov qildi. Ular qilmishlariga iqror bo'lgandan keyin, hammasini o'ldirtirdiki, bu o'ldirtirish vositalarini batafsil bayon etishga hojat yo'q. Ammo Abbosni Somurroga borguncha saqlab turdi va uni mal'un, deb atadi. Shundan keyin u Ma'munning bolalarini tutib, uy-uylarida umrbod qamoqqa hukm qildi. Vaqtida ogohlantirganliklari uchun Zirg'om bilan Hammodni maqtab, ularga mukofotlar berdi.

Afshin Vardon bilan Hammodning qilgan ishlarini ba'zi odamlardan eshitdi, lekin Somurroga yetib borguncha sabr qilib, u yerga borgandan keyin ularni ham, Zirg'omni ham o'xshatib xalifaga chaqmoqchi bo'ldi. Qofila Somurroga yaqinlashganda Zirg'omning yuragi duk-duk ura boshladi, chunki uzoq hijronidan keyin Jahon bilan ko'rishadigan vaqt kelayotganini u bilardi.

\* \* \*

Jahon Vardon bilan Hammodning qo'liga o'tgandan keyin, azaliy orzulari yana jo'sh urdi. Avvaliga ularning askarlari bilan hujum qilayotganini ko'rib, "yana qanday baloga duchor bo'lyapman", deb xudodan panoh tiladi va ulardan o'zini mudofaa qilmoqchi bo'ldi. Keyin birdan Vardonning tovushini eshitib qoldi. O'sha tovushni xotini Haylona ham eshitib qoldi-da, ikkalasi uning tomoniga burilishdi. Tirikligidan umid uzib qo'ygan Vardonning ovozi eshitgan Haylona qalbida paydo bo'lgan sevinch va hayajonni aslo so'ramang. Er-xotin bir-birlarini quchib, qadimiy va mangu muhabbat alomatlarini zohir etishardi. Shu payt Vardon Somonni ushlab, qo'l-oyog'ini bog'lab qo'yishni o'z sheriklariga topshirdi-da, Jahonning yoniga bordi. Jahon unga qarab:

- Rostdan Vardonning o'zimisiz? - deb so'radi.

Vardon:

- Ha, menman, sayidam, salomatlik va diydor ko'rishish sizga muborak bo'lsin? - dedi.

Jahon to'lqinlanib so'radi:

- "Ko'rishish", Zirg'omim, u qayerda?

Vardon:

- U sog'-salomat, bir necha kundan keyin keladi. Men sizning uning Somurrodagi hovlisiga eltib qo'yaman, u yetib borguncha o'sha yerda onasi yonida turasiz.

Jahon "bu tushimmi yo haqiqatmi" deb xayol surdi-da, Vardonning basharasiga yana bir tikilib qaradi va: "Zirg'omim tirikmi?" dedi. Shu payt Jahon "Zirg'om o'lgan" deb xabar yetkazganlardan birinchisi bo'lmish Somonni esladi. Somon esa otning orqasiga o'ngarilib qo'yilgan yotardi. Jahon unga qaradi. Vardon bilan gaplashib turgan Jahonga qarab Somon: "Menga rahm-shafqat qil", deytogandek tuyuldi. Lekin Jahon yuzini teskari o'girdi-da, Vardon bilan apoq-chapoq bo'lib, shodu xurramlikdan uchib ketay deb turgan Haylonaga qarab: "Vardonni sen ilgari ham tanirmiding?" - deb so'radi.

- Axir bu o'z erim bo'ladi-ku.

- Menga aytgan pop ering shumi?

- Ha, xuddi o'zi. Uni menga yetkazgan Ollohga shukur. Oshiqingning qarorgohiga yetganingdan g'oyat mamnunman, muborak bo'lsin, Jahon! - dedi.

Vardon Jahon: "Zirg'om qayerda?" - deb yana so'radi.

- Hozir Ammuriyyada, Somurroga jo'neydigan bo'lib turishibdi.

Shundan keyin ular ham. Somurro tomon yo'l olishdi. Vardon o'zida yo'q xursand. Yo'lda ular boshdan kechirgan mojarolarni bir-birlariga hikoya qilib borishardi. Vardon ham Zirg'omning Mu'tasim oldida qozongan obro'-martabasini maqtab, uning nomini xalifa Sohib deb o'zgartirganini va buning sabablarini Jahonga tushuntirib berdi. Bundan tashqari, u Hammod bilan Yoquta voqealarini va Yoqut Jahonning xuddi o'ziga o'xshashligini hikoya qildi.

Ular Somurroga yetgandan keyin Vardon darhol Somonni qamoqxonaga yubordi va uning boshlig'iga: "Bu ayg'oqchini qamab qo'yishni Sohib buyurdi", deb ta'kidladi. Keyin u Jahon kelganini Oftobga xabar qildi. Jahon bilan Oftobning uchrashuvlaridagi holati kishi ko'z o'ngiga keltira olmaydi. Oftob Jahonni yonidan siljishga qo'ymay, bag'riga tortib, quchoqlab o'pard.

Yoquta ham Hammodni ko'rgach, sevinganidan terisiga sig'may ketdi. U Hammodning barhayotligidan xabardor edi, lekin Jahonni ko'rib og'zi ochilib qoldi. Yoquta bilan Jahonning bir-biridan ajratib bo'lmaydigan darajada o'xshashligidan u ko'zguda o'z aksini ko'rayotgandek his qildi. Jahon ham Yoqutani ko'rib hayratda qoldi.

Vardon Somurroda o'z vazifasini tugatgandan keyin Ammuriyya tomon qaytishga otlandi. Hammod ham u bilan birga yo'lga chiqdi.

Somurroda xalifa saroyidagilarning hammasi Zirg'omning yo'lini sabrsizlik bilan kutmoqda.

O'n yetti kun o'tgandan keyin "xalifa va uning askarlari sog'-salomat g'alaba bilan qaytib kelyapti", degan xushxabar tarqaldi.

Somurro shahri bezatildi. Davlat arboblari va askarlar saf tortib ko'chalarga bayroqlar osildi, kuylar chalindi, butun shahar shod-xurramlikka to'ldi. Erkagu ayol tomosha qilish uchun yo'lga chiqdi. Hamma shu marosim bilan band.

Jahonga esa hech bir narsa ko'rinmaydi, hech narsa eshitilmaydi. Xalifaning hamrohlari ichida Zirg'om saroyga kirib kelayotganini ko'rmikanman, deb uning ikki ko'zi saroy darvozasida. Lekin xalifa kirib kelgan vaqtda uning yonida hech kim ko'rinmadi.

Jahon hayajonlanib, ko'yib-yonib turgan paytda hovlida yo'tal ovozi eshitildi. Bu ovoz albatta Zirg'omniki ekanini tushungan Jahonning a'zoyi badanini qaltiroq bosib ketdi. Uni kutib olish uchun oldiga yugurmoqchi bo'ldi, lekin dag'-dag' qaltirab, ikki oyog'ini yerga bosa olmadi. Rangi quv o'chib ketdi, lekin u tahammul qildi, o'zini bosdi, dovyurakligini esladi-da hovli tomon yura boshladi. Zirg'om ichkariga kirgandi. U Jahonning shoshilmay, o'zini yo'qotmay bemalol yurib kelayotganini ko'rdi. Uning ko'zlari minbarda turib kishilarni sajda qilishga da'at qilayotgan yoki muhabbat yo'lida o'zini fido qilishga chaqirayotgan voizning holatini eslatardi. Zirg'om ta'zim qilib, Jahonga salom berdi. U o'rnidan turib, quchoqlab ko'rishishni istardi-yu, ammo bunday qilish uyat hisoblangani uchun botinmadi, oyoqqa turib, unga qo'lini uzatdi. Jahon ham o'z navbatida Zarg'omga qo'l berdi-da, bir olam ma'noli tabassum bilan ko'z urishtirishdi. Keyin Zirg'om:



- Farg'ona kelini, xush kelibsan, necha oy, necha yillardan beri ko'rishmadik. Mening ham safarim cho'zilib ketdi. Lekin "oshiqlar yo'li qisqadir" degan maqol bor,- dedi.

Jahon kulib javob berdi:

- Yo'l noqulay, o'r-qirlari ko'p bo'lgani uchun cho'zilgandir-da, lekin shakar suvini qancha ko'p qaynatsang, shuncha shirin bo'ladi.

- Lekin u shakarning suvi qaynayverganidan qurib qolib kuyib ketarmikan deb qo'rqqan edim, - dedi.

- Men ko'z yoshlarim bilan uni ho'llab turmaganimda, kuyib ketishiga sal qolgandi, - deb ikki ko'zini ochgandi, unda ikkita durdona paydo bo'ldi. Shu ko'zlari bilan bir qaragan edi, Zirg'omning ko'ksiga o'q qadalgandek bo'ldi. Zirg'om hushidan ketayozib.

- Shunday yoshlar bo'la turib, shakarning kuyib qolishidan qo'rqarmiding? - dedi.

- Lekin qayg'u yoshi bilan shodlik yoshi orasida osmon bilan yercha farq bor, mayli, xudoga shukur, hammasini ham ko'rdim.

Hamon o'z qo'lida turgan Jahonning qo'lini siqib, o'sha yerdagi kursi tomon uni boshladi. Uning ikki ko'ziga tikilib turib so'radi;

- Sen hozir Oллоhga shukur aytyapsan. Ilgari bo'lsa, unga emas, Urmuzdga[8] shukur aytarding. Bu o'zgarish qachon yuz berdi?

Jahon Zirg'om bilan birga yurib kelib, butun dunyoni unutgan holda ikkalasi yuzma-yuz o'tirdi-da, gap bosh-ladi:

- Bir vaqtlar ahvolim o'zgarib, ko'nglim boshqa yo'qqa ketdi, o'z shuurimga ega bo'lolmay qoldim, Zirg'om nimani istasa, men shunga tayyorman degan qarorga keldim. Seni qiziqtirayotgan bu o'zgarish o'sha kundan boshlab yuz bergandi.

Umidsizlik vujudimni kurshab olgan kunlarimga achinaman. Akam Somonni, boshqa odamlarni "Zirg'omdan xabar bilib

kelinglar", deb Somurroga yuborganimda, ular "Yo'q, ekan", hatto ba'zilari: "O'lgan ekan", deb qaytib kelishgan kundagi

umidsizliklarim uchun achinaman. Qancha noxushlik, qancha falokat keltirgan o'sha kunlar hech kimning boshiga tushmasin!

Ammo hozir ularning hammasi unut bo'ladi - ko'rmagandekman. Endi dunyoda mendan baxtliroq kishi bo'lmasa kerak, men

Farg'onada - sizning yoningizda bo'lgan kunlarimdan ham baxtliroqman. U kunlari men baxtsizlik nimaligini bilmay, ko'r-ko'rona baxtli bo'lgandim. Uchrashuv nimaligini bilmay turib, muhabbat to'liqini bilan o'tilib, sizga yaqin bo'lishdan lazzatlanardim.

Ammo bugun bilsam, baxt-saodatning qadri shu baxt yo'lida chekilgan azob-uqubatga qarab ziyoda bo'larkan. Farg'onada siz bilan birga o'tkazgan kunlarimda shuni bilgan bo'lsam, sizga yetishishdan oldin muhabbat yo'lida bir qancha qiyinchiliklarni boshdan

kechirishni o'zimga lozim ko'rgan bo'lardim, albatta, - dedi. Shu gaplarini gapirarkan, unda muhabbat zavqi g'alaba qilib o'zini,

ayollik izzat-nafsini unutib qo'ygandi. Uning yuzidagi tarovatga, ko'zidagi sehriga mahliyo bo'lib qolgan. Zirg'om sevgilisining gaplari mag'zini chaqolmadi. Jahon gapini tugatdi. Ammo Zirg'om unga quloq solayotgandek, hamon tikilib turardi. Keyin u o'zini

tutib oldi, xayoli boshqa yoqda bo'lganidan, gap nima ustida borayotgannii ham unutganidan xijolat bo'ldi-da:

- Bu judolik vaqtlarida boshingdan o'tgan voqealarni eshitishga juda qiziqaman. Ularning ba'zisini boshqalardan eshitgan bo'lsam ham, o'z og'zingdan eshitishim uchun boshqa gap edi,- dedi. - Sen ham mening boshimdan nimalar kechganidan xabardor bo'lishni

istasang kerak, albatta. Gaplarimiz ko'p, bafurja gaplasharmiz. Umrin bo'yi senga tikilib o'tirsam ham, tikilishdan to'ymayman, ey guluzorim, ey obi hayotim! Muhabbat lazzati shu muhabbat yo'lida chekiladigan azob-uqubatga qarab ziyoda bo'ladi, deganing

to'g'ri. Ammo sen bilan mening muhabbatimiz ziyodalikni qabul qilmasa kerak, lekin mashaqqat, azob-uqubat bilan yana ham musaffo bo'ladi, desang, bu fikringga qo'shilaman.

Jahon o'rnidan turib:

- To'g'ri aytdingiz, ikkimizning visol damlaridan oladigan lazzatimizning nihoyasi yo'q, - dedi.

- "Onangizni ko'rdingizmi?" - deb so'radi Jahon. "Yo'q, hali u kishini ko'rganim yo'q", - javob berdi Zirg'om.

Jahon:

- Sizga qanday yaxshi, shunaqa mehribon onangiz bor, u kishi sizni bag'riga bosib, bo'yaringizni hidlashni juda ham sog'inganlar, - dedi.

Jahon bilan Zirg'om hovli tomonga chiqishdi. Hovlida turgan ona ularni sezdi. Zirg'om yugurib borib, uning qo'lini o'pdi, ona ham bag'riga bosib o'pdi, peshonasini siladi. Shu yerda tikka turgan Yoqutani ko'rsatib, Jahon Zirg'omga:

- Men yo'qlik vaqtimda Yoquta bilan hamsuhbat bo'lib tursangiz arzimasmidi? - dedi.

Zirg'om: - U bilan ba'zan suhbatlashib turdik, ammo ko'p vaqtlari siqilardim ham. Ikkalangi'dagi shu o'xshashlik seni menga topib berdi. Buni keyin senga gapirib beraman, - dedi. Oshiq-ma'shuq shunday suhbatlar bilan uyda bir necha soatni o'tkazishdi. Keyin

ovqat tayyor bo'lib, uni yeyishga o'tirishdi. Shu vaqtda Oftob o'g'luga qarab: - Endi to'yni boshlab yuboradigan vaqting keldi, o'g'lim, - dedi.

Zirg'om javob berdi:

- To'g'ri, oyi, xudo xohlasa ertaga boshlaymiz.

Ular hali ovqatni yeb, dasturxon yig'ishtirilgani ham yo'q ediki, saroy g'ulomlaridan biri kelib, Zirg'omni xalifa yo'qlatayotganini

aytdi. Zirg'om o'rnidan turib, kiyimlarini kiydi-da, chiqib ketdi. U umumiy qabulxonaga yaqinlashganda, darvoza yonida turgan ushrusanalik bir qancha yigitlarni ko'rib, Afshinning shu yerdaligini payqadi. Ichkariga kirib, majlisning to'rida, o'z taxtida o'tirgan

xalifaga, uning yonida kursida o'tirgan Afshinga ko'zi tushdi. Vardon bilan Hammod katta xonning bir chekkasida tikka turishardi. U salom bergach, xalifa unga "o'tir" ishoratini qildi. U o'zini tushunmaganga solib:

- Oliy hazratlari ruxsat bersalar, bir og'iz gap gapirsam, - dedi.

Xalifa:

- Mayli, gapir, - dedi.

Zirg'om Vardonni ko'rsatib: "Hazrati oliylariga Armanistonning katta poplaridan biri bo'lgan Vardonni tanitmoqchiman. Bazz, va Ammuriyya muhorabasida askarlarimiz safida yaxshi ish ko'rsatdi", - dedi.

Xalifa ham, Afshin ham uning gapidan hayron bo'lib qolishdi.

Xalifa:

- Bu sening xodiming Vardon emasmi? - deya so'radi. Zirg'om:

- Uning tag-tugini surishtirmay, xodim deb yurgan edim. Keyin bilsam, ulug' kishi ekan. Mening huzurimda bir qancha xizmatlari bo'ldiki, undan musulmon askarlariga ko'p manfaat keldi. Hazrati oliylari ruxsat bersalar, u o'tirsa, - dedi.

- Lekin uni sud majlisiga, seni guvoh tariqasida chaqirtirganman.

- Hazrati oliylariga itoat etib, shohidlik vazifamni ado etaman - dedi-da o'tirib gapga quloq soldi.

Xalifa:

- Bosh sarkardamiz Afshinning gapicha, Vardon bilan Hammod uning askarlariga taaddi etib, qo'llaridan ikki asir ayolni tortib olgan emish. "Biz u masalani Somurroga qaytib borganimizdan keyin hal etamiz", degan buyrug'imizga ular bo'ysunishmagan.

Zirg'om:

- Shunday qilishgan, hazrati oliylari! Agar bu ishni gunoh deb hisoblasalar, u gunoh mening bo'ynimda, sababki, uni men tufayli qilishgan, unga men javobgarman. Qanday ish bo'lgan bo'lsa ham Hammodni hazrati oliylari afv etgan edilar. U o'zlarining va'dalariga muyassar bo'lmoq uchun Somurroga kelgan. Boshqa kishining gunohi tufayli u jazoga mustahiq etilmasa kerak. Mu'tasim o'zi unutgan bir narsani xayoliga keltirayotgandek chakkasini qashidi-da:

- To'g'ri aytiding, Hammod muhtaram va ko'p yaxshilik qilgan kishi, o'ziga munosib yaxshilik qaytaramiz. Istasa, hozir qora kursidan turib, chiqib ketishi mumkin, - dedi.

Hammod qulluq qilib, chiqib ketdi. Majlisda Vardon, Zirg'om va Afshin qoldi. Keyin xalifa Zirg'omga xitob qildi.

- Sen Vardon xususida o'ziga munosib gapni aytiding, lekin u o'sha ikki asir ayol to'g'risida bizning farmonimizga zid ish qildi. Biz Ammuriyyadalik vaqtimizda bu ikki ayolning ishini Somurroga qaytib borgach, hal qilamiz degan edik. Vardon shu farmonga rioya qilishi kerak edi. O'sha ikki asir ayol bu yerga keltirilsin!

Zirg'om:

- U ikki asir ayolning biri mening ma'shuqam bo'lsa, ikkinchisi buning jufti haloli bo'ladi. Mening ma'shuqam menga tegishi ustida hazrati oliylarining buyruqlari bo'lgandi, popning xotini hozir mening hovlimda, janob Afshin uning uchun qayg'urmasalar ham bo'ladi, - dedi.

Afshin g'azabidan ko'zlarini katta ochib:

- Birinchidan, ikkala ayol ustida ham hazrati oliyning farmonlariga rioya qilinishi, menimcha, zarur edi. Mening ma'shuqam deyaotgan Jahon bo'lsa, uning ustida alohida gaplashamiz, otasining vasiyatiga muvofiq uning ixtiyori menda.

Shu payt Vardon o'rnidan turib, gapirishga ruxsat so'radi-da, xalifaga xitoban:

- Bu kishi Jahonga vasiy bo'lganligi haqida hazrati oliylariga rasmiy hujjat taqdim etganmi? - deb so'radi.

Mu'tasim Vardonning gapidan ko'zi ochilib, Afshinga qaradi: - Vasiyatnoma qayerda?

- U menda, men yolg'onchimdim?

- Shariat bo'yicha, hukm chiqarishdan oldin vasiyatnomani ko'rish talab qilinadi, uni yashirishning sizga nima zarurati bor?

Afshinning basharasida g'alati bir holat yuz berib, avval gapni boshqa yoqqa chalg'itmoqchi bo'ldi, keyin o'zini g'azablangan ko'rsatib:

- Shunday ishda bosh sarkarda yolg'onchi bo'lib, bir qulvachchaning gapi rost bo'ladigan bo'lsa, oxirzamon bo'libdi-da! - dedi.

Vardon:

- Men bu kishining vasiyligini inkor qilmayman, lekin xalifa janoblari Ushrusana podshosi qanday odamligini bilib qo'yishlari uchun o'sha vasiyatnomaning aslidan xabardor bo'lsalar, yaxshi bo'larmikin, deb o'ylayman, - dedi.

Afshin fig'oni falakka chiqib, o'zini unutib qo'ygandek:

- Xalifa huzurlarida musulmon askarlarining bosh sarkardasiga shunday muomala qilinadimi? Faraz etaylik, vasiyatnoma yo'qolgan, o'g'irlangan yoki kuyib ketgan bo'lsin. Shu bilan men aybdoru, yolg'onchi hisoblanishim kerakmi? Bu odam vasiyligimga o'z tili bilan iqror bo'lyapti, bas shunday ekan, vasiyatnomani ko'rsatishimdan nima foyda?

Vardon sipolik bilan dedi:

- Janob sarkarda, jahlingiz chiqmasin, biz xalifa huzurlarida sud majlisida o'tiribmiz. Sud sizdan shu vasiyatnomani o'qib berishingizni talab qiladi.

Afshinning qattiqroq jahli chiqdi:

- Vasiyatnoma yo'qolgan, uning iborati yodimda yo'q.

Vardon:

- Iborati mening yodimda, agar hazrati oliylari ruxsat bersalar, huzurlarida uning iboratidan ba'zisini o'qib, bersam, - dedi.

Xalifa:

- Mayli, esingda borini aytib ber, - dedi.

Vardon:

- Vasiyatnoma xudo nomi bilan emas, zardushtlar xudo deb e'tiqod qiladigan "Urmuzd" nomi bilan boshlanib, unga shariat qozisi o'rnida majusiylar kohini guvoh bo'lgan. Shunday emasmi, islom askarlarining sarkardasi! Mana shuning o'zi bu zotning kimliklarini bilib olish uchun hazrat oliylariga yetarli dalil bo'lsa kerak.

Afshin yana g'azablandi. Vardon uni tahqirlamoqchi va sharmandasini chiqarmoqchi bo'layotganini payqadi. U bilan nojo'ya o'chakishgani uchun achindi-yu, lekin o'zini bardam tutib, dedi:

- Xo'sh, bunda ta'na qilishga arziydigan nima bor? Vasiyat qilgan kishi o'zi zardusht dinida bo'lgani uchun o'z dini va mamlakatining urf-odati bo'yicha yozgan. Gapingga qaraganda, meni zardushtlikka nisbat bermoqchisan. Bu sening haddan tashqari yuzsizliging!

Vardon Afshinga murojaat qildi:

- Hazrat oliylari ruxsat bersalar, men bilgan gapimni aytib bersam.

Xalifa:

- Sen o'zingni himoya qilyapsan, bunga yordam beradigan har qanday gapni aytishga haqlisan, - dedi.

Vardon Afshinga murojaat qildi:

- Men sizni zardushtlikka nisbat beribgina qolmay, zardushtiysiz, hozirgacha Urmuzdga topinib yurasiz, deb barala ayta olaman. Bundan tashqari, islomni himoya qilaman degan niqob ostida mol-mulk jamg'arishni o'zingizga asosiy kasb qilib olgansiz.

Qo'lingizdan kelsa, musulmonlar davlatini chilparchin qilishga urinasiz. Mana, Farg'onadagi otashxona bu gapimning dalilidir.

Vardon shunday degandan keyin Afshin masala chuqurlashib ketayotganini ko'rib, bu yig'inning o'zida uning hal bo'lmasligini payqadi-da, keyinga qoldirmoqchi bo'lib, dedi:

- Sening gaplaring hozirgi yig'inimiz mavzuidan chiqib ketdi. Biz hozir ikki asir ayolning yashirin ravishda olib ketilganligi masalasini qarayapmiz.

Gapga Zirg'om aralashdi:

- Bu masalada men aybdorman, deb hazrati oliylariga aytdim, chunki ularning bittasi mening ma'shuqam, u hozir o'z hovlimda...

Xalifa gapini bo'ldi:

- Uni jufti halollikka olishingga biz e'tiroz bildirayotganimiz yo'q, bildirmay, olib qochib ketgani uchun Vardonni ayblayapmiz.

Vardon javob berdi:

- Afshin janoblari "lozim bo'lib qolgan taqdirda musulmonlar davlatini ag'darishda darkor bo'lar" deb har yili ularning qanchadan-

qancha mol-dunyosi o'z mamlakatlari Ushrusanaga yuborib turadilar. Jahonni ham "olib borib o'sha mollarga qo'shib qo'yilsin" deb farmon berganlarini bilib, uni olib qochdim.

Xalifa Afshinga o'girildi. Uning ko'ksida selkillab turgan soqoli va qaltirab turgan muzdek qo'l-oyoqlariga qaradi-da:

- Bu ayblar juda katta ekan, ularni rad qila olmaydiganga o'xshaysiz, - dedi.

Afshin o'zini oqlamoqchi bo'ldi:

- Bu gaplarning hammasi yolg'on. O'tirishning davomini ertaga qoldirsak! Shunda uning sarasi sarakka, puchagi puchakka ajraladi.

Vardon rozi bo'ldi:

- Mayli, majlisni xoh ertaga, xoh undan keyinga qoldirilsa ham zarari yo'q, lekin aybdorning Somurrodan ketmay turishiga sud oldida kim kafil bo'la oladi?

Xalifa:

- Bu kishi shu yerda - saroyda turadi, - dedi-da, soqchilar boshlig'iga "buning qurol-yarog'ini va kiyimlarini yechintirib ol, qochib ketmasi, poylab tur", - deb buyurdi. Afshin pushaymon yeb o'rnidan turdi-yu, lekin hamon karamdimog'lik va zarda bilan xalifa oldidan chiqdi.

Afshindan keyin xalifa Vardonni ham chiqarib, yuborib, Zirg'omni olib qoldi. Keyin xalifa bir xo'rsindi-da, zirg'omga qarab: - Badbaxt zardushtlar! Davlatimizga sherik bo'ladi-yu, yo'limizga g'ov soladi. Oллоh bizga ularning qilichidan foydalanishga, makrlarini esa o'zlariga qaytarishga yordam berdi. Xo'sh, Sohib, bu ishda qanday fikr berasan? - deb so'radi.

Zirg'om javob qildi:

- Ularning ko'nglidagi buzuqlik hazrati oliylariga ma'lum. Ularning o'zidan ham, makrlaridan ham ko'p zamonlardan buyon nolib yurgandilar.

Xalifa gapida davom etdi:

- Do'sting Vardonning gaplari bizga sir emasdi. Chunki Xurosondagi omilimizdan maktub olib turamiz. Bu maktublarda u Afshinning o'z mamlakatiga juda ko'p mol-dunyo yuborib turishi haqida shikoyat yozardi. Ammo biz sabr qilib kelardik. Ko'p odamlar uni zardushtligi hamda Tabariston podshosi Moziyor va Bobak bilan bizga qarshi muhobaba qilishga ittifoq tuzganligi haqida maktub yo'llardi. Bundan qozi Ahmad va vazirlarimiz Muhammad bin Abdulmalik Zayyot va boshqalar xabardor. Bizga xiyonat qilishda Afshin bilan ittifoqlashgan Tabariston podshosi Moziyorni, Sug'd podshosi Marzubonni, bir zardusht ruhoniyni va Ushrusanada masjid bino qilgani uchun Afshinning qiynoviga uchragan ikki musulmonni olib kelishga kishi yuborganmiz. Men yaqinda majlis chaqiraman. Unga o'sha kishilar qatnashadi. Barcha maxfiy sirlarni shu majlisda ochib tashlaymiz va aybdorlarni o'z aybiga yarasha jazolaymiz.

Tez orada Mu'tasim majlis chaqirdi, unda o'sha kishilar qatnashdi. Unga Zirg'om bilan Vardon ham da'vat etildi. Hamma yig'ilgach, Afshin qamoqxonasidan chiqarilib majlisga olib kelindi. Vazir Abdulmalik soqchilik vazifasini olib bordi. Kaltak yegan va badanida eti qolmagan ikki kishi keltirilib, orqalari ochildi va xalifa Afshinga qarab:

- Bularni taniysizmi? - deb so'radi.

Afshin javob qildi:

- Ha, taniyman, bu kishi so'fi, bunisi imom. Bular Ushrusanada masjid qurgani uchun har birini ming qamchi urganman. Chunki Sug'd podshosi bilan oramizda har bir millatni o'z dinida qoldirish, unga daxl qilmaslik to'g'risida shartnoma bor. Bu ikkalasi Ushrusanadagi bir otashxonaga taaddi qilib, ichidagilarni chiqarib tashlab, o'rniga masjid bino qilishgan. Shuning uchun bularni o'rgan- man.

Qoralovchi savol berdi:

- Sizda oltin, javohirlar bilan bezalgan bir kitob bor, ichida kufr so'zlari ham yozilgan. Shu kitobni qayerdan olgansiz?

Afshin:

- U kitob menga otamdan qolgan, unda ajamlar[9] adabiyoti kufrlari ham bor. Men undan adablarini olib, kufrlarini tashlayman. U shunday ziynatlangan ekan, o'z holicha qoldirdim. Menimcha, bu islomdan chiqaradigan bir ish bo'lmasa kerak, deb o'ylayman.

Keyin guvohlardan yuqoridagi ruhoni yubordi:

- Bu kishi bo'g'ib o'ldirilgan hayvon va qushlarning etini ham yeydilar va ular bo'g'izlangandan shirinroq bo'ladi deb meni ham yeyishga majbur qiladilar. Bir kuni menga "Musulmonlarni yomon ko'rsam ham, hamma ishlariga kirishdim, hatto zaytun yog'ini yedim, tuya mindim, kavush kiydim, lekin shu paytgacha xatna qilinmaganimni yashirib kelaman", degan edilar, - deb guvohlik berdi. Afshin turib:

- Bu ishonchsiz odam, gapiga ishonib bo'lmaydi, - deb e'tiroz bildirgan edi, qoralovchi Afshinning gapini rad qildi. Keyin qoralovchi Afshinga qarab: - Mamlakatingizdagi kishilar sizga xat yozganda nomingizni qaysi so'zlarni qo'shib ulug'lashadi? - deb bergan savoliga Afshin: "Aytmayman", deb javob qildi.

- Ular sizni xudolarning xudosi deb yozishlari aniqmi?

- Ha, shunday deb yozishadi.

- Musulmonlar bunday demaydi. Endi fir'avndan qayeringiz kam?

- Ular otamga ham, bobomga ham shu ibora bilan xat yozishga o'rganishgan. Islomga kirishimdan avval o'zimga ham shunday yozib kelishgan. Men o'zimni ota-bobolarimdan past olib "menga bunday deb yozmanglar" deb aytishni munosib ko'rmadim.

Basharti shunday deganimda, ular meni mensimay qolishlari mumkin edi.

Keyin Moziyor o'rnidan turdi. Qoralovchi Afshinga qarab so'radi.

- Bu kishi bilan xat yozishganmisiz?

- Yo'q.

Moziyor gap boshladi:

- Bu kishining nomidan ukasi mening ukamga xat yozgan. Xat mazmuni bunday: Bu dinga Bobakdan bo'lak hech kim yordam bermadi. Lekin Bobak o'zini o'zi o'limga tashladi. Men uni o'limdan qutqazish uchun ko'p harakat qildim, lekin bo'lmadi. Agar sen qarshilik qilsang, seni o'zim o'limga tashlayman. Qo'limda bahodirlar va yordam beradigan kishilarim to'lib yotibdi. Senga qarshi askar yo'llasam, biz bilan urushadigan uch toifa - arablar, mag'ribliklar va turklar qoladi. Arablar it qatori bir xalq, oldiga bir burda non tashlab qo'yib, boshiga uraveraman. Mag'ribliklar kallaxo'r. Ammo turklar bo'lsa, ularning ishi bir soatlik. O'qlari tamom bo'lgach, tepalariga ot bilan hujum qilamizu, hammasini yer bilan yakson qilamiz. Keyin bizning zardushtlik dinimiz ajamlar vaqtidagidek rivojga minib ketadi.

Afshin:

- Guvohning o'zi bu xatni ukam yozganini aytyapti. Mening bu ishda nima aybim bor? - dedi.

Vardon o'rnidan turdi:

- Xatni yozgan ukam, menda nima ayb bor deyapsiz. Xo'sh, Farg'onadagi otashxonada sizni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishining gapiga nima deysiz? Shu Moziyor va Bobak yuborgan vakillar bilan otashxonada yonma-yon o'tirishib, musulmon davlatini barbod qilishga ittifoq tuzgansiz. Shu ishni amalga oshirish uchun yetarli mol-davlat to'plab berishni siz ustingizga olgansiz. Afshin teskari qaradi:

- Bu menga da'vogar, o'z da'vosini quvvatlash uchun yolg'on gapiryapti.

Vardon bo'sh kelmadi:

- Vasiyatnomaga shohid bo'lgan ruhoniyning o'zini olib kelsamu, u ham mening shu gapimni tasdiqlasa, bunga nima deysiz?

Xalifa:

- U ruhoniyni o'zimiz oldirib kelamiz, - dedi.

Vardon: - Hazrati oliylari hozir Afshinning Somurrodagi uyiga bir kishi yuborsalar, zardushtlarning suratlaridan albatta bittasini topib keladi, - deb iltimos qildi.

Qoralovchi:

- Uni biz kecha oldirib keldik, - dedi-da, bir g'ulomga buyurib o'sha suratni keltirib ko'rsatdi: yog'ochdan ishlangan haykal ustida ko'p qimmatli toshlar bor. Haykalning qulog'ida bir-birining ichiga kirgizilgan ikki tosh bo'lib, ularning ustki tomoniga oltin quyilgan edi. Bundan tashqari bir necha but va zardushtlarning bitta kitobi ham bor edi. Ularni ko'rib Afshin hang-mang bo'ldi-yu, tiliga muhr bosildi. Shundan keyin xalifa uni qamoqxonaga qaytarib: "O'lgunicha ovqat va suv berilmasin" deb buyurdi. Afshin 226 yil, melodiy 840BṬ"841 yillarda o'ldi.

Bir necha kundan keyin Zirg'om xalifa oldiga kirib, Afshinning Jahonga vasiylik da'vosini tag-tugi bilan tushuntirib berdi. Xalifa esa uning vasiyligini bekor qilib, otasidan qolgan mollarni Jahonning o'z qo'liga olib berilishini buyurdi va Farg'onaga kishi yuborib, u yerdagi "Korshonshoh" degan otashxonani buzdirdi. Hammod bilan Vardonni o'z a'yonlari qatoriga qo'shdi, Zirg'omni xalifa saroyidagi ikki qasrga joylashtirishni buyurdi. Xalifa Jahon bilan Zirg'omning to'yini o'tkazishga amr qilib, hammalariga katta-katta in'omlar berdi.

### Zirg'omning Nasl-Nasabi

Somon hibsonada bir qancha vaqt qolib ketdi. U Vardon bilan bo'lak hech kimning esiga ham kelgani yo'q, Vardon vaqt-vaqti bilan uni masxaralash va o'ch olish uchun oldiga borib turardi. Zirg'om esa band. Afshinning ishidan xotirjam bo'lganidan keyin Zirg'om rahm qilib, Somonni ozod qildirib yubormoqchi bo'ldi. Vardon unga e'tiroz bildirdi:

- Uni bo'shatsang, o'rniga go'yo meni qamagan bo'lasan. Men undan bir qancha narsalarni so'rab, o'z og'zidan javob eshitishga qiziqaman, chunki u hech bir inson qilmaydigan ishlarni qilgan.

Zirg'om:

- Bo'lmasa, bu haqda Jahonning fikrini olaylik, - dedi.

Vardon:

- Yaxshi bo'ladi, - deb javob qildi.

Zirg'om Jahonga maslahat solgan edi, u "bilmadim, uning xususida mendan so'ramay qo'ya qolganingiz yaxshi edi, mutlaqo unutilib yuborishni istardim", degan javobni berdi.

Zirg'om har qalay uning fikrini bilish uchun:

- U hozir qamoqda, uni nima qilsak ekan? - dedi.

Jahon bir oz sukutdan so'ng:

- Uni bo'shatishingni istardim, lekin menga hanuz qorong'i bo'lib kelayotgan bir sirni juda ham bilib olgim kelyapti - otamning undan xafa bo'lganligi sababini, - dedi.

Shu payt Zirg'om ko'p vaqtdan buyon bilishga orzumand bo'lib yurgan boshqa bir sirni esladi: bu - o'zining nasabi masalasi edi.

Somondan sirni bilib olgach, o'z nasabi ustida onasidan uzil-kesil so'rashni diliga tugdi.

Zirg'om qamoqxonadan Somonni uyiga oldirib kelib, mehmon qilmoqchi bo'ldi, unda o'zi, onasi, Jahon, Yoquta, Hammod, Vardon va Haylona ishtirok etdi.

Somon yomg'irda qolgan mushukdek shumshayib kirib keldi-da, jazolanishdan qo'rqayotgan gunohkordek tikka turdi. O'z qilmishlarini o'ylab, rang-ro'yidan ajragani yetmagandek, aft-basharasi ham tirnalgan, kiyim-boshlari yirtilib, ozib-to'zib ketgan edi. Hovli o'rtasiga kelib to'xtagach, bo'ynini egib, o'tirganlarga ko'zini javdiratib qaradi. U Yoqutani ko'rdi-yu, ahvoli o'zgarib, bir xil bo'lib ketdi. Keyin Jahonga ko'zi tushdi-da, xo'rliki kelib, yig'lab yuborguday bo'ldi. Jahon Somonni shunday ayanchli holatda ko'rib, o'ziga qancha jabru jafolar qilganiga qaramay, rahmi keldi - yig'lab yubordi. O'tirganlarning hammasi unga achindi. Ammo Vardonning ko'ngli mutlaqo yumshamadi. O'tirganlar ruxsati bilan birinchi bo'lib Vardon so'zladi:

- Somon! Qo'rqma, bironta gunohing uchun seni sud qilishga chaqirganimiz yo'q, o'zing bo'laringcha bo'psan. Sud qilganimiz bilan ham aybingga loyiq jazo topa olmaymiz, odamlarga munosabatda sening qarorsizliging qiziqtiradi. Bir qarasaq, seni otang merosidan mahrum qilgani uchun Afshindan xafa bo'lib, unga qarshi Sohibdan yordam izlayapsan, keyin birdan Sohibga qarshi bo'lib qolib, Afshindan madad so'rayapsan. Yana sal fursat o'tmay, Afshin bilan teskari bo'lib qolasan-da, yordam so'rab Sohibga murojaat qilasan. Xullas, sening kimga do'st, kimga dushmanligingni hech kim bilmaydi. Eng katta jumboq - axloq tomondan ham, husn-aqlidan ham farishtalarga o'xshagan shu singlingga xiyonat qilganing. U birovning xasmi bo'lsa, o'z sevgilisi yashayotgan yerga qochib ketishda senga ishonsa, akam deb suyansa-yu, sen shunga qaramay, dunyodagi eng buzuq kishiga uni ro'baro' qilgansan. Singlingning xiyonatkorona qo'lga tushurilib, buzuqlik sardori bo'lgan o'sha la'natiga majburan eltib berilishiga rozi bo'lgansan. Uni Somurroga olib borganingda, u la'natidan oladigan mukofotdan ko'ra yaxshiroq mukofotga ega bo'lgan bo'larding-ku axir. Baribir Bobakdan mukofot emas, sharmandalik, rasvolik topding, unga avval yordam berib, keyin xiyonat qilding, istehkomlarining sirini dushmanlariga ochib berding. Singlingga va uning sevgilisiga yoqmaydigan ishlarda Afshin bilan til biriktirding. Odamlar orasida ko'p yomonlarini ko'rdim, ular o'zlariga ham, boshqalarga ham ayon bo'lgan bir maqsad yo'lida senikidan badtarroq ishlarni qiladilar. Ammo senda ma'lum bir maqsad borligini bilmadim.

Somon yolg'ondan boshini yerga solib, Vardonning gapini tinglardi. Ko'zi g'ilay bo'lgani uchun qarab turgani aniq bilinmasa ham, Yoqutadan ko'zini uzmasdi. Vardon so'zini tamomlaganidan keyin Somon unga qarab, qo'rqa-pisa gapirdi:

- Men qilgan ishlarimning sababini o'zim bilmaymanu, senga qanday aytib beray. Men shunday yomonliklar qildimki, uni bilganlar bildi, bilmaganlar yo'q. Ularning yoki loaqal ulardan bittasining sababini so'rasalar, javob ayta olmay qolaman. Mening bilganim shuki, avval bir yomonlikni qilaman, keyin uni tuzataman deb undan badtarrog'iga yuguraman. Xullas, ishlarimning hammasi boshdan-oyoq zanjirdek bir-biriga ulangan gunohlardan iborat. Birinchi gunohimni ko'rib, undan andoza olaver, - dedi-da, rangi o'zgarib, zo'rg'a tupugini yutib, o'zini u yoq-bu yoqqa tashladi.

Vardon to'satdan:

- O'sha birinchi gunohing nima? - deb so'rab qoldi.

Somonning kuzlari pir-pir uchib Yoqutaga qaragancha anqayib qoldi-da, keyin ko'zidagi harakat boshqa a'zolariga ham o'tdi.

Hatto ikki tizzasi bir-biriga chalishib, yiqilib ketayozdi.

Undagi bu o'zgarishni ko'rgan Zirg'om:

- Somon, bo'lmasa, bemalol o'tirib gapira qol, - dedi. Boshqa o'tirganlar ham uning ahvoli o'zgarib. Yoqutaga qattiq tikilib qolganidan hayron bo'lishdi. Yoquta o'zi ham uyalib, xijolat tortdi va unga teskari qarab o'tirdi.

Zirg'omning gapi bilan Somon cho'kkalab o'tirdi-da, ikkala kafti orasiga boshini qo'yib, o'kirib yig'lab yubordi. U entika-entika yig'ladi. O'tirganlar, bu yolg'ondan yig'layapti, shaytonlik qilyapti degandek bir-biriga qarab qo'yishdi. Keyin u yig'isini to'xtatib, birdan irg'ib turdi-da. Yoqutaning oyog'iga yiqilib, yana yig'i boshladi. Odamlar xususan, Hammod hayron bo'lib, o'z xotinidan uni nariroqqa itarib tashlamoqchi bo'lib, oldiga bordi:

- Somon! Senga nima bo'ldi? Kishilar sendan avval boshlab qilgan gunohingni so'rashyapti, nega javob bermaysan?

Somon Yoqutani ko'rsatib, baland ovoz bilan: "Dastlabki gunohim shu yerda, xuddi mana shuning ustida", - deb yana yig'lab yubordi. O'tirganlar yana hayron bo'lishda va uni aqlan ozibdi, deb o'ylashdi. Jahon ham shunday xayolga borib:

- Gapirsangiz-chi, axir sizga nima bo'ldi? Nega Yoqutaga yopishib oldingiz? Sizning nimaligingizga hech kim tushuna olmayapti, - dedi.

- Birinchi yanglishganimning o'zi shu Yoquta. Buning asli ismi Yoquta emas, Shahrizod, - dedi.

Somonning bu gapini eshitgan Zirg'omning onasi Oftob:

- Shahrizod?! To'g'ri, xuddi Shahrizodning o'zi, - deb baqirdi va yonida o'tirgan Yoqutani bag'riga bosib: - Senga qo'limni birinchi tegizganimdanoq isingdan sezgan edim, - dedi. Keyin Jahonni chaqirib: "Jahon! Azizim, Shahrizodni tanimaysanmi?" - deya savol qildi.

Jahon hayron bo'lib, bir oz o'ylanib turdi-da:

- Bunaqa ismli qizni bilmayman, faqat men tug'ilmasimdan burun go'dakligida o'lib ketgan Shahrizod degan opam bo'lganini eshitganman, - dedi.

Oftob:

- Sening opang xuddi shuning o'zi, u o'lgan emas, yo'qolgandi. Voqea noma'lum bo'lgani uchun uni o'ldi deb ovoza qilishgan. Bu sirni men, dadang va shu Somondan bo'lak hech kim bilmasdi. Uning yo'qolishi shu Somonning qo'li bilan bo'lgan.

Bu endi atak-chechak qila boshlagan paytida Somon bog' tomonga olib chiqqan-da, saldan keyin o'zi yig'lab qaytib kelgan.

"Shahrizod qani", deb dadang so'raganda, u: "Yilqichilarning otidan bittasi kelib, uni olib qochib ketdi", - deb javob qilgan. Otang Somonning gapiga ishonmadi. Unga har qancha do'q-po'pisa urib qo'rqitsa ham, bu o'sha gapini ma'qullab turaverdi. Shundan keyin uni yomon ko'rib qolgan va noiloj Shahrizodni "o'ldi", deb ovoza qildirishgan, - dedi.

Oftob shu voqeani so'zlarkan, hamma miq etmay jim o'tirardi. U gapini tugatgach, Jahon Yoqutaga yopishib, bag'riga tortdi-da, hadeb o'pa boshladi. Yoqutaning sevinchi hammanikidan ham oshib tushdi, chunki shu vaqtgacha o'zini cho'ri deb yurgan qiz hokimning qizi bo'lib chiqdi. U ham singlisini quchoqlab o'pdi. Bu tasodifdan hayratda: "Opa-singil o'rtasidagi bu o'xshashlik bejiz emas ekan-da", deyishar va bir-biridan bu o'ngimizmi, tushimizmi deb so'rashardi.

Jahon so'radi:

- Somon aka, ochig'ini ayting, Shahrizodni qanday qilib sizdan olib ketishgan?

Somon ko'z yoshini artib turib: - Men o'n yoshlarda, bu opang esa to'rt yoshdalik vaqtimizda ancha esimni tanib qolgan bola edim. Dadam bilan oyim buni juda sevib erkalatishar, menga esa unday qilishmasdi. Mening rashkim kelib, singlimni yomon ko'radigan bo'lib qoldim. Otamdan pul so'raganimda menga bermasdan, bunga pulni ham, boshqa narsalarni ham beraverganlari menga qattiq alam qildi. Bir kun odamlar ko'chalarda yurib kichkina bolalarni sotib olisharmish deb eshitib qoldim-da, singlimning murabbiyasi ko'zini shamg'alat qilib, uni bog'cha tomonga aldab olib chiqdimda, o'shalarga ikki oltinga sotdim. Ular buni olib ketishdi, men esa uyga qaytib kelaverdim. Shahrizod qani deb so'rashganda, bilmayman, ot olib qochib ketdi, deb javob qildim. Dadam ishonmadilar. Keyin uni men sotib yuborganimni eshitib, ko'p qidirtirdilar, baribir foyda chiqmadi. Shundan keyin otam meni yomon ko'rib, endi senga hech narsa bermayman deb ta'kidlab qo'ydilar. Shundan buyon hamma menga dushmanu, hamma xatti-harakatlar mendan o'ch olish, menga zarar yetkazish uchun qilinayotgandek tuyulib, qaysi yo'l bilan bo'lsa ham mablag' to'plab, ulardan o'zimni himoya qilishim kerak, degan fikrga o'tib oldim. Shu yo'lda birinchi qilgan harakatim otam betob bo'lib yotgan chog'larida vasiyatnoma yozdirishlarini to'xtatish bo'ldi, lekin uni eplay olmadim. Bunday uddaburologimni tuzataman, deb undan battarroq falokatga uchradim. Xullas, nima ish qilmayin, hammasi men xohlaganimni teskarisi bo'lib chiqaverdi. Mana, bir necha kundan beri qamoqda yotib, endi ko'zim ochildi - haqiqatni angladim, - dedi-da, qattiq bir oh tortdi. Rangi badtarroq o'chib, butun a'zoyi badani qaltirab: - Boshimdan o'tgan hamma sirlarimni ochiq aytib berganimdan keyin menga rahm-shafqat qilmoqchi ham bo'lib qolarsizlar, yo'q, men sizdan gunohlarimni kechirishlaringizni so'ramayman, chunki butun hayotni rasvolik, buzuqlik bilan o'tkazgan mendek odamning jazosi o'limdir, - dedi-da, yonidan xanjarini olib ko'krigiga bir sanchdi-yu, qora qoniga belanib, yerga yiqildi. Hamma yoq shovqin-suron bo'lib ketdi, ayollar bu qo'rqinch manzaradan chetga qochishdi. Somon oldingi qilmishlariga astoydil tavba qilganiga qat'iy ishonganlari uchun, uning o'lib ketganiga achinishdi, ko'mish marosimi tashkil etishdi. Uning o'limi hammadan ko'ra ko'proq Jahonga qattiq ta'sir qildi.

"Jahon bilan Yoquta ikkalasi opa-singil ekan", - degan gap hammaning og'ziga tushdi - tillarda afsona bo'ldi. Ikkalasi otadan qolgan merosni bo'lashib oldi. Hammod bilan Zirg'om xalifa qoshida katta obro'ga ega bo'lib bir-biriga boja bo'lishdi va istagan maqsadlariga erishishdi. Lekin Zirg'om o'ylagan bir narsa hamon yechilmay, ko'nglining bir chekkasini xira qilib turardi. Zirg'om o'shani bilishni istab, bir kun onasi yoniga o'tirdi-da:

- Mening haqiqiy nasl-nasabimni aytib beradigan vaqt hali ham kelmadimi? Xudoning menga qilgan shuncha marhamatlarini ko'rib turib, uni aytib bera qolmay, yana nimani kutib turibsiz? - dedi.

Oftob keyinga siltashga urindi:

- Men hech narsani kutayotganim yo'q. Lekin sen hali o'zingga munosib o'ringa erishganing yo'q.

- Ya'ni otam mendan ko'ra ulug'roq, martabalari balandroq kishi edi, demoqchimisiz?

- Ha, albatta.

- Unday bo'lsa, u kishi bosh sarkarda yoki vazir bo'lgan ekanlar-da? Shunday bo'lsa, u kishining ishlari odamlardan maxfiy qolmasligi kerak edi-ku.

- Dadang sen aytayotgan shaxslardan ham yuqori edi.

Zirg'om hayron bo'lib: - Bo'lmasa, Payg'ambar yoki hazrati Ali avlodidan ekanlar-da, - dedi.

- Ularning a'yonlaridan.

Zirg'om boshini yerga egib, onasi kimni aytmoqchi bo'layotganini o'ylab qoldi. Endi otasining xalifa bo'lganiga shubhasi qolmadi. "Demak, otam xalifa bo'lgan ekanlar-da",- deb so'rmoqchi bo'ldi-yu, lekin uyalib so'ramadi va indamay turib qoldi. Onasi esa hamon uning so'rashini kutardi. Zirg'om so'ramay jim turavergandan keyin, Oftob:

- Savolingni nega oxiriga yetkazmayotibsan? - dedi.

- Ko'nglimdagini aytishdan uyalyapman.

- Uyalma, xalifamidilar demoqchi bo'lsang, to'g'ri topgan bo'lasan. Dadang xuddi xalifa edilar.

Zirg'om hayajon ichida:

- Otam xalifa? U nima deganingiz? Mu'tasim yoshda menga yaqin, u otam bo'lishi albatta mumkin emas. Ma'mun ham, Amin ham menga ota bo'lganligi amri mahol, - dedi.

- Ular sening aka-ukalaring bo'ladi.

Zirg'om yana hayron bo'ldi:

- Demak, meni Horun ar-Rashidning o'g'li bo'lamanmi?

- Ha, o'g'lim, xuddi shunday, uzoq yillar o'tgandan keyin bu haqiqatni birinchi marta gapirishim.

- Dunyoda buni biladigan sizdan boshqa odam ham bormi?

- Yo'q.

- Bu sirni shuncha vaqtdan buyon bekiteb yurishning ma'nisi nima? Odamlar xalifalarning o'ziga emas, hatto ularning dumlariga mansub bo'lsa qancha maqtanishadi-ku?

- Buning bir sababi bor, aytib bersam, to'g'ri ekan, deb aqling ishonadi. Men Bag'dodda Horun ar-Rashid saroyidagi cho'rilaridan bittasi edim. U meni yaxshi ko'rardi. Bir kechasi u singlisi Abbosani, uning eri Ja'far Barmakiyni va o'g'illari Husayn va Hasaynlarni yo'q qildi. Buni g'oyat sir tutganidan, uni ijro qilishda foydalangan hamma odamlarni ham o'ldirib yubordi.

Qasrdagilarning hammasi bo'layotgan voqeani olisidan ko'rib turgan bo'lsa ham, birortasi o'z xonasidan chiqishga botina olmadi.

Ammo men o'sha vaqtda yosh bo'lganim uchun uni ko'rish va eshitishni o'zimga ma'qulladim-da, bir yerga borib biqinib turib, Horun ar-Rashid o'z singlisi va boshqalar to'g'risida ayoli Zubayda bilan gaplashganini eshitdim. Shu biqingan joyimda meni ham hech kim ko'rmaydi deb o'ylagandim. Qarasam, Zubayda Horunga xitob qilib: "Cho'rilaringiz gapimizni eshitayotgan ekan", - deb meni ko'rsatib berdi. Shunda men endi albatta qatl qilinaman, deb o'zimni o'limga hukm qilib qo'ydim, yuragim qinidan chiqib, dag'-dag' titraganimdan oyoqqa tura olmay qolmadim. Horun jahl bilan Masrurni chaqirib: "Kim u, hozir bu yerga olib kel!" deb buyurdi. Menga ko'zi tushgach, Horun achindi, chunki ayg'oqchilarga xos ish qilganim uchun u albatta meni o'ldirishi kerak. U har qancha qattiqqo'l kishi bo'lsa ham, kishi bo'lsa ham, ko'z yoshimni ko'rib bo'shshadi. Bir nafas yerga qarab turdi-da, - Habiba, o'zingni-o'zing o'limga tashlading-da, - dedi. Horun meni Habiba deb atar edi.

Men uning oyog'i ostiga tashlandim, yig'ladim, hatto ko'z yoshim uning oyoqlarini ho'l qilib yubordi. Shu vaqtda men senga senga homilador edim. "Yoshligimga, qornimdagi bolangizga rahmingiz kelsin, shafqat qiling", deb yalindim, yolvordim.

Horun ozgina jim turdi, so'ng o'z shaxtidan qaytib: "Mayli, bir qoshiq qoningdan kechdim, lekin bundan keyin seni ko'rishga va nomingni eshitishga toqatim yo'q", - dedi-da, Masrurni chaqirib: "Hozir buning zod-rohilasini tayyorlab, o'zi istagan yurtiga jo'natib yubor", - deb farmon berdi. Men, "Farg'onaga boraman", dedim, chunki avvaldan u yer menga tanish edi.

Horun meni yonidan chiqarib yubordi. Shu qop-qorong'i kechada Masrur bilan Bag'doddan tashqariga chiqdim. U bir necha yilga yetadigan mol-holni tuyamga yuklab berdi-da, xayrlashib, o'zi qaytib ketdi. Yo'lda ko'p yurdim, orada seni tug'ib ham oldim. Oxiri Farg'onaga eson-omon yetib kelib, hokim va uning oilalari bilan tanishdim. Ko'p odamlar menga sovchi yuborishdi, erga tegishni xohlamay seni tarbiyat qilish bilan mashg'ul bo'ldim. Ammo sirimni hech kimga boy bermadim, uni hammadan pinhon saqladim. Sen katta bo'lib aql-hushingni taniganingdan keyin "Bag'dodga boramiz", deb meni qistading, men esa unamay, galga solib yurdim. Horun ar-Rashid ham, xotini Zubayda ham dunyodan o'tgandan keyingina bu yerga - Bag'dodga kelishim mumkin bo'lib, sen bilan safar qilishga rozilik berdim.

Oftob boshidan o'tganlarini gapirib bo'lgach, Zirg'om:

- Demak, men Mu'tasimning ukasi ekanman-da, - dedi.

- Ha, uning ukasidan, u buni bilib qolsa, seni yana ham o'ziga yaqinroq tortadi, martabangni bundan ham oshi-radi.

Zirg'om "kerak emas" degandek boshini silkib dedi:

- Yo'q, oyi! Bu sir ikkimizning oramizda maxfiy qolaverishi kerak. Mu'tasim bilib qolsa, menga bo'lgan muhabbati o'rini hasad egallab, mening payimga tushib qoladi. Men o'zimming nasl-nasabimni bilib oldim. Shuning o'zi yetarli. Uni izhor qilgan taqdirimizda biror foyda chiqadi deb o'ylamayman, chunki odamlar baribir ishonmaydi. Kutganimizdan ham ortiqroq ne'mat va martabaga erishganimiz uchun xudoga shukur qilamiz.

Jo'rjiy Zaydon Va Uning "Farg'ona Kelini" Romani Haqida

Jo'rjiy Zaydon arab adabiyotining yirik namoyandalaridan biri. U adabiyot sohasidagina emas, balki fan va madaniyat bobida ham anchagina ishlar qildi, adabiyotshunoslik, til, falsafa, tarix, huquq, geografiya, jurnalistika, yozuvchilik - bular Zaydon qiziqqan va hayratomuz darajada samarali ijod qilgan sohalardir.

Jo'rjiy Zaydon 1861 yil 14 dekabrda Bayrut (Livan)da tug'ilib, 1914 yil 21 avgustda Qohirada vafot etdi. U kambag'al oilada tug'ilgani uchun ko'p o'qishga qurbi yetmadi, poyabzal moylab yurib, mustaqil ravishda kitob mutolaasiga kirishdi; adabiyot, tarix uni erta qiziqtirdi. U o'z kuchini sinab ko'rgan sohalarning birortasida ham rasmiy ta'lim olmagan, hammasiga ham shaxsiy mutolaa bilan erishgan edi. Jo'rjiy Zaydon protestantlar kollejiga qisman qatnab o'qib, dorichi degan guvoohnoma olgan xolos. Keyin u Misrga borib, u yerda "az-Zamon" jurnali redaksiyasiga ishga kirib bir yilcha ishlaydi (1882), keyin Livanga qaytadi, so'ngra Bayrutda bir yilcha olimlar suhbatida bo'lib, ko'p narsa o'rganishga muvaffaq bo'ladi. Undan Londonga borib, tabobat

sohasidagi bilimlarini oshirishga urinadi, u yerda sharq adabiyoti va tarixini biladigan olimlar bilan tanishadi, kutubxonalariga qatnaydi. Britaniya muzeyi kutubxonasida u ayniqsa ko'p mutolaa qiladi. Bunday arab manbalari uning ijodiga katta turtki bo'ldi. So'ngra Zaydon Yevropa bo'ylab sayohat qiladi. Qohiraga qaytgach, muallimlik qiladi, ayni zamonda "al-Muqtataf" jurnalida ishlay boshlaydi. Zaydon 1892 yili Misrda "al-Hilol" (Yarim oy) jurnaliga asos soladi va umrining oxirigacha - yigirma yildan ko'proq vaqt mobaynida uning noshiri bo'lib qoladi. Bu adabiy jurnal shundan buyon o'tgan sal kam sakson yil davomida arab adabiyoti va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shdi.

Zaydon bu jurnal uchun tarixiy-adabiy maqolalar yozdi, uyushtirdi. Shu jurnal taqozosi bilan u ilmiy-ommabop maqolalar va tarixiy sarguzashtlar yozib, keyinchalik tarixiy romanlar yaratdi.

Zaydon 1889 yilda ikki jildlik "Misrning yangi tarixi", "Umumiy mosuniy tarixi"ni, 1902-1906 yillar orasida esa besh jildlik "Islom madaniyati tarixi"ni yozadi. Bu so'nggi asar to'laligicha 1910-1912 yillar orasida Istanbulda turk tiliga, keyin fors, hind tillariga, 1907 yilda Leydenda to'rtinchi tomi ingliz tiliga, birinchi tomi esa 1914 yilda tatar tiliga tarjima qilindi. 1908 yilda Zaydon "Arablarining islomdan oldingi tarixi" asarini yozdi. Uning ikki jildlik "Sharqning mashhur kishilari", "Arab tili tarixi", "Qadimgi arab nasablari", "Yangi farosat ilmi", "Xalqlar darajasi", "Ajoyib yaralmalar", "Umumiy tarix", "Qisqacha yunon va rumo tarixi", "Misrning qisqacha geografiyasi" kabi tarixiy-adabiy va tilshunoslikka oid asarlari bosilib chiqib, muallifiga katta shuhrat keltirdi. Zaydon vafotidan keyin farzandlari uning uch jildlik tanlangan asarlarini nashr ettirdi.

Zaydonni adabiyot olamiga mashhur qilgan uning romanlari bo'ldi. U arab tarixiy romanchiligiga asos soldi, uni yuqori pog'onaga ko'tardi. Zaydonning 22 tarixiy romani bo'lib (bularning ko'pi o'rta asr tarixiga oid), ular chuqur o'rganishga, tadqiq etishga arziydi.

Zaydonning tarixiy romanlari ikki qismli "G'asson qizi"dan boshlanadi. Bu asarni avtor 1886-1897 yillar orasida yozgan. Asar arablarning islomdan oldingi davrdagi urf-odatlarini, ulardagi ichki qaralama-qarshiliklar, ilk islom davri va bu dinning kelib chiqishi, islom dinini joriy etish uchun bo'lgan kurashlar, musulmonlarning Makka shahrini egallashi, ikkinchi xalifa Umar davrigacha (634-644) bo'lgan voqealarni, Suriya, Iroq, Eronning bosib olinishini o'z ichiga oladi. Uning ikkinchi romani - "Misrlik Armanusa"da arab qo'mondoni Ibn al-Os rahbarligida Misrning bosib olinishi, vizantiyaliklar odatlari, arab qo'shinlarining jang usullari to'g'risida hikoya qilinadi.

Xalifalik ichida bo'lgan ichki nizolar, toj-taxt uchun o'zaro kurashlar, xalifa Umarning o'ldirilishi, Alining xalifalik taxtiga o'tirishi kabi voqealar "Quraysh go'zali", "O'n yettinchi ramazon" romanlarida aks etgan. "Karbalo go'zali" romani xalifa Alidan so'nggi qonli urushlarga, uning o'g'li Husaynning Karbaloda o'ldirilishi - shialar bilan sunnilar o'rtasidagi mazhab kurashi voqeasiga bag'ishlangan.

Zaydon arablarning Ispaniyani fath etilishi va Fransiya chegarasigacha yetib borishi voqealariga "Andalus fathi" va "Sharh (Karl) va Abdurahmon" romanlarini bag'ishlagan. Shu tariqa Zaydon islom paydo bo'lganidan keyingi har bir yirik voqeani chuqur, atroflicha o'rganib, ularni keng o'quvchilar ommasiga yetkazish uchun roman janrini tanlaydi. Uning "Abu Muslim Xurosoniy", "Ar-Rashid singlisi - Abbosa", "al-Amin va al-Ma'mun", "Ahmad ibn Tulun", "Abdurahmon G'olib", "Qayruvon qizi", "Salohiddin Ayyubiy", "Dur daraxti kabi romanlari shular jumlasidan bo'lib, VII-XII asrlar o'rtasidagi davrni o'z ichiga oladi.

\* \* \*

"Farg'ona kelini" romani IX asrda arab xalifaligida bo'lib o'tgan voqealarga bag'ishlangan. Roman voqeasini yaxshiroq tasavvur qilmoq uchun tarixiy voqealarni bir lahza ko'z oldimizga keltiraylik.

Xalifalik territoriyasida IX asrda xalq harakatlari boshlanib, ba'zi bir joylarda avj olib ketgan edi. Xalifa hukmronligini dahshatga solgan voqealardan biri Bobak qo'zg'oloni edi.

Bobak Xurramiy Ozarbayjon, Armaniston va Shimoli-g'arbiy Eronda boshlangan xurramiyalar harakatiga bosh bo'lib, yigirma yildan ortiq kurashdi. Hatto xalifa Ma'munning (813-833) ham bu qo'zg'olonni bostirishga qurbi yetmadi. Shu bilan bir vaqtda Misrda (829-832) qo'zg'olon ko'tarilib, uni bostirish uchun xalifaning o'zi bosh bo'lib Misrga boradi, qo'zg'olonchilarni qattiq jazolaydi. Bu orada ichki ziddiyatlar va taxt uchun kurashlar zo'rayadi. Xalifalikda hatto arab qo'shinlariga ham to'la ishonch qolmaydi, ularning turini o'zgartirishga kirishiladi. Bag'dod a'yonlari va qo'mondonlarining doimiy fitnalaridan xavfsiragan xalifa, avvalo O'rta Osiyodagi xalqlardan qo'shin to'plab, o'z taxtiga tayanch qilib oladi. Dastlab bu askarlar chegara to'qnashuvlarida asir tushgan hamda o'sha davrda qul bozorlaridan sotib olib kelingan qullardan, keyinchalik maxsus tuzilgan qo'shinlardan iborat bo'ldi. Bular xalifa dargohida turib, poytaxtdagi arab isyonkorlariga qarshi kurashda, ularning qo'zg'olonlarini bostirishda xizmat qilgan. Bu askarlar mahalliy arab aholisi bilan aloqada bo'lmas, hatto ularga uylanish ham ta'qiqlangan edi. Shu boisdan ham ular uchun O'rta Osiyodan turk cho'rilarini sotib keltirib, bir qismini uylantirib ham qo'yishardi. (Bu holat romanda ham aks ettirilgan). Xalifa bular xizmatidan yaxshi manfaatdor bo'lgani uchun ularga yetarli maosh va mukofotlar berib turgan. Turk askarlaridan tuzilgan gvardiyaga keyinchalik shu xalqdan sarkardalar tayinlagan. So'ngra ichki nizolardan qo'rqqan xalifa Mu'tasim (813-843) yangi shahar Somurroni bunyod etib, turk gvardiyasiga o'sha yerni qarorgoh qilib belgilaydi, so'ngra poytaxtni ham unga ko'chiradi. Lekin xalifa Somurroda ham bora-bora turk qo'shinlari va lashkarboshilaridan xavfsiray boshlaydi. Chunki bu gvardiya boshliqlari toj-taxt uchun o'zaro kurashlarga ham aralashib, o'z manfaatlariga xizmat qiladigan nomzodni qo'llashga harakat qila boshlaydilar.

Arab xalifaligiga kirgan boshqa xalqlar, hokimlar xalifalik taxtini saqlab qolishga urinishgan. Chunonchi, Ushrusana hokimi Afshin xalifalikning eng yirik sarkardasi bo'lgan. Shu Afshin yordamida Mu'tasim akasi Ma'mun ham bostirolmagan Bobak qo'zg'olonini bostiradi va Bobakni Somurroga keltirib o'ldiradi. Afshinning o'sib borayotgan nufuzidan qo'rqqan xalifa uning Bobakni tutib berganini ham hisobga olmaydi, xiyonatda ayblab o'ldiradi.

Zaydonning "Farg'ona kelini" romani ana shu voqealarga bag'ishlangan. Bunda barcha tarixiy voqealar, shaxslar o'zicha qoladi. Voqea Farg'ona hokimining qizi Jahonning Zir-g'om bilan sevgisi tasviri bilan boshlanib, tarixiy voqealarning borishiga ko'ra, bu sevishtanlar boshqa yurtlarda turli-tuman sarguzashtlarga duchor bo'ladi. Jahon Bobak qarog'chilari qo'lga tushib, voqea Armanistonga ko'chiriladi, u yerda xurramiyalar bilan xalifalik qo'shini to'qnashuvi tasvirlanib, Bobakning qo'lga tushishi, qatl etilishi ko'rsatiladi. Nihoyat, roman Jahonning Iroqqa Somurroga kelishi, ikki sevishtanning bir-biriga yetishuvi bilan tugaydi. Tarixni yaxshi bilgan Zaydon tarixiy asarlar yozish, bilan qanoat hosil qilmagan. U odamlarga tarixni badiiy asarlar orqali targ'ib qilishni, ularni tarixdan o'rnatib olishga da'vat etishni ma'qul ko'rgan. Shu sababdan roman janrini tanlagan. Bunday barcha qahramonlar tarixiy shaxslar bo'lib, ba'zi birlarigina avtorning ijodiy fantaziyasi mahsulidir.

Yozuvchining o'zi bunday deydi: "Odamlarning tarix o'qishiga va undan foydalanishiga eng yaxshi vosita tarixni roman shaklida

This is not registered version of TotalDocConverter

omni-ma'rifatga erishish kerakligi haqida fikrlash. Bunday fikrlash, ba'zi bir Yevropa yozuvchilarida ko'rganimizdek, roman tarixdan ustun turmasligi kerak, balki tarix romandan ustun turishi va romanni boshqarishi kerak. Bu xil G'arb yozuvchilarida shundayki, ularning tub maqsadlari roman yozish bo'lib, uni ishonarli qilib ko'rsatish maqsadidagina tarixiy voqealardan foydalanishadi. Bunda ular tarixiy voqealarni izohlashdan chekinib, o'quvchilarni adashtirib qo'yadilar.

Biz esa o'z romanlarimizda o'tmishdagi tarixiy voqealarga asoslanganmiz. Barcha qiziq voqealarni keltirishimizdan maqsad o'quvchini ularga qiziqtirishdir. Tarixiy voqealar hech o'zgartirishsiz, o'zicha olingan, sevgi qissalarini kiritishdan maqsadimiz romani oxirigacha o'qib chiqishi uchun o'quvchida qiziqish uyg'otishdir".

Avtor tarixiy romanni shunday tasavvur qilgan. Rostdan ham u tarixiy voqealarni chuqur mutolaa qilgan, romandagi yirik shaxslar va ular haqidagi tavsiflar, shahar ko'rinishlari, qal'a, daryo, ibodatxonalar, diniy e'tiqodlar, kiyim-kechak, tashqi ko'rinishlar, ma'lum xalqning kasb-hunarleri - hamma-hammasi tarixiy kitoblardan olingan. Hatto bularni sharhlashda o'quvchi oldida mas'uliyat sezgan va uning shubhasidan hayiqqan Zaydon roman betlarida o'zi tayangan manbalarni ham keltirgan. Shu tariqa roman sahifalarida mashhur sharq tarixchilaridan Mas'udiy, Yaqubiy, ibn Butata, ibn al-Asir, ibn Xallikon, al-Maqdisiy, Yoqut Hamaviy kabi nomlar va ularning asarlari uchraydi.

Zaydon bu romanni yozishdan oldin O'rta Osiyo tarixini, geografiyasini birmuncha o'rgangan ko'rinadi. Lekin shunga qaramay, uning ba'zi ma'lumotlari roman voqeasidan keyingi davrlarga oid ma'lumotlardir. Hatto O'rta Osiyo territoriyasini "Turkiston" deb atalishi ham keyingi asrlarga to'g'ri keladi. Zaydon Sirdaryoni "Farg'ona tashqarisidagi Toshkent daryosi" deb oladi, bu yerdagi qadimiy turkiy xalqlar tilining qanday atalishini bilmay, uni chig'atoy tili deb oladi. Vaholanki, Chig'atoy nomi mo'g'ullar davrida (XIII) yuzaga kelgan, romandagi voqea esa to'qqizinchi asrning birinchi yarmida yuz beradi. Bunga muallifning manbalardan kerakli ma'lumotlarni topa olmaganligi va bu o'lkalarga sayohat qilmaganligi natijasi deb qarash mumkin. Shunga qaramay, Samarqand, Buxoro, Ushrusana, Toshkent, Farg'ona, Ozarbayjon, Armaniston, Tabariston, Shom, Yunon, Antokiya, Latakiya, Konstantinopol kabi bir qancha shaharlar haqida ma'lumotlar beradiki, bu hol o'quvchilarning ma'lumotini kengaytirishga xizmat qiladi.

Zaydon o'z davrining ilg'or kishisi edi. U tarixiy voqealarni roman shaklida sharhlashda yangi, o'ziga xos yo'l topdi, ularning qiziqarli, sarguzashtli bo'lishini ta'minladi.

Jo'rjiy Zaydonning "Farg'ona kelini" romani arab mamlakatlarida ko'p tarqalib, juda keng nashr etilgan, fors tiliga ham tarjima qilingan edi. Bu asar birinchi marta arabchadan o'zbekchaga tarjima qilinib, o'quvchiga taqdim etilmoqda. Tarjimon Shoikrom Shoislomov arab tilini mukammal biladi. U ilgari arab adabiyotidan ba'zi narsalarni tarjima qilgan bo'lsa-da, lekin "Farg'ona kelini" tarjimonning birinchi yirik tarjimasidir.

Abdusodiq Irisov

AvvalgiIII- qismB Keyingi

† Melodiy hisobda 837B”838 yillar.

† Huzayfa ko'prigi.

† Ammuriyya - Bu Shaharni Ilgari Anatoliyada G'olatiya (Galatiya) Deb Atalardi, U Anqaradan Uzoqroqda Katta Markaziy Bir Shahar Bo'lib, Hozir Uning Nom-Nishoni Qolmagan. 223 (Melodiy 837B”838) Yili Mu'Tasim Uni Zabt Qilgan.

† Farsax - bir tosh, ya'ni 8 km. ga yaqin.

† Ma'mun (786B”833) Horun ar-Rashidning (766B”809) o'g'li - abbosiy xalifalaridan. Mu'tasimning akasi.

† Bay'at - xalifa saylovida tarafdor bo'lib qo'l ko'tarish - ovoz berish.

† Qustantiniya - Istambul shaharlaridan biri.

† Urmuzd - zardushtiylar e'tiqodicha, ezgulik xudosi boshqa, yovuzlik xudosi boshqa. Urmuzd esa ezgulik xudosidir.

† Ajam - arab bo'lmagan millatlar.